

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq
ta'limi vazirligi

1918-yil dekabrdan chiqa boshlagan

Jurnal O'zMAA tomonidan
2013-yil 4-martda qaytadan
ro'yxatga olinib, 0104-raqamli
guvohnoma berilgan.

Bosh muharrir:

Sarvar MAHMUDOV

Bosh muharrir o'rinbosari:

Aliyori ORIPOV

Mas'ul kotib:

Nodira AVAZOVA

Tahrir hay'ati:

Ulug'bek INOYATOV
Risboy JO'RAYEV
Hikmatilla RASHIDOV
G'ayrat SHOUMAROV
Yo'ldosh ASADOV
Fayzulla AHMEDOV
Shavkat SHARIPOV
Maqsudjon YULDASHEV
Islom ZOKIROV
Alisher ZOKIROV
Hikmatilla DAMINOV

Jamoatchilik kengashi:

Baxtiyor DONIYOROV
Abdug'ani XOLBEKOV
Ulug'bek ABRUYEV
Erkin ISKANDAROV
Bahodir SHAMSIYEV
Norbek TAYLAQOV
Abdusamat RAHIMOV
Muhammadjon QURONOV

© "Xalq ta'limi" jurnali, 2014.

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

4-son (iyul-avgust)

2014

**Badiiy muharrir:**

Akbarali Mamasoliyev

Musahhih: A.Ziyadov

Sahifalovchi: M.Xafizova

Tahririyat manzili: 100129. Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.
E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: +99871 244-49-06, Faks: +99871 244- 49-26

Jurnalga kelgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e'lon qilingan
maqolalardan olingan parchalar "Xalq ta'limi" jurnalidan olindi, deb ko'rsatilishi
shart. Maqolalarda keltirilgan ma'lumotlarning to'g'riligiga mualliflar javobgardir.
Jurnal tahririyatning kompyuter bo'limida terilib, sahifalandi.

"Kelajakka qadam" xususiy korxona bosmaxonasi hamda G'afur G'ulom nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy uyi hamkorligida chop etildi.

Manzil: Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Navoiy ko'chasi,
X. Raxmatullayev tor ko'chasi, 1-uy.

Bosishga ruxsat etildi: 08.07.2014-y. Qog'oz bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma
usuli. Shartli b.t. 12,0. Adadi 21744 nusxa. 380-buyurtma.

TAHRIRIYAT

Yoshlar manfaatlarini qonun himoyasida.....	4
---	---

TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

Faxriddin JONIYEV. Ta'lim sifatini oshirishda milliy qadriyatlarning ahamiyati	6
Habiba YUSUPOVA. O'quvchilarda millatlararo muloqot ko'nikmalarini shakllantirish omillari	11
G'ayratjon TAJIBAYEV. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga chet tilni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari.....	16
Qahhor TURSUNOV. Olamning fizikaviy manzarasida umumlashtirish darajalari	21

TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

Barno MINGBAYEVA, Jasur PARDABOYEV. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ertak janrini o'rgatishning tarbiyaviy ahamiyati.....	26
Xayrulla INATOV, Bo'ronboy XOLYIGITOV. Fanlararo bog'lanishda fizika fanining ilmiy-nazariy ahamiyati.....	30
Shaylovbek SAIPNAZAROV, Abduxalil RAXIMOV. Ekstremal masalalarni nostandart usullar yordamida yechish	34

ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

Temur RIXSIBOYEV, Ravshan SARIQULOV. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida chizmachilik fakultativ darslarini tashkil etishning texnologik asoslari	38
---	----

TA'LIMDA MENEJMENT

Shukur BURXONOV. Umumiy o'rta ta'lim maktablarini boshqarishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi	43
---	----

KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH

Sadoqat RAJABOVA, Lochin ZARIPOV. Mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarda ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish orqali dizaynerlik kasbiga yo'naltirish.....	47
Xamrokul SANAKULOV, Manzura RUSTAMOVA. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mehnat ta'limi darslarida kasb-hunarga yo'naltirish texnologiyasi.....	51

MALAKA OSHIRISH

Anvar MAVLONOV, Nasiba ORZIKULOVA. Malaka oshirish tizimida sifat va mazmunga erishishning muhim jihatlari.....	56
--	----

MAKTABGACHA TA'LIM

Zulfiya HAYDAROVA, Sanobar AZIMOVA. Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlashning nazariy asoslari.....	61
Zamira RASULOVA. Sog'lom avlod tarbiyasida oila va maktabgacha ta'lim muassasasi hamkorligining ahamiyati	67

TA'LIMDA EKOLOGIYA

Po'lat MIRZAYEV. Morfologik va morfometrik ko'rsatkichlar ekologik ko'nikmani shakllantirishning asosiy omillari	71
---	----

TA'LIMDA INNOVATSIYA

Nilufar O'RINOVA, Mavjudaxon URALOVA. Ta'lim sifatini oshirishda innovatsion yondashuvning ahamiyati	75
In'omjon RASULOV. O'quvchilarda kompyuter texnologiyasi vositasida krossvordlarni tuzish ko'nikmalarini rivojlantirish	81

KORREKSION PEDAGOGIKA

Malika PO'LATXO'JAYEVA, Feruza USMONOVA. Maktabgacha ta'lim yoshidagi ko'zi ojiz bolalarning ijtimoiylashuvida ruhiy tarbiyaning ahamiyati.....	86
--	----

ТЕОРИЯ И МЕТОДИКА

Сурайё МУСАЕВА. Языковая интерференция и способы ее преодоления в процессе обучения иностранных языков	92
Ева МИРЗОЕВА. Современные технологии преподавания иностранных языков в школе	97

СОВРЕМЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ

Мунаввархон РАСУЛОВА. Особенности подготовки к проведению медиа-конференции	102
Зухра ПАРПИХОДЖАЕВА. Вопросы воспитания молодежи в условиях информационных технологий (IT)	105
Алишер ОЛИМОВ. Современные технологии в подготовке специалистов по физической культуре	109

ПРАВО И ПРАВОВОЕ ВОСПИТАНИЕ

Мухидин МУСАЕВ. Нравственные аспекты профилактики преступности.....	113
--	-----

ЭКОНОМИКА И ФИНАНСИРОВАНИЕ ОБРАЗОВАНИЯ

Хилола ОЧИЛОВА. Организация внебюджетных фондов образовательных учреждений	119
---	-----

МУЗЫКА И ИСКУССТВО

Фахриддин ХАЛИЛОВ, Хуршида ШЕРМАТОВА. Развитие профессиональной компетентности будущих учителей музыки	129
---	-----

ДОШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

Ирина ГРОШЕВА, Сара НАВРУЗОВА. Нравственно-патриотическое воспитание дошкольников в процессе педагогической деятельности	133
---	-----

СОЦИОЛОГИЯ

Сухроб ГАНИЕВ. Исследование проблем молодежи в трудах современных зарубежных ученых	137
--	-----

ИНФОРМАЦИОННЫЕ РЕСУРСЫ В ОБРАЗОВАНИИ

Озода АБДУЛЛАЕВА. Педагогические и программные аспекты проектирования компилятора электронных учебников	141
--	-----

YOSHLAR MANFAATLARI QONUN HIMOYASIDA

**mamlakatimizda yosh avlodni qo'llab-quvvatlash borasida amalga
oshirilayotgan islohotlar pirovard maqsadimizdir**

O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati millati, irqi, tili, dini, ijtimoiy mavqeyi, jinsi, ma'lumoti va siyosiy e'tiqodidan qat'i nazar, yoshlarni huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilish; milliy, madaniy an'analarning avloddan avlodga o'tishi, yoshlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, jamiyat rivojiga, ayniqsa yoshlar hayotiga oid dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda yoshlarning bevosita ishtirok etishi; huquq va burchlarning, erkinlik va fuqarolik mas'uliyatining birligi kabi tamoyillarga asoslanadi.

Ma'lumki, har qaysi davlat, har qaysi xalq unib-o'sib kelayotgan yosh avlod timsolida shu xalqning azaliy orzu-intilishlarini ro'yobga chiqaradigan buyuk kuchni ko'radi. Yurtimizda milliy qadriyatlarga asoslangan huquqiy demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirishning asosiy maqsadlaridan biri ham barkamol avlod va uning manfaatlarini ro'yobga chiqarishdan iboratdir.

Voyaga yetmagan yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, ularni hunar o'rganishga keng jalb etishda nafaqat oila, balki jamoat tashkilotlarining ham ishtiroki zarur. Bu borada "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni tegishli davlat va jamoat tashkilotlari hamkorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Mazkur Qonunga muvofiq normativ – huquqiy bazani takomillashtirish maqsadida voyaga yetmaganlar tarbiyasiga mutasaddi vazirlik va idoralar tomonidan voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlarini muhofaza qilishga qaratilgan bir qator me'yoriy hujjatlar qabul qilinib, ijroga yo'naltirildi.

Xususan, Xalq ta'limi vazirligi tomonidan "Umumta'lim muassasalarida mashg'ulotlarga sababsiz kelmayotgan yoki muntazam ravishda qatnashmayotgan o'quvchilarni aniqlash, hisobini yuritish va ta'limga jalb qilish bo'yicha yo'riqnoma" ishlab chiqilib, 2011-yil yanvar oyidan boshlab amaliyotga tatbiq etilgan.

Mamlakatimizda voyaga yetmaganlar manfaatlarini va huquqlarini himoya qilish, ular tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar bolalarni ijtimoiy va huquqiy himoya qilish samaradorligini oshirishda, yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar hamda Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash borasidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Bu borada Prezidentimiz Islom Karimovning 2014-yil 6-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori mustaqillik yillarida olib borilgan

islohotlarning mantiqiy davomi sifatida bu boradagi ishlarning yangi bosqichini boshlab berdi. Qarorga muvofiq joriy yilda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar Dasturi qabul qilindi.

Jumladan, dasturda yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonlarida ularning faolligini oshirish; yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlovchi, qat'iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarash va chuqur bilimlarga ega bo'lgan vatanparvar yoshlarni tarbiyalash, ularda turli mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirish; yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, zamonaviy kasb-hunarlarini puxta egallashlari uchun munosib sharoitlar yaratish, ularni ish bilan ta'minlash va tadbirkorlikka jalb qilish; iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishga qaratilgan ishlarni tizimli yo'lga qo'yish; yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish; voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatlar sodir etilishini oldini olish; barkamol avlodni tarbiyalashda ommaviy axborot vositalari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish kabi bo'limlardan iborat.

Qarorning bugungi kunda qabul qilinishining o'ziga xos jihatlari mavjud:

Birinchidan, jahon miqyosida globallashtirish, ommaviy madaniyatlarni kirib kelishi va axborot texnologiyalarini tobora kuchayib borayotgan bugungi zamonada biz dunyoda yuz berayotgan tub o'zgarishlarni o'ziga xos tarzda xolisona va tanqidiy baholagan holda yoshlarimiz kelajagini ko'zlab, yoshlar siyosatini amalga oshirishda qo'shimcha chora-tadbirlarni belgilab olish zaruriyatining tug'ilganligidir.

Ikkinchidan, hozirgi jarayonlarda mamlakatimizda yoshlarining siyosiy-huquqiy madaniyati, ijtimoiy ong darajasining o'sib borishi, jamiyatni demokratlashtirish va liberallashtirish jarayonlarining jadal rivojlanishi, yosh avlodning ilm-fan, sport sohasida erishayotgan yutuqlari bu sohadagi islohotlarni yangi, yanada yuqori bosqichga ko'tarishimiz uchun zarur shart-sharoitlarni yuzaga keltirayotganligi.

Uchinchidan, ustuvor yo'nalishlarni o'z ichiga olgan yoshlarga oid dastur va uni amalga oshirish strategiyasiga ega bo'lgan mamlakat va xalq pirovard natijada muvaffaqiyatga erishishidir.

Shuningdek, huquqiy yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlovchi, qat'iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarash va chuqur bilimlarga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini singdirish, turli ma'naviy tahdidlar va axborot xurujlaridan yoshlarni himoya qilib, harbiy vatanparvarlik ruhida voyaga yetkazish hamda yosh avlodni ekologik va estetik madaniyatini yuksaltirish bosh maqsadimizdir.

Aziz jurnalxon! Tahririyatimiz sizlarning ko'plab talab va istaklaringizni inobatga olib, ushbu mavzu bo'yicha sizlardan ilmiy-metodik maqolalaringizni kutib qolamiz.

Faxriddin JONIYEV,

Toshkent To'qimachilik va yengil sanoat
instituti katta o'qituvchisi

TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA MILLIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada milliy qadriyatlarni ta'lim tizimiga keng joriy etish va undan foydalanishning ahamiyati haqida so'z boradi. Aynan, qadriyatlarni asrash, keyingi avlodlarga o'tkazish, rivojlantirish qadimdan eng muhim umuminsoniy vazifalardan sanalib kelinishi, qadriyatlar o'tmish va kelajakni birlashtiruvchi, bog'lovchi mustahkam ko'prik, bo'g'in ekani muallif tomonidan keng ochib berilgan.

Kalit so'zlar. Ta'lim, taraqqiyot, qadriyat, jamiyat va shaxs, qobiliyat, malaka, kasb, pedagog, psixolog, tajriba, uzluksiz ta'lim.

В статье рассматриваются методологические аспекты современного воспитательного процесса в контексте историко-логического анализа. Автором предлагается методика внедрения общечеловеческих ценностей, социально-значимых качеств личности в систему образования. В этой связи раскрыта закономерность, что именно национальные ценности являются связующим звеном прошлого и настоящего.

Ключевые слова. Образование, развитие, национальные ценности, человек и общество, способность, навык, профессия, педагог, психолог, опыт, непрерывное образование.

This article highlights the issues of introduction of universal and national values into the educational system and their advantage for training improvement. The author emphasizes the national values as a connection link between the past and the present.

Key words. Education, development, values, society and person, ability, skill, profession, teacher, psychologist, universal, experience, national, continuous education.

Qadriyatlar insonning shaxs sifatida shakllanishiga, xulqiga, ma'naviy olamiga, tafakkuriga katta ta'sir ko'rsatuvchi kuchdir. Qadriyatlarning o'quvchi-yoshlar ongiga singdirishda birinchi galda oiladan boshlansa, keyinchalik, maktabgacha tarbiya, maktab va boshqa ta'lim muassasalarida davom etadi.

Albatta, umuminsoniy qadriyatlar bilan birga dunyodagi har bir xalqning o'ziga xos o'z milliy qadriyatlari ham mavjud. Har bir millat o'z intellektual darajasining rivojlanishida ulardan keng foydalanadi, jamiyatga joriy etib, xalqaro munosabatlarda namoyon etadi. Qadriyatlarni asrash, keyingi avlodlarga o'tkazish, rivojlantirish qadimdan eng muhim umuminsoniy vazifalardan sanalib kelinadi.

Aynan, qadriyatlar o'tmish va kelajakni birlashtiruvchi, bog'lovchi mustahkam ko'prik, bo'g'in ekanligi hayotda o'z tasdig'ini topgan.

Qadriyat shaxsning kasb sohasini yanada chuqur o'zlashtirishiga, faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, ta'lim aksiologiyasini tiklash va rivojlantirish birinchi darajali muhim vazifa sanaladi.

O'qituvchilar, talabalarining ta'lim sifatiga nafaqat bilim, malaka va mahoratni egallashlari, shuningdek, tanqidiy fikrlay olish, atrofda yuz berayotgan barcha voqealarni axloqiy nuqtai nazardan baholay olishlari ham kiradi. Inson xulqi (o'qimishlilik)ning darajasi ham shundan kelib chiqadi.

Biz tadqiqotimiz davomida talabalarda so'rovnoma o'tkazdik. Unda 900 nafardan ortiq talaba ishtirok etdi. So'rov o'tkazishdan maqsad talabalarda qadriyat yo'nalishlarining rivojlanish darajasini aniqlashdan iborat edi. Shu bois, ularga bir qator y o'nalishlarda so'rovnoma savollari berildi.

O'qish siz uchun qiziqarliymi? degan savolga quyidagicha javob olindi:

"juda qiziqish bilan o'qiyman, ta'lim faoliyati yoqadi" – 56%, "javob berishga qiyinalaman" – 33%, "o'qish qiziq emas, zaruriyat yuzasidan o'qiyman" – 11%.

Hayotiy maqsadlarning jalb etuvchi tomonlari nimada?

77 foiz talabada yuqori daromadga intilish kuchli ekan. So'rovda ishtirok etgan talabalarining 70 foizi o'z oilasini hayotiy maqsadlar ro'yxatida ikkinchi o'ringa qo'ygan. Hayot lazzatlaridan foydalanib qolish va vaqtni xursandchilik bilan o'tkazish kerak, deb hisoblovchilar – 29%, shuningdek, dam olish, o'yin-kulguni asosiy maqsad, deb hisoblovchilar 19 foizni tashkil etdi. Faqat 11% talabagina boshqalar uchun, umumiy farovonlik uchun xizmat qilish istagidaligini bildirishgan.

Oliy o'quv yurtida ta'lim olish vaqtida talaba faqat kasbni o'zlashtiribgina qolmay, shu bilan birga, o'zi uchun ma'lum bir hayotiy pozitsiyalarni hosil qiladi. Talabalar qabul qilgan qadriyatlarga muvofiq ularning xulqi kelib chiqadi, ularning atrof dunyo bilan munosabati shakllanadi.

Hayotiy qadriyatlarni ma'lum bir guruhlariga bo'lishganini qayd etib o'tish kerak. Talabalar uchun "yuqori maosh" nisbatan asosiy omil sanalgan. Ya'ni yoshlarning intilishi yuqori, hech kim oz narsa bilan qoniqish hosil qilmagan. Bu shundan dalolat beradiki, ayni holatda keng ishbilarmonlik tashabbusi ham mavjudligini ko'rish mumkin. Ko'pchilik yoshlar aynan shu qadriyatni birinchi o'ringa qo'ygan. Bu esa, bozor iqtisodiy qadriyatlariga tayanadigan yangi avlod to'g'risidagi fikrni tasdiqlaydi.

Ikkinchi guruh qadriyatlar – "ishonchli, sevimli kishisi bo'lishi", "yaxshi do'stlar", "ruhiy xotirjamlik", ya'ni "axloqiy-psixologik" qadriyatlardir. Talabalarimiz shunday navqiron, romantik yoshdagi, bu davrda ularga shunchaki yaxshi insongina emas, ayni paytda, ishonchli, ruhiy xotirjamlikni saqlay oladigan do'st ham kerak bo'ladi.

Ochig'i, boshqa barcha omillar talaba yoshlar uchun alohida e'tiborga molik emas. So'rovnoma ro'yxatining ikkinchi qismidagi "qiziqarli ish", "sof vijdon", "kasbiy yutuqlar" shundan dalolat beradiki, talabalar o'z kasb karyerasidan ko'ra ijtimoiy va moddiy muvaffaqiyatlar to'g'risida qayg'urishadi.

Talabalarining ta'lim olish davrida hayotiy qadriyatlar tizimi o'zgaradimi? Deyarli yo'q. Qadriyatlar tizimi yetarli darajada inertsion, ta'lim olish yillari esa juda tez o'tib ketadi. Ammo hayotiy qadriyatlar tizimidagi ayrim siljishlarni tadqiqotda ishtirok etgan yoshlarda kuzatish mumkin.

Shaxsning yashash va ishlashga qodirligi borasidagi muhim xususiyat –bu uning o'z hayoti, faoliyati oqibatlari uchun javobgarligi sanaladi. Talabalar kelajak uchun o'z javobgarligini anglab yetadi. Ko'pchilik talaba ularning kelajagi ko'proq shaxsan bunga bog'liq, deb hisoblaydi, garchi bunda ota-onalar, ta'lim olish sifati va omad ma'lum rol o'ynasa ham.

Ular o'z mamlakati, shahar va qishloqlari taqdiriga nisbatan befarq emas. “O'z shahar va qishloqlarida yoqimli, yaxshi hayot sharoiti bo'lishi uchun nimalar kerak”, degan savolga ko'pchilik talaba, avvalo, “tozalik, orastalik va tartib-intizom, undan keyingina sport inshootlari, dam olish joylari va hokazo” shaklida javob berishgan.

Tadqiqot ma'lumotlarini tahlil qilgan holda quyidagicha xulosaga kelindi: kasbiy qadriyatlar ustuvorligi anchayin o'sganligi (tajribagacha – 25,6%, tajribadan so'ng – 29,6%) kuzatildi. Ushbu ko'rsatkichning ijobiy dinamikasi bo'lajak mutaxassislarining kasbiy sifatlarini shakllantirish bo'yicha ish natijalarini aks ettiradi. Tajribadan so'ng, shuningdek, talabalarining qadriyat yo'nalishlari axloqiy (13,4% – 19,1%) va ma'naviy (13,0% – 14%) qadriyatlar tomonga ijobiy siljigani ko'zga tashlanadi. Bu bejiz emas, albatta, chunki ma'naviy axloqiy qadriyatlarga tayanish mutaxassis kasb mahoratining asosiy mezonini sanaladi.

Eng avvalo, mustaqillik sharoitida O'zbekiston xalqining ta'lim tizimini rivojlantirish, yosh avlodni tarbiyalash borasida o'z mustaqil yo'lini tanlash imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu yo'l xalqning boy, madaniy-tarixiy an'analari, umuminsoniy qadriyatlarga, dunyo va mamlakatimiz pedagogikasi yutuqlariga tayanadi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, uzluksiz ta'lim tizimining milliy modeli, o'ziga xos tuzilmasi, mustaqillik, yangilanayotgan jamiyat va uning qadriyatlari natijasi va yutuqlaridir.

Jamiyat va ta'lim qadriyatlari ijtimoiy institut sifatida doim o'zgarib turadi va aniqlanadi. Biroq, asrlar davomida ushbu o'zgarishlarning ilg'or yo'nalishi o'zgargani yo'q. Uning asosiy mohiyati – insonga, uning huquqlari, erkinliklariga va o'zaro ta'sir me'yorlariga, jamiyatdagi muloqotga qaratilganligi shundayligicha saqlanib qoldi.

Hozirda mamlakatda mavjud sharoit bois, umuminsoniy, milliy-madaniy qadriyatlar ta'lim mazmuni va uni tashkil etishga, uning axloqiy va madaniy maqsadlariga singdirilgan.

Jamiyat va shaxs ta'limni maqsad, jarayon va natija nuqtai nazaridan ko'rib chiqadi. Sanab o'tilgan kategoriyalar ijtimoiy va tarixiy nuqtai nazaridan shartlangan. Jamiyat o'z rivojining har bir bosqichida ta'lim oldiga aniq maqsadlarni qo'ydi, ma'lum bir vazifalarni yukladi. Shunga muvofiq ta'lim jarayonini tashkil etish va uning mazmuniga, ta'limdagi yakuniy natijaga nisbatan talablar qo'yilgan. Boshqacha qilib aytganda, davlat va jamiyat ta'limga nisbatan ma'lum bir siyosatni olib borib, jamiyatda ishlab chiqilgan qadriyatlarga muvofiq yosh avlodni shakllantirdi.

Bilimlilik, qobiliyat va malakalar majmui sifatida shaxsning ma'naviy-axloqiy va intellektual fazilatlarini shakllanishining muhim vositasi sanaladi. Bu shakllanish ta'lim jarayonining asosiy maqsadi va natijasidir. Aynan shunday sharoitda ta'limda jamiyatni yangilovchi yangi qadriyatlar yaratiladi.

Prezidentimiz tomonidan kuchli ijtimoiy siyosat tamoyiliga berilgan ta'rifga muvofiq mamlakatda o'tish davrining murakkab sharoitida ko'makka muhtoj aholi qatlamini himoyalash va qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Natijada, jamiyatda ko'p asrlik xalq an'analari va urf-odatlariga asoslangan mehribonlik, o'zaro yordam va qo'llab-quvvatlash, muhtojlarni himoyalash, ko'maklashish qadriyatlari yuzaga keladi hamda rivojlanadi.

Bu qadriyatlar ta'limni tashkil etish va uning mazmuniga, o'qituvchi va o'quvchining o'zaro tushunish tamoyillari asosiga singdirilishi lozim. Ayni holat pedagogning qiyin vaziyatlarda mushkul ahvolda qolgan o'quvchiga yordamga kelishga tayyorligida va shunga qodirligida aks etishi lozim. Bu uni yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ijtimoiy qarshilik yoki ruhiy stressdan ma'naviy muhofaza qilish va turli salbiy ta'sirlarga qarshi

mustaqil qarshi turish uchun sharoit yaratish demakdir. Pedagogik himoya muammo va nizolarni hal etish, atrofdagilarning shaxsga nisbatan salbiy ta'sirini bartaraf qilish bo'yicha harakat tizimi sifatida ishtirok etadi.

Ta'lim jarayonida jismoniy, psixologik, ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlovchi va yoshlarda o'zini hamda boshqalarni himoya qilish qobiliyatini shakllantirishga yo'naltirilgan choralar tizimini yaratish lozim. Shuningdek, aniq pedagogik harakatlar, shaxs rivojlanishining psixologik va ijtimoiy omillar muvofiqligi, katta yoshdagilar va bolalarning bir-biriga yuqori darajada ishonchli munosabatlari ham nazarda tutiladi, bu esa, bolani butun muammolar va qiyinchiliklardan qurshab turadigan sun'iy sharoit yaratish degani emas. Pedagogik himoya o'quvchining butun qobiliyatini rag'batlantirish, o'z-o'zini tahlil qilish va nazorat qila olishini rivojlantirish asosida hayotdagi og'ir vaziyatlardan chiqishning aniq usullarini birgalikda izlab topish jarayonida amalga oshiriladi. Bu faoliyat ko'rsatish (masalan, bolalarning jismoniy va ruhiy salomatligini saqlash hamda mustahkamlash), ijtimoiy-pedagogik va psixologik yordam, huquqiy himoya va maslahat yo'nalishlarida himoyalashning maxsus usullari hamda tarbiya texnologiyasini ishlab chiqish va tatbiq etishni nazarda tutadi.

Erkinlashtirish, jamiyatning ma'naviy yangilanishi shaxs tomonidan o'z ta'lim va kasb, hayot yo'lini tanlash kabi ijtimoiy qadriyatlar haqida qayta fikrlashni shart qilib qo'ydi. Inson harakatlanuvchi va ijodiy subyekt sifatida, o'z hayot yo'lini o'zi belgilovchi va o'zini o'zi namoyon etuvchi shaxs sifatida to'liq erkin tanlash huquqiga ega. Ammo, aniq bir hamjamiyat a'zosi sifatida boshqa odamlar va jamiyat ehtiyojlari hamda qiziqishlarini tanlashda cheklangandir. Tanlash mohiyatining qarama-qarshiligi ham shunda. Tanlash jarayoni ko'plab shartlarni va ularni bajarish bo'yicha qarorlarni o'z ichiga oladi. Shu sababli o'zining ta'lim jarayonida yoshlarda tanlash mas'ul sifatida harakatlanish erkinligini tushunish, faoliyatning o'zgacha yondashuvini ko'ra bilish, tanlash sharoitini bilim va qadriyatli asoslash, uning natijalarini, oqibatlarini bashoratlay olish, o'z-o'zini nazorat qilish va cheklashga tayyor bo'lishni shakllantirish muhim vazifa sanaladi.

Yangilanayotgan jamiyat o'z a'zolari o'rtasida birgalikda harakatlanish, hamkorlik, bag'rikenglik, o'zaro yordamga asoslangan yangi munosabatlarni shakllantiradi. Ijtimoiy munosabatlarning bu qadriyatlari ta'lim jarayonida o'z ifodasini topishi zarur. Avtoritar pedagogikada o'zaro ta'sir, ya'ni birgalikdagi hamkorlik pedagogning o'quvchiga nisbatan o'zaro ta'siri sifatida, xususan, kattalarning faol xatti-harakati orqali bola xulqini yaratish sifatida, kattalarning tarbiyalovchi ta'sir ko'rsatishga tayyorligi sifatida talqin qilingan. Agar ilgari pedagogika faol (buyruqbozlik, deyish ham mumkin) va bir tomonlama ta'sir ko'rsatish tamoyiliga qurilgan bo'lsa, hozirgi davr pedagogikasi birgalikdagi faoliyat tamoyiliga qurilgan. Bu nafaqat pedagoglarning yangicha uyg'unlashuvini shakllantirish, ularning malakasini oshirish, shuningdek, rivojlanishning pedagogikaga mos sharoitini ham yaratishdan iborat. Birgalikdagi o'zaro faoliyat har doim demokratik shaklda hamkorlarning individual manfaatlarini qabul qilishga asoslanadi.

Pedagog va ta'lim oluvchilarning hamkorlikdagi faoliyat maqsadlariga birgalikda erishishga imkon beruvchi bunday tizimini yaratish ishonch va qiziqishlariga rioya etishga ko'maklashishga, ta'lim jarayonida har bir ishtirokchining o'z qobiliyatini o'zi ochib berishga imkoniyat yaratadi.

O'quv-tarbiya jarayonining muvaffaqiyatli tashkil etish uchun uning barcha subyektlari – o'quvchilar, sinf va o'qituvchilar, o'quvchi va o'qituvchilar, ta'lim muassasi ma'muriyati va o'qituvchilar o'rtasida o'zaro tushunish bo'lishi zarur. O'quvchilar

o'rtasidagi o'zaro tushunish o'qituvchi-ning nazorati va avtoritarligiga qarshi birlashish usuli sifatida ham yuzaga kelishi mumkin. Masalan, o'quvchilar o'zaro kelishib umuman dars tayyorlamasliklari yoki hammasi darsga kelmasliklari mumkin. Bu avvalo, ilgari ta'lim qadriyatlarining o'quv materiallari sur'ati va hajmini “o'rtalashtirish” hamda barcha o'quvchilar uni bir vaqtda o'zlashtirishi shart, pedagog har doim haq, o'quvchi esa har doim o'qituvchi belgilab bergan doirada fikrlashi va harakat qilishi kerak qabilidagi tamoyillarga asoslangani uchun yuz bergan.

O'qituvchi bolalarga nisbatan mehr va ishonch bilan yondashsa, o'quvchilar esa, o'z qobiliyatlari va qiziqishlarini amalda qo'llashda erkin bo'lgan faoliyat yuzaga kelganda o'zaro tushunishga erishiladi. Ziddiyat va kurash barham topganda, bolalar kattalar maslahatiga rioya qila boshlaganida o'zaro tushunish paydo bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilarning har qanday vaziyatda, o'qish yoki hayotiy masalalariga oid qiyin vazifalarni hal etishda chin do'stga aylanadi.

Ta'lim oluvchilarning qobiliyatlari va iste'dodlarini har tomonlama ochib berishga yo'naltirilganlik, milliy va umuminsoniy ideallarni qondirish, shaxs, jamiyat va atrof-muhit munosabatlarini uyg'unlashtirish, an'anaviy “Ustoz-shogird” asosida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi izzat-hurmat munosabatlari – ta'lim jarayoni subyektlarining o'zaro tushunishlari, hamkorligini ta'minlovchi ta'limni insonparvarlashtirishning asosiy yo'nalishlaridir.

Bunday vaziyatda har bir o'quvchida ma'lum bir faoliyat turiga nisbatan qobiliyati namoyon bo'ladi. O'zaro tushunish holatida o'quvchilarni kuchli va kuchsizlarga ajratish, xatti-harakat, ta'sir boshqaruvchisi bo'lish yo'qoladi. Ko'rgazmali emas, amaliy jihatdan o'zaro tushunish o'qituvchining o'quvchi shaxsi qadriyatlarini va uning yutuqlarini anglashi orqali ta'minlanadi. Pedagog shaxs rivojlanishini o'rtalashtirilgan me'yor bilan qiyoslamaydi. U bolalarning rivojlanishi uchun shaxsiy ijodiy g'alabalarni oshirish yordamida yoki har bir o'quvchining imkoniyatlaridan imkon qadar keng foydalangan holda umumiy maqsadga erishish uchun sharoit yaratadi.

Shunday qilib, milliy qadriyatlar yosh avlodning nafaqat ma'naviy qiyofasini shakllantiruvchi, shuningdek, kerakli mutaxassislikni egallab, ularni mamlakat va dunyo taraqqiyotida faqat bunyodkorlik uchun yo'naltirishda ham yetakchi kuch sanaladi. Shu bois, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ta'lim tizimiga keng joriy etilishi, muntazam tadqiq etib borilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni. – T.: “Sharq”, 1997. – 20-30 b.
2. Karimov I.A. O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat. – T.: “O'zbekiston”, 1992. – 61 b.
3. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqloil va taraqqiyot yo'li. – T.: “O'zbekiston”, 1992. – 78 b.
4. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: “Sharq”, 1998. – 64 b.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma'naviyat”, 2008. – 176 b.

Habiba YUSUPOVA,
T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI
katta ilmiy xodim-izlanuvchisi

O'QUVCHILARDA MILLATLARARO MULOQOT KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

Annotatsiya

Maqolada millatlararo muloqotning o'zaro muvofiq keladigan shakl va vositalarini tanlashda boshqa millat vakillari bilan hamkorlikdagi faoliyatni amalga oshirishning ahamiyati haqida so'z boradi. Shuningdek, o'quvchilarda millatlararo madaniyatni shakllantirishda muloqot ko'nikmalarining ko'rsatkichlari belgilanib, ularning amaliyotga joriy etish masalalari bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Madaniyat, xalqaro munosabat, o'zaro munosabat, jarayon, suhbatdosh, ijobiy motivatsiya, muloqot darajasi, ijobiy ko'rsatkich.

В статье изложены принципы формирования у учащихся навыков межнационального общения, в числе которых названы положительная готовность к общению, возможность свободно выразить свою точку зрения и чувства, достижение эффективности общения. Основное внимание уделено формированию установки на доброжелательные отношения между участниками общения, взаимопонимание и сотрудничество.

Ключевые слова. Культура, межнациональное общение, межличностное общение, взаимоотношения, собеседник, положительная мотивация, уровень общения, потребность в общении, межнациональное согласие, сотрудничество.

This article describes the principles of the students' skills of international communication, including as positive motivation (willingness to communicate), the ability to freely express their views and feelings, achieving effective communication and others. The focus is on the formation of the installation on the friendly relations between the participants of communication, understanding and cooperation.

Key words. Culture, inter-ethnic communication, interpersonal communication, relationships, interlocutor, positive motivation, the level of communication, the need for communication, inter-ethnic harmony, cooperation, reduction of tension.

Insonlar bir-birlarini hayotiy stereotiplar va yo'nalishlari orqali tushunadilar. Xuddi mana shular asosida shaxslararo munosabatlarning murakkab tizimi vujudga keladi. Bu insonlar orasidagi subyektiv kechinmalar sifatida izohlanadi. Bunday kechinmalar ijtimoiy qonun-qoidalar, me'yorlar, qadriyatli yo'nalishlar, shaxslararo munosabatlar, hamkorlikdagi faoliyat mazmuni asosida hosil bo'ladi. Shunday qilib, faoliyat va muloqot inson hayotining ikki jihati sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois muayyan bir shaxsning hayot tarzini o'rganishda u kim bilan qay tarzda muloqot qilishiga alohida e'tibor qaratiladi.

O'quvchilar orasida do'stona munosabat va uyushqoqlik muhitini vujudga keltiradi. Bu tarzda o'zaro munosabatlar usullarini o'quvchilar jamoasida shakllantirilish va rivojlantirilish kerak. Shu asosda ularning muayyan guruhi hamkorlikning qaysi bosqichida ekanligi haqida tasavvur hosil qilish mumkin.

O'quvchilarga o'zaro hamkorlikning qulay shakllari va metodlarini o'rgatish maqsadga muvofiq bo'lib, ularning shakllanganlik darajalari ta'minlanadi. O'zaro munosabatlarning boshlang'ich darajasini bilgan holda o'quvchilarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish va ularni shaxslararo muloqotga tayyorlashga yo'naltirilgan pedagogik chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish lozim.

Jumladan, muloqot va shaxslararo munosabatlar o'zaro yaqin tushunchalar bo'lsa-da, aynan bir xil hodisa emas. Muloqotni amalga oshirish uchun o'quvchilardan unga oid bilimlarni o'zlashtirish, me'yorlarni bilish talab etiladi. Shaxslararo munosabatlar muloqotga kirishish, o'zaro suhbatni tashkil etish, suhbatdoshini tinglash, hissiy kechinmalarini ifodalash, ziddiyatlarni ijobiy tomonga hal qilish ko'nikmalarini mujassamlashtiradi.

Shaxslararo munosabatlar ko'p qirralidir. U insonlar orasidagi ichki hissiy kechinmalarga asoslangan aloqani ifodalaydi. Shaxslararo munosabatlarning muhim jihati uning hissiy asosga egaligidir. Bu shuni anglatadiki, shaxslararo munosabatlar muayyan his-tuyg'ular negizida vujudga keladi va kishilarning bir-biriga munosabatlarini namoyon qiladi. Bunday his-tuyg'ular vaziyatli xarakterga ega bo'lib, insonlarni yaqinlashtiruvchi, birlashtiruvchi hamda ajratuvchilik xususiyatini ifodalaydi. Shaxslararo muloqotga kirishuvchi sub'yektlarning his-tuyg'ulari va xarakterlarini yo'naltirish yangi sabablar bilan bog'liqdir. Shaxslararo muloqot jarayonini quyidagi mezonlar asosida baholash mumkin:

- muloqotning samaradorligiga erishish;
- o'z his-tuyg'ularini ifodalash ehtiyojlarini qondirish;
- shaxslararo muloqot samaradorligiga erishish uchun o'z rejalarini ochiqdan ochiq namoyon etish;
- suhbatdoshlariga nisbatan ijobiy munosabatlarni ifodalash;
- o'z nuqtayi nazarlarini bayon qilishlari, muloqotdoshlarining nuqtayi nazarlarini qabul qila olish kabilar.

O'quvchilarning muloqotga oid xatti-harakatlarini aniqlovchi omillardan biri – ularning muayyan millatning manfaatlariga salbiy nuqtayi nazardan yondashishlari va ular uchun ahamiyatli bo'lgan tadbirlarda ishtirok etmasliklarida namoyon bo'ladi.

Shuning uchun ham millatlararo muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda o'quvchilarga quyidagi holatlarda ko'maklashish lozim.

1. Muloqotning o'zaro muvofiq keladigan maqsadlari, unga mos keladigan shakl, tur, vositalarni tanlash.
2. Odamlar bilan munosabatlarda ijobiy yondashuvlarni egallash.
3. Suhbatdoshi bilan mehribonlikka asoslangan hissiy-ijobiy aloqa o'rnatish.

4. O'z harakatlarini insonlarning muvaffaqiyatiga yo'naltirish va buning natijasida o'quvchilarda ijobiy xarakterdagi millatlararo munosabatlarning shakllanishiga sharoit yaratish.

Yuqorida aytilgan tahliliy fikrlardan kelib chiqqan holda, o'quvchilarda millatlararo munosabatlarni shakllantirish tushunchasi ular shaxsiyatini uyg'un rivojlantirish imkoniyati sifatida namoyon bo'lishini asoslashga harakat qilamiz. Bu esa, millatlararo muloqotga oid qoidalar va me'yorlar haqidagi bilim, ko'nikma va malakalar majmuyi sifatida namoyon bo'ladi. Buning natijasida o'quvchilarda millatlar va madaniyatlararo turli-tumanlikning mavjudligi haqidagi tushuncha yaxlit tarzda shakllantiriladi. Boshqa millat vakillari bilan hamkorlikdagi faoliyatni amalga oshirish va o'zaro muloqotni yo'lga qo'yish ularning o'ziga xosliklariga ham ta'sir ko'rsatadi.

O'quvchilarda shakllangan millatlararo munosabatlarga oid ijobiy ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat:

- millatlararo muloqotga kirishish mayllarini namoyon qilish;
- boshqa millat vakillari bilan muloqot va birgalikdagi faoliyatda axloqiy me'yorlarga millatlararo munosabatlarni asosiy mezonlari sifatida qaragan holda amal qilish;
- dushmanlik qilmasdan, bosim ko'rsatmasdan, o'zaro muvofiq tarzda boshqa millat vakillarining xatti-harakatlariga yaxshi munosabat bildirish.

O'quvchilarda millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirish quyidagilar:

1. Millatlararo muloqotning yuqori darajasi:

- o'quvchilar millatlararo muloqotning me'yorlari va qoidalarini biladilar hamda unga amal qiladilar;
- millatlararo muloqotning ijobiy me'yorlariga rioya qiladilar;
- boshqa millat vakillari xulq-atvoriga to'g'ri munosabatda bo'ladilar;
- ziddiyatlarsiz millatlararo muloqotga kirishishga ehtiyoj sezadilar;
- millatchilik ko'rinishlariga qarshi tura oladilar.

2. Millatlararo muloqotning o'rta darajasi:

- o'quvchilar millatlararo munosabatlarning muayyan qismlari bo'yicha o'z xatti-harakatlarini yetarlicha tarzda boshqara olmaydilar, bu ularning asabiy holatlari bilan bog'liqdir. Mohiyatiga ko'ra, bu nihoyatda murakkab holat hisoblanadi.

3. Millatlararo muloqotning quyi darajasi:

- o'quvchilar millatlararo munosabatlarning me'yorlari va qoidalarini bilmaganliklari uchun ham unga amal qilmaydilar;
- o'quvchilarda millatlararo muloqot ehtiyoji shakllanmagan, shuning uchun ham bunday o'quvchilar millatchilikka qarshi tura olmaydilar.

O'quvchilarning rivojlanishi, asab va kognitiv sohalarining shakllanishida ularning ijtimoiylashishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxslararo munosabatlar muammosi, uning o'rganilishi va ijobiy rivojlanishi mamlakatimizning rivojlanish bosqichida har qachongidan ham dolzarblashmoqda. Bugungi kunda pedagogika

nazariyasi va amaliyotida o'quvchi shaxsini muayyan maqsad sari yo'naltirish ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga bo'lgan e'tiborni kuchaytirish sifatida talqin etiladi. Shu bilan bir qatorda tarbiyaviy jarayonlarda o'quvchilar jamoasining o'rnini pasaytirish sifatida ham qaralmoqda. Masalaning muhim tomoni shundaki, o'quvchilar muayyan faoliyatni amalga oshirish yoki aniq qarashlarni ilgari surishda o'zlarining individual yondashuvlariga ega bo'lishlari kerak.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'quvchilarni millatlararo muloqotga tayyorlashda pedagoglarning yoshlarga ko'rsatadigan ta'siri muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarda millatlararo muloqot ko'nikmalarini shakllantirishda oila a'zolari, yaqin qarindoshlar, atrofda odamlarning boshqa millat vakillariga bo'lgan munosabatlari muhim o'rin egallaydi. Bola, ayniqsa, oilada yoshlik davridan boshlab, asosiy qadriyatlarni to'la anglamagan holda o'zlashtiradi va muhim yo'nalishlarni qabul qiladi. Shu asosda ularda millatlararo munosabatga oid xulq-atvor ko'nikmalari tarkib topadi. Shu tariqa bolalarga yoshligidan boshlab turli tillarni o'rgatib borish, ularda xorijiy tillarga bo'lgan munosabat va tushunchalarni shakllantirish lozim.

Buning uchun o'quvchilarda millatlararo muloqot ko'nikmalarini shakllantirishda maktabdagi ta'lim-tarbiya jarayonining ahamiyati katta. Mazkur muammoning yechimi rejali, bosqichma-bosqich, tizimli va maqsadga yo'naltirilgan tarzda amalga oshirilishi lozim. O'quvchilarda millatlararo muloqot ko'nikmalarini shakllantirishning har bir bosqichida ta'lim jarayonining vazifasi ularni jadallik bilan boshqa bosqichga o'tishga majbur qilmaslikdan iborat. Biroq uning ko'nikmalari, nuqtayi nazarini rivojlantirish, mustahkamlash imkoniyatlarini kengaytirish talab etiladi.

Mazkur yo'nalishda samarali faoliyat ko'rsatish uchun muayyan vazifalar ustida ishlash talab etiladi. Bu vazifalar o'quvchilarning millatlararo munosabatlarga beradigan baholari, millatlararo muloqotga kirishish darajalari, turli madaniyatlarga bo'lgan munosabatlari, o'ziga xosliklari va sifatlarining rivojlanish ko'rsatkichlarini mujassamlashtiradi. Bularning barchasi millatlararo muloqot madaniyati qoidalari va prinsiplarining o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi uchun nihoyatda zarurdir. Bu vazifalarning barchasini insonparvarlik va demokratiya prinsiplariga tayangan holda yechish muhim ahamiyatga ega.

Shuning uchun ham o'quvchilarda millatlararo muloqot ko'nikmalari ular shaxsiyatining uyg'unlashgan tarzda shakllanishini ifodalaydi. Bu – millatlararo munosabatlarga oid qoidalar va bilimlar yig'indisidan iborat. Shu asosda ular millatlararo madaniyatlarning o'zaro tengligini tan oladilar. Bunday munosabatlar boshqa millat vakillari bilan hamkorlikdagi faoliyat va muloqot jarayonida vujudga keladi.

O'quvchilarda millatlararo muloqot ko'nikmalari shakllanganligining ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat:

– turli millat vakillari bilan o'zaro muloqotga kirishish istagining mavjudligi;

- millatlararo munosabatlar me'yorlariga amal qilish;
- boshqa millat vakillariga dushmanlik ko'zi bilan qaramaslikka oid axloqiy me'yorlarga rioya qilish;

- ziddiyatlarni yechish layoqatiga ega bo'lish kabilar.

O'quvchilarda millatlararo muloqot ko'nikmalarining shakllanganligini ko'rsatuvchi bir qator indikatorlar mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

- dushmanlik va tajovuzkorlikning pasayganligi;

- ijobiy qarashlarning shakllanganligi;

- kommunikativ bilim, ko'nikma va malakalarning yuqori darajaga ko'tarilganligi;

- shaxslararo mahsuldor munosabat o'rnatish va ziddiyatlarni bartaraf etish layoqatiga egaligi kabilar.

O'quvchilarni millatlararo muloqotga tayyorlashga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. O'quvchilarda boshqa millat vakillari bilan o'zaro muloqotga kirishish va hamkorlikda faoliyat olib borish ko'nikmalarini rivojlantirish.

2. Millatlararo munosabatlarning asosi sifatida shaxslararo muloqot va munosabat ko'nikmalarini shakllantirish.

3. O'quvchilarning shaxsiy sifatлари doirasida bag'rikenglikni shakllantirish.

4. Insonlar bilan o'zaro munosabat jarayonida tajovuzkorlik va dushmanlikni pasaytirish.

5. Millatlararo muloqot ko'nikmasini rivojlantirish kabilar.

Mazkur vazifalarni yechish uchun o'quvchilarni millatlararo muloqotga tayyorlashga yo'naltirilgan pedagogik tizimni ishlab chiqish va tatbiq etish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akramova G.R. *Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tolerantlik tushunchalarini shakllantirishning didaktik asoslari. Ped.fan.nomz.diss...* – T.: 2007. – 139 b.

2. Езан С.В. *Психология и педагогика межнационального общения: Учеб.метод, рекомендации* / С.В. Езан. – Чита: Изд-во ЧГПИ, 1996. – С. 42.

3. Куницына В.Н. *Проблема отношений личности в трудах В.Н. Мясищева* / В.Н. Куницына, В.Н. Панферов//Психологический журнал. 1992. №3. – С. 140-147.

G'ayratjon TAJIBAYEV,
Namangan DU katta o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA CHET TILNI O'QITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilariga chet tilida muloqot qilish ko'nikmalarini o'zlashtirishga oid metodik-psixologik tavsiyalar bayon qilinadi. Muallif fikricha, o'quvchilar tez-tez uchrab turadigan nutq namunalarining boy zaxirasiga ega bo'lishsa, ularning kommunikativ kompetensiyasi, ya'ni muloqot qilish layoqati rivojlanib boradi.

Kalit so'zlar. Chet tili, ibora, idrok, noverbal til, diqqat, taqlid, grammatik kompetensiya, og'zaki muloqot, layoqat, ko'nikma, malaka.

В статье рассматриваются психологические особенности усвоения разговорной речи по иностранным языкам, для учеников начальных классов в общеобразовательных школах. Автор предлагает методические рекомендации учителям начальных классов для плодотворного и качественного проведения практических занятий по иностранному языку.

Ключевые слова. Иностранный язык, форма языка, стандартные выражения, соображение, невербальный язык, грамматическая компетенция, устная коммуникация, способность, умение, навыки.

The article considers the psychological characteristics of mastering spoken foreign languages for primary school-age pupils in schools. The author gives methodical recommendations for initial classes teachers for fruitful conducting practical lessons of foreign language.

Key words. Foreign language, form of the language, regular expressions, consideration, non-verbal language, mechanical memory, grammatical competence, oral communication, ability, skill.

Har qanday o'quv predmetini, shu jumladan, chet tilni ham o'qitishning, samaradorligini ta'minlash uchun o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini inobatga olish tavsiya etiladi. Metodikaga oid adabiyotlarda kichik maktab yoshidagi bolalarga chet tilini o'zlashtirishda qat'iyatsiz, lekin tasodifiy muvaffaqiyatlari bilan kattalardan ko'ra ilg'orroq, deb ta'rif beriladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining idroki o'tkir va sof bo'ladi. Buni oliy nerv faoliyatining yosh xususiyatlari va birinchi signal sistemasining nisbatan ustunligi bilan tushunish mumkin. Bolalar idrokining eng xarakterli tomoni – uning kam differentsiallashtirilganidir (yani obyektlarni bir-biridan farqlashdagi zaiflik). Bu hol idrok qilishdagi tahlil qilish funksiyasining yoshga xos zaifligi bilan bog'liqdir. Biroq boshlang'ich sinf o'quvchilari narsalarni tahlil qilishga, ularning belgilarini ajratishga layoqatli emaslar, deb bo'lmaydi. Ba'zan o'quvchilar kattalar e'tiborlaridan chet-

da qolgan mayda-chuydalarni ham payqab, tasodifiy detallarni ajratadilar. O'qituvchining noverbal tilini, ya'ni imo-ishoralari, yuz ifodasi va tana harakatlari (body language)ni bolalar yaxshi ilg'aydilar.

1–2-sinf o'quvchilarining idroklari uchun yaqqol ifodalangan emotsionallik (xilma-xil, yorqin bo'yoqlar, yaqqol tasvir va his-tuyg'uga xosligi) xarakterlidir. Bolalarda bevosita emotsional reaksiyani vujudga keltiradigan narsalar yoki ularning belgi va xususiyatlari birinchi navbatda idrok qilinadi. Bundan o'quvchilar idrokining yana bir xususiyati kelib chiqadi – ular yaqqol, yorqin, jonli narsalarni, masalan, ramziy va chizma tasvirlarni nisbatan yaxshiroq, aniqroq va emotsional tarzda idrok qiladilar. Chet tili mashg'ulotlarida bolalarning barcha sezgi organlari stimullashtirilishi kerak. Aksariyat hollarda ko'pchilik amaliyotchilar ko'rgazmalilik bilan cheklanishadi. Lekin shuni unutmaslik kerakki, bolalardagi kinesentik xususiyat, ya'ni predmetlar bilan bevosita manipulyatsiya qilish til materialini yaxshi o'zlashtirilishida asosiy omil bo'lishi mumkin. Fikrimizcha, chet tili mashg'ulotlarida quyidagilarga e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

– Gullarni hidlab ko'rish, mevalar va boshqa turdagi oziq-ovqat mahsulotlarini tatib ko'rish (bunda maktab oshxonasidan foydalanish mumkin), o'yinchoqlar bilan jismoniy mashqlar qilish va audiovizual vositalardan keng foydalanish o'quvchilarning sezgi organlarini faollashtirib, nutq o'stirishga ko'maklashadi.

– Rol ijro etish (role play), o'yin o'ynash va, ayniqsa, Total Physical Respond (jismoniy harakatlar bilan javob qaytarish) mashqlarini ko'proq o'tkazish kerak. Bunda “eshikni yop”, “oynani och”, “doskani tozala”, “kitobni och”, “doskaga chiq”, “burningni ko'rsat”, “quloqlaringni ushla”, “qo'lingni ko'tar”, “quyonga o'xshab sakra” kabi buyruqlarga javoban bolalar mos harakatlarni bajarishadi. Jismoniy harakatlar juda tez sodir bo'lishi mumkinligini inobatga olib o'qituvchi beradigan buyruqlar ro'yxatini avvaldan tayyorlab olishi kerak. Aks holda, orada to'xtalish bo'lib, o'quvchilar navbatdagi buyruqni kutib qolishadi.

– Boshlang'ich sinf o'quvchilari kattalarning nutqini imo-ishoralar, yuz ifodalari, qo'l va tana harakatlari qarang tushunishadi. Shu sababli, o'qituvchi o'z nutqini tushunarli bo'lishiga harakat qilib imkon qadar ko'p imo-ishoralar va tana harakatlaridan foydalanishi lozim. Buning uchun o'qituvchi *chapak chalmoq* fe'lini tushuntirish uchun chapak chalishi, *kulmoq* fe'lida kulishi, *yugurmoq* uchun yugurishi kerak.

Diqqat – boshlang'ich sinf o'quvchilarida nisbatan kuchsiz va beqarorligi bilan xarakterlanadi. Lekin sevimli multfilmini tomosha qilayotgan bolani kuzatib turib, ularning diqqati yetarlicha barqaror bo'lishi mumkin, agarda obyekt bola uchun qiziqarli bo'lsa, degan fikrga to'xtalishni joiz topdik. Tajribadan ma'lumki, bolalarda ixtiyorsiz diqqatlari e'xshi rivojlangan bo'ladi. Chet til o'quv materiallarining yorqinligi, jozibadorligi o'quvchida beixtiyor his-tuyg'ular uyg'otadi, irodaviy zo'riqishsiz, osongina fan asoslarini egallash imkonini yaratadi. O'quv materiallarining turli-tumanligi ixtiyorsiz diqqatning to'planishi, markazlashuvi va barqarorligiga ijobiy ta'sir etadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda ko'rsatmalilikdan keng foydalaniladi. Bu tadbir, birinchidan, bolalar faolligini oshirsa, ikkinchidan, materialni mantiqiy jihatdan o'zlashtirishga, uni tahlil etish, mavhumlashtirish va umumlashtirishga to'sqinlik qiladi. Ularda ko'rsatmalilikka

asoslangan dinamik stereotip paydo bo'lishi ham mumkin. Sun'iy to'siqlar, halal beruvchi alomatlardan qutulish uchun yaqqol va mavhum materiallardan aralash holda foydalanish yaxshi natija beradi. Birinchi va ikkinchi sinf o'quvchilari diqqatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning yetarlicha barqaror emasligidir. Shuning uchun ular diqqatlarini muayyan narsalarga qarata olmaydilar va obyektga uzoqroq tutolmaydilar. Bunda tormozlanish bilan qo'zg'alish o'zaro nomuvofiq harakat qiladi. Bolalarning diqqati o'qish faoliyatiga doir maqsadga muvofiq, ijtimoiy motivlar hamda ularda paydo bo'layotgan yangi xislatlar (mas'uliyatlilik, javobgarlik, uyalish hislari) bilan bir paytda rivojlanadi. Chet tili mashg'ulotlari bolalar uchun zavqli bo'lishini ta'minlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Daralar qiziqarli, jonli va quvnoq o'tishiga erishish uchun quyidagi tavsiyalarni havola etamiz:

- Bolalarga biror yangi narsa tanishtirilsa, tezda amalda qo'llab ko'rishga kirishib ketishadi, ya'ni ularga xos shoshqaloqlik va sabrsizlik xususiyatlari, yangilikka tez qiziqib qolishlari bilan xarakterlanadi. Shuning uchun ham mashg'ulotlarda bolalar uchun yangilik bo'ladigan va ularning qiziqishlarini tez oshiradigan tadbirlarni qo'llash kerak.

- Sinf mashg'ulotlarida bolalarning diqqat va e'tiborini susaytirmasligiga harakat qilish zarur. Buning uchun tadbirlar (activity) turli-tuman, takrorlanmas bo'lishi talab etiladi. Agar bolalar biror bir mashg'ulot turiga qiziqib qolsalar, vaqtni bahona qilib ularni to'satdan to'xtatib qo'ymaslik kerak. Bu ularning hafsalasini pir qilishi mumkin. Vaqtni hisobga olish zarurligini bolalarga uqtirish lozim.

- O'qituvchi darslarni yaxshi kayfiyatda, jonli va zavq-shavq bilan o'tishga harakat qilishi kerak. Bolalar o'qituvchining shijoati va tirishqoqligiga taqlid qilishadi.

- Tanlanadigan til materiali autentik bo'lishi shart. Aks holda, bolalar o'zlari uchun zaruriy deb bilmagan til materialini rad etishadi.

- Til materialini mukammal kontekstga ega bo'lishi talab etiladi. Bolalarga tanish vaziyatlar, ularning kundalik turmush tarziga mos hodisalar, sevimli qahramonlari va hayotiy mavzulardagi o'yinlar doirasida tashkil etiladigan sinf mashg'ulotlarida bolalar diqqatini uzoq vaqt ushlab turishi mumkin.

- Bolalarda yumor hissi kattalarnikidan tubdan farq qiladi. O'quvchilar eng oddiy narsaga ham kulaverishadi. O'qituvchining qiziqarli harakatlari (turli jonivorlarga taqlid qilishi) darslarni jonli o'tishini ta'minlaydi. Vaqti-vaqti bilan jiddiy bo'lishni ham unutmaslik zarur.

- Bolalar tabiatan qiziquvchan bo'lishadi. O'qituvchi bolalarni til materialini bilishga qiziqtirib qo'yishi kerak. Shundagina bolalar to'lim olmaganlariga qadar o'qituvchini tinch qo'yishmaydi, diqqatni to'liq til materialiga qaratishadi.

Xotira – kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda so'z mantiq va ma'nosini tushunib eslab qolish salmog'ining ortib borishi bilan farqlanadi. A. A. Smirnov boshlang'ich va o'rta maktab yoshidagi bolalarning xotirasini qiyosiy tadqiq qilib, quyidagi xulosaga kelgan: 6 yoshdan 14 yoshgacha bolalarda mexanik xotira axborotning mantiqiy birligiga bog'lanmagan holda faol rivojlanadi, yosh kattalashgan sari ma'noli materialni yodda saqlash ustunligi o'sib boradi. Kichik maktab yoshidagi bolaga esga olish va xotirada tutish uchun osonlik tug'diradigan usullar majmui maxsus o'rgatilsa, mantiqiy xotiraning rivojlanishiga zamin yaratiladi. N.S.Leytesning fikricha, yosh kattalashgani sari aqliy rivojlanish

darajasi yuqorilashib o'qitish samaradorligi pasayib boradi. O'qitishning eng yuqori ko'rsatkichlarini odatda maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda kuzatish mumkin. Ayrim hollarda kichik maktab yoshidagi bolalarning fanlarni o'zlashtirishida past ko'rsatkichlari kuzatiladi. Buni bolalarning o'quv materialini to'liq esda saqlolmasligi va xotiraning kuchsizligi bilan izohlash mumkin. Bunday vaziyatda, ayniqsa, dastlabki 1–2-sinflarda bolalarga esda saqlashning samarador usullarini maxsus o'rgatish tavsiya etiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy xotiradan ko'ra ko'rsatmali-harakatli xotira muhim rol o'ynaydi. Ular yaqqol ma'lumotlar, axborotlar, voqea va hodisalarni, qiyofalar (obrazlar) va narsalarni tez hamda mustahkam eslab qoladilar va uzoq muddat esda saqlaydilar. Birinchi va ikkinchi sinf o'quvchilari ta'limiy materiallarning ichki bog'lanishlariga ahamiyat bermay, ma'nosiga tushunmay, til materiallarini mantiqiy tahlil qilmay, yodaki o'zlashtiradilar. Bolalar xilma-xil o'yinlar o'ynash oldidan "onaboshi" saylash uchun "sanoq aytish"da turli vazndor va qofiyador so'zlardan iborat jumalarni aytishadi. Ko'pchilik bolalikda aytilgan sanoqlarni hamon eslaydi. Sanaladigan, aniqrog'i, aytiladigan so'zlar, mutlaqo ma'nosiz bo'lsa-da bolalar ularni tez yodlab oladilar. Buning sabablarini psixologlar quyidagicha tushuntiradilar: *birinchidan*, ularning mexanik xotirasi boshqa xotira turlariga qaraganda durustroq rivojlangani ma'lumotlarni aynan o'zgarishsiz eslab qolish imkonini yaratadi; *ikkinchidan*, o'quvchilar o'qituvchi qo'ygan vazifani anglab yetmaydilar, natijada, uning "to'g'ri tushuntirib ber" degan talabini so'zma-so'z takrorlash deb biladilar; *uchinchidan*, ularning nisbatan kam so'z boyligi (ilmiy atamalar va til qonuniyatlarini bilmasligi) materialni ijodiy to'ldirish, unga qo'shimcha qilish imkoniyatining yo'qligi uni so'zma-so'z qaytarishni osonlashtiradi; *to'rtinchidan*, o'quvchilar matnni to'g'ri usullar yordamida eslab qolishni bilmaydilar. Rus psixologlari (T. N. Balarich va L. V. Zankov)ning tadqiqotlariga asoslanib psixologiya faniga "uzoq vaqt eslab qolish", "hamma vaqt esda saqlash" iboralari kiritilgan. Ko'rinib turibdiki, tez aytish, qisqa she'rlar va sanoqlarni bolalar osongina yodlab olishadi va ularni xotirada saqlashadi. Ingliz tilidagi sanoqlardan misollar keltiramiz:

*Mi ni my nimo, who is the loser?
Mi ni my nimo, who is the winner?
Boom tarat tarat, boom tarat tarat
Tarot tarat, boom boom boom
Eene meene money moe,
Catch a nigger by the toe
Three little kittens,
Lost their mittens.
It is a pity!
They were so pretty.*

O'quvchilarining chet tilida muloqot qilish malaka va ko'nikmalarini shakllantirishda dastlabki qilinadigan tadbir standart nutq bo'laklarini o'quvchilarning mexanik xotirasiga joylashtirish bo'lishi mumkin. Sababi, bu yoshdagi o'quvchilar

standart nutq bo'laklarini aynan o'zgarishsiz eslab qolishda katta yoshlilardan ustundirlar. Bundan tashqari tadqiqotlardan ma'lumki, til sohiblari bo'lmish mahalliy so'zlashuvchilar kundalik muloqotda standart nutq bo'laklaridan ko'p foydalanishadi. Rod Ellis (Rod Ellis) ta'biri bilan aytganda "formulaic expressions", ya'ni standard iboralarni til sohiblari tilni o'rganuvchilardan ko'ra ko'proq qo'llashadi. N.Ellisning (N.Ellis 1996) fikricha, standart nutq bo'laklari keyinroq grammatik (qoidaga asoslangan) kompetentsiya rivojlanishiga asos bo'lishi mumkin. R.Ellis (Ellis 1996), Mitchel, Xuper (Mitchell & Hooper 1998;1999) va Mayls (Myles 2004)lar sinf mashg'ulotlarini kuzatishib shunday xulosaga kelishgan: o'quvchilar aksariyat hollarda mexanik xotirada saqlangan materialni nutq bo'lagi sifatida umumlashtirishadi, ularni keyinchalik tahlil qilish uchun bo'laklarga taqsimlashadi. Namlari keltirilgan tadqiqotchilar fikriga qo'shilgan holda standart nutq bo'laklarini xotirada saqlash o'quvchilar uchun foydali ekanligini tushunish qiyin emas. O'quvchilarning kundalik muloqotlarida eng ko'p ishlatiladigan standart nutq namunalari ba'zasini shakllantirish va ularni yod olib o'zaro muloqotda foydalanilishini rag'batlantirish maqsadga muvofiqdir. Quyida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi og'zaki muloqotda takrorlanish chastotasi yuqori bo'lgan faol standart nutq bo'laklaridan misollar keltiramiz:

Please! Thank you. How are you? Excuse me. I am sorry, I am late. You are welcome. May I come in (go out)?

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, o'smirlar va kattalardan farqli o'laroq, bolalar o'rganilayotgan til shakliga anchagina tor qamrovli e'tibor qaratishadi. Bundan tashqari ular o'rganilayotgan tilda muloqot qilish malaka va ko'nikmalariga ega bo'lmasalarda yangi yod olgan (standart) nutq namunalaridan turli vaziyatlarda foydalanib tavakkal qiladilar va bundan mamnun bo'lishadi. O'quvchilar kundalik standart vaziyatlarda tez-tez uchrab turadigan nutq namunalarining boy zaxirasi (repertuar)ga ega bo'lishsa, ularning kommunikativ kompetentsiyasi, ya'ni muloqot layoqati rivojlanib boradi. Quyida standart vaziyatlarda uchrab turadigan nutq bo'laklaridan namuna keltiramiz: Nice to meet you. How are you? You are welcome. Thank you. May I come in? Have a nice day. See you soon.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'oziyev E. *Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi)* – T.: "O'qituvchi", 1994.
2. Лейтес Н.С. *Проблема соотношения умственного развития и способностей // Хрестоматия по возрастной и педагогической психологии. – Ч. II. – М., 1981. – С. 164.*
3. Смирнов А. А. *Развитие логической памяти у детей Хрестоматия по возрастной и педагогической психологии. – М., 1981.*
4. Немов Р.С. *Психология (Психология образования) 2-е издание. – М.: "Просвещение", 1995. – С. 110-111.*
5. Lightbown P.M., Nina Spada *How languages are learned 3rd ed., "Oxford University Press", 2011. P. 31*

Qahhor TURSUNOV,
Qarshi Muhandislik iqtisodiyot instituti kafedra mudiri

OLAMNING FIZIKAVIY MANZARASIDA UMUMLASHTIRISH DARAJALARI

Annotatsiya

Maqolada olamning fizikaviy manzarasini o'rganishning empirik darajasi faqat obyektning tashqi xususiyatlari bilan bog'liq bo'lmay, subyektning faol ijodiy faoliyati bilan bog'lanishlari nazariy jihatdan ko'rsatib o'tilgan. Muallif, nazariy va empirik bog'lanish tamoyillarini, tabiat va jamiyatning o'zaro uyg'unlashib borishini ilmiy dalillar asosida yoritgan.

Kalit so'zlar. Tabiat va jamiyat, ideallashtirish, empirik, obyektiv, subyektiv, mexanik harakat, tezlik, energiya, fizik tushuncha, fizikaviy qonunlar.

В данной статье научно обоснованы иерархичная дифференциация показателей критерия развития физических способностей обучаемых (понятия, законы и степень теоретического обобщения идей на уроках физики). Выявлены связи теоретических и эмпирических принципов, а также взаимосвязь природы и общества.

Ключевые слова. Природа и общество, идеализация, эмпирический, объективный, субъект, механическое движение, скорость, энергия, физические законы.

This article describes the argumentation of the physical perceptions, laws and the degree of theoretical summation of concepts about physical representation of the world.

Key word. Physical perceptions, physical laws, physical representation of the world, degree of theoretical summation, natural-scientific subjects,

Hozirgi zamon falsafasi pedagogik ilmiy dunyoqarashni falsafiy, iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy qarashlarni o'z ichiga olgan ijtimoiy ongning umumiy, oliy shakli sifatida talqin qiladi. Tabiat va jamiyat rivojlanish qonunlari mohiyatini tushuntirib beruvchi ilmiy dunyoqarash o'quvchilarning ongida turli xil tabiiy va ijtimoiy jarayonlar, hodisalarni tushuntirish uchun ilmiy asosni yaratuvchi u yoki bu fandagi qarashlar, dalillar, ilmiy farazlar, aksiomalar, yetakchi g'oyalar va asosiy tushunchalarning yig'indisini shakllantiradi.

Fizika tabiiy-ilmiy ta'limning asosi sifatida birgalikda olamning fizik manzarasini tashkil etuvchi olamni o'rganish nazariy usuli bilan bog'liq bo'lgan ilmiy fikrlashni shakllantirishga eng ko'p hissa qo'shadi. U fundamental g'oyalar, tushunchalar va fizika qonunlarini o'z ichiga oladi. Mustaqil erkin fikrlashning empirik hamda ilmiy-nazariy usullari tegishlicha empirik va nazariy umumlashtirishlar ajratib ko'rsatiladi. Falsafiy nuqtayi nazardan olamni o'rganishning empirik va nazariy darajalarining farqlanishi hodisalar mohiyatini chuqur o'rganib chiqilishi bilan bog'liqdir. Bunda, olamni nazariy o'rganish obyekt mohiyatini nazariy timsollarida ifodalanadi. Olamni nazariy o'rganish uchun o'zida real obyektning ideal modelini namoyon qiluvchi ideallashtirilgan obyekt boshlang'ich holat bo'lib

hisoblanadi. Moddiy nuqta, ideal gaz, nuqtaviy elektr zaryad, elektromagnit to'liqin va boshqa shu kabilar haqiqiy obyektning ideal modelini namoyon qiluvchi ideallashtirilgan obyektlarga misol bo'ladi.

Olamni nazariy o'rganish subyektni real obyekt bilan bevosita aloqasini hisobga olmaydigan ma'lum tavsifga egadir. Bunda nazariy mulohazalar subyektning faoliyati bo'lib xizmat qiladi.

Olamni o'rganish empirik darajasi faqat obyektning tashqi xususiyatlari sezgi organlari bilan qabul qilishdan iborat bo'lmay, balki unda obyektning mohiyati ham anglab yetiladi. Bunda subyektning mo'ljallanayotgan faol ijodiy faoliyati obyektning o'rganishdagi kerakli va tasodifiy omillarini hisobga olishga, kuzatish va tajriba jarayonida uncha zarur bo'lmagan omillarga e'tibor bermaslik muhim ahamiyatga ega bo'lgan xususiyatlar yoki bog'lanishlarni izlab topishga yo'naltiriladi. Olamni empirik o'rganish real o'rganilayotgan obyektlar – fizik hodisalar, jarayonlar, obyektiv borliq fragmentlari bilan bevosita bog'liq bo'lib, ulardan ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan axborot olinishini nazarda tutadi. Olamni empirik o'rganishning maqsadi va shakli obyektiv borliqni subyektiv tasviri sifatidagi faktdan (borliq haqidagi bilimlardan) iboratdir. E'tibor qiling, dalilning mavjudligi, uning tan olinishi va tushunilishi ko'p jihatdan dalilni aniqlashning asosini tashkil qiladigan nazariy sabablarga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun fanda dalillarning nazariy yuklanganligi qayd etiladi, u nazariy va empirik o'zaro dialektik bog'lanishni ochib beradi.

Sezish, anglab yetish va tassavur qilish olamni sezgi organlari bilan qabul qilishning asosiy shakllari bo'lib hisoblanadi. Sezish jismning qandaydir bitta sifat jihatini aks ettiradi va jismning sezgi organlariga tashqi ta'siri asosida paydo bo'ladi. Sezgi organlari yordamida jismning tashqi xususiyatlari, uni tashkil qiluvchi alohida jihatlariga bo'linib ajraladi. Anglab yetish tashqi jismning sun'iy (sintetik) tasviridan iborat bo'ladi. Tasavvur esa, jismning sezgi organlari bilan his qilishning tasviri sifatida bundan oldingi sezish va anglab yetishning asosida paydo bo'ladi. Sezgi organlari bilan qabul qilishning tasviri subyektiv bo'lib, u insonsiz mavjud bo'la olmaydi. Shu bilan bir vaqtda o'zining kelib chiqish manbayi va mazmuni bo'yicha ular obyektivdir, chunki ushbu shakllar tarkibidagi axborot obyektning tegishli jihatlar aksidan kelib chiqadi. Biroq o'rganilayotgan obyektlarning butun mohiyatini faqat sezgi organlari yordamida anglab yetib bo'lmaydi.

O'rganilayotgan obyektlarning mohiyatini muayyan xususiyatga ega bo'lgan mantiqiy fikrlash yordamida anglab yetiladi. Mantiqiy fikrlash doimo mavhum bo'lib, u ma'lum mantiqiy timsollarni umumlashtirish orqali amalga oshiriladi. Tushuncha, muhokama, aqliy xulosa chiqarish – umumlashtirishning asosiy shakllari bo'lib hisoblanadi. Mantiq nuqtayi nazardan tushuncha bu – jismlarning hamda borliqdagi hodisalarning umumiy, ahamiyatga ega bo'lgan va farqlanuvchi (o'ziga xos) xususiyatlari aks ettiriladigan fikr bo'lib, tushunchaning falsafiy talqini – jismlar va hodisalarning ahamiyatga ega bo'lgan xususiyatlari, bog'lanishlari, munosabatlari aks ettiriladigan fikrlash shaklidir. Tushunchaning asosiy mantiqiy funksiyasi – mazkur toifadagi alohida jismlarning barcha xususiyatlariga e'tiborni qaratish yo'li bilan umumiysini ajratib olishdan iborat.

Masalan, mexanik harakat tushunchasi uchun asosiysi jismning holati vaqt o'tishi bilan uning fazodagi vaziyati o'zgarishidan iborat. Mexanik harakatni tavsiflovchi joyni o'zgartirish, tezlik, tezlanish kabi tushunchalar har qanday harakatlanuvchi jismlarga taalluqli bo'ladi. Bu fizik tushunchalar nazariy umumlashtirishlarning birinchi darajasiga

kiradi. Umumlashtirishlarning keyingi darajasi fizik qonunlar, nazariyalar, olamning fizik manzarasi bilan bog'lanadi.

Qonun – tabiat va jamiyatsdagi hodisalar o'rtasidagi zarur, ahamiyatga ega bo'lgan, barqaror, takrorlanuvchi munosabatdir. Qonun tushunchasi mohiyat tushunchasiga yaqindir. Qonun mazkur turdagi, toifadagi barcha hodisalarga xos bo'lgan umumiy munosabatlarni, bog'lanishlarni aks ettiradi. Qonunlarni o'rganish fanning vazifasini tashkil etadi. Tabiatda sodir bo'ladigan hodisalar o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'ladi. Shuning uchun, tushunchalar va fizik kattaliklar o'rtasida bog'lanishlar mavjuddir. Kattaliklar o'rtasidagi eng muhim bog'lanishlar fizik qonun bilan ifodalanadi. Fizikada olimlar, odatda, tabiat hodisalarining tavsifi bo'yicha ayrim qisqa, lekin deyarli umumiy bo'lgan xulosalarni qonun, deb atashadi. Gohida bunday xulosalar hodisalarni ifodalovchi kattaliklar o'rtasidagi ma'lum nisbat shaklini oladi. Masalan, bunday xulosalarga, Nyutonning butun olam tortishish qonuni kiradi. Unga ko'ra, jismlar bir-birini, shu jismlar massalari ko'paytmasiga proporsional bo'lgan hamda ular orasidagi masofa kvadratiga teskari proporsional bo'lgan modulga ega bo'lgan kuch bilan tortadi.

Tabiiy-ilmiy qonunlar nisbiy bo'lib hisoblanadi. Ular tabiiy hodisalar qanday bo'lishi kerakligini ta'kidlamaydi, balki u yoki bu tabiat hodisasining haqiqiy tavsifi qanday bo'lishini ta'riflaydi. "Qonun" so'zi faqat hodisalarning keng doirasida uning qo'llanilishi tekshirilgan va mazkur qonun cheklanishlari va qo'llanish doirasi haqida aniq tasavvurga ega bo'lgan hollardagina foydalaniladi. Ammo shu hollarda ham yangi axborot olingan taqdirda ayrim qonunlar o'zgartirilishi yoki umuman chetga chiqarilishi mumkin.

Xususan, gaz qonunlarini o'rganishda ular ideal gazga, masalan, gazlarning aralashmasi bo'lgan havoga nisbatan qo'llanilishi mumkinligini tushunish lozim. Atmosfera bosimidan yuzlab karra ortiq bosimda esa, qonundan sezilarli darajada chetga chiqish kuzatiladi. Fizik nazariyaning bilimlar tizimini tashkil etuvchi tushunchalar va qonunlar mazmunli yoki nazariy umumlashtirishlar, deb ataladi. Xususan, termodinamik tizim holatining makroskopik parametrlari termodinamikaning asosiy tushunchalari bo'lib hisoblanadi. Ular jumlasiga: bosim, hajm, harorat, tizimning ichki energiyasi tushunchasi, aniqrog'i, uning o'zgarishi va boshqalar kiradi. Nazariyaning negizini termodinamika qonunlari tashkil qiladi. Termodinamik teng muvozanatli tizim va termodinamik teng muvozanatli jarayon termodinamikaning ideallashtirilgan obyektlari bo'lib xizmat qiladi.

Quyida 1-jadval keltirilgan bo'lib, unda fundamental fizik nazariyalar, fundamental nazariyalarning tarkibiga kiruvchi fizik nazariyalarning namunalari keltirilgan.

1-jadval.

Fizik nazariyalar tarkibiga kiruvchi nazariy umumlashtirishlarga misollar

Fizik nazariya	Kichik tizimlarga misollar. Fundamentaltal fizik nazariyatarkibiga kiruvchi fizik nazariyalar	Bilimlar tizimi			Metodlar
		Asosiy tushunchalar	Qonunlar	Ideallashtirilgan obyektlar	

Mexanika	Nyuton mexanikasi	Tezlik, tezlanish, koordinatani o'zgartirish, massa, kuch, energiya	Vaqt o'tishi bilan berilgan boshlang'ich shartlar bo'yicha jismning holatini aniqlash. Nyutonning birinchi, ikkinchi, uchinchi qonunlari	Moddiy nuqta – massaga ega bo'lgan juda kichik o'lchamli obyekt. Jismning izchil harakati holatida hamda o'rganib chiqilayotgan harakatda jismni uning massasi markazi atrofidagi aylanishini e'tiborga olmaslik mumkin bo'lgan hollarda qo'llaniladi.	Koordinata-talar metodi, dinamik metod
	Statika	Kuch, kuch momenti, kuchlar juftligi	Mexanikaning asosiy qonunlari natijasi sifatida statika aksiomalari	Mutlaq qattiq jism – nuqtalari orasidagi masofa doimo o'zgarmas bo'lgan jism	Grafik, statik
	Gidrostatika	Kuch, bosim	Paskal qonuni, Arximed qonuni	Ideal suyuqlik– yopishqoqlik va issiqlik o'tkazuvchanlik-dan xoli, deb faraz etiladigan suyuqlik	Statika
	Aerostatika	Kuch, bosim	Paskal qonuni, Arximed qonuni	Ideal gaz - zarrachalarining o'zaro ta'siri hisobga olinmaydigan gazning nazariy modeli (havo)	Statik
Statistik fizika	Termodinamika	Holat parametrlari – bosim, harorat, hajm, ichki energiya	Holat tenglamasi, termodinamika-ning birinchi, ikkinchi, uchinchi qonunlari	Termodinamik teng muvozanatli holat	Termodinamik
	Gazlarning kinetik nazariyasi	Molekulalar harakati kinetik energiyasi tezligining o'rtacha qiymati		Ideal gaz	Statistik
Klassik elektrodinamika	Elektrostatika	Elektr zaryadi, kuch, elektr statik maydon, elektr statik maydonning kuchlanganligi, potentsiallar ayirmasi	Kulon qonuni	Nuqtali elektr zaryadi	Olamni ilmiy o'rganish metodi

Klassik elektrodinamika	Elektro-magnit maydon nazariyasi	Elektr va magnit maydonlarining kuchlanganligi va induksiyasi, elektr va magnit singdiruvchanlik, elektr o'tkazuvchanlik va boshqalar	Maksvell tenglamalari, Maydonlar superpozitsiyasi tamoyili	Uzluksiz elektr magnit maydoni	Elektr, dinamik
Kvant fizikasi	Kvant mexanikasi	Impuls, energiya, impuls momenti va boshqalar	Shredinger tenglamasi, o'xshashlik	O'zaro ta'sir etuvchi moddiy nuqtalar tizimi	Statistik, elektr va dinamik

U yoki bu nazariyaning, qonunning asosiy tushunchalari ko'rinishidagi nazariy umumlashtirishlar – bilimlar tizimi hamda ma'lum nazariyaning olamni o'rganish metodi bilan bog'lanishi ko'rsatilgan. Har bir nazariya o'z ideallashtirilgan obyektiga egadir. Xususan, tezlik, tezlanish, joyini o'zgartirish, massa, kuch – klassik mexanikaning asosiy tushunchalari bo'lib hisoblanadi. Energiya tushunchasi umumilmiy tushunchalar jumlasiga kiradi. Undan fizikaning turli bo'limlarida foydalaniladi. Harakat tenglamasi, Nyuton qonunlari mexanikaning qonunlarini tashkil qiladi. Klassik mexanikaning ideallashtirilgan objekti moddiy nuqtadan iborat. Koordinatalar metodi va dinamik metodlar undagi asosiy metodlar bo'lib xizmat qiladi.

Kuch, kuch momenti, kuchlar juftligi tushunchalari statikaga xosdir. Mexanikaning asosiy qonunlari oqibati sifatida statika aksiomalari uning qonuniyatlarini tashkil qiladi. Nazariyaning ideallashtirilgan objekti sifatida mutlaq qattiq jism, metodlarning esa, grafik va statik holatlari namoyon bo'ladi. Nazariy umumlashtirishlar fizik nazariyalar miqyosida ko'rib chiqiladi va asos, yadro, oqibat-natijalar, amaliy ilovalar uning tuzulmasiga kiritiladi. Nazariy umumlashtirishlar bilan tashkil topgan bilimlar tizimi nazariya metodlari bilan o'zaro bog'liq holda o'rganiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ефименко В. Ф. *Физическая картина мира и мировоззрение*. – Владивосток, изд-во Дальневост, ун-та, 1997. – С. – 160.
2. *Методика преподавания физики в 8–10 классах средней школы*. Ч. 1. / Под ред. В. П. Орехова, А. В. Усовой. – М., Просвещение, 1980. – С. – 320.
3. Мултановский, В.В. *Формирование мышления учащихся при изучении физических теорий*. // *Физика в школе*. – М., 1976. – №4. – С.5-8.
4. Tursunov Q.Sh. *Tabiiy-ilmiy fanlar integratsiyasi va dunyoqarash masalalari*. // "Xalq ta'limi". – T., 2010. №10. -16-20-b.

Barno MINGBAYEVA,
Jasur PARDABOYEV,
Nizomiy nomidagi TDPU o'qituvchilari

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA ERTAK JANRINI O'RGATISHNING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada xalq og'zaki ijodi namunalarining janr jihatdan o'ziga xos xususiyatlaridan biri "Ertaklar" asosida barkamol avlodni milliy qadriyat va an'analarimiz asosida tarbiyalashda, o'quvchilarni asarda tasvirlangan qahramon obrazlarga nisbatan mehr uyg'otish, ularning tabiatida mardlik, oliyanoblik, xushmuomalalik kabi sifatlarini shakllantirilishi bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Xalq og'zaki ijodi, folklor, sehr, adolat, ertak, milliy qadriyat, ijtimoiy tajriba, ma'naviy qadriyat, milliy o'zlikni anglash

В статье освещены вопросы воспитания учеников по материалам национальных сказок, формирования у обучаемых таких личностных качеств как уважения к национальным традициям и ремёслам. Приводятся примеры использования в учебных занятиях фольклорных жанров и позитивных героев национальных сказок. Авторами проведены анализы содержания исторических материалов, выявлены и обобщены рекомендации по формированию гармонично развитой личности.

Ключевые слова. Устное народное творчество, справедливость духовные ценности, социальный опыт, национальные традиции, развитие личности, народные промыслы, национальное самосознание.

The article highlights the problems of educating students on the material of the national, national education, respect for national traditions and crafts, folklore genres such as "Tales." They provide valuable advice on the formation of a harmoniously developed personality, spiritual appeal to the media and symbols of courage, generosity always brought generous fruit.

Key words. Folklore, spiritual values, social experience, national traditions, personal development, crafts, national consciousness.

Yurtimiz istiqbolga erishgach, milliy qadriyat va an'analarimizga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. Xalq og'zaki ijodi o'zining g'oyaviyligi, xalqchilligi, til boyligi va badiiyligi bilan ajralib turadi. U xalqning yengilmas irodasini, kelajakka bo'lgan ishonchini, haqiqat, adolat, tinchlik va baxt haqidagi tasavvurlarini yaqqol aks ettiradi. Xalq shoirlari yoki jamoa tomonidan yaratilib, og'izdan og'izga, avloddan avlodga o'tib kelgan badiiy asarlar xalq og'zaki ijodi deyiladi. Xalq og'zaki ijodi folklor deb ham yuritiladi. Qo'shiq, maqol, matal,

topishmoq, afsona, rivoyat, asotir(mif), ertaklar, latifa, lapar, terma, doston, askiya, tez aytish va masallar xalq og'zaki ijodining asosini tashkil etuvchi janrdir. Har bir xalq og'zaki ijodi namunalarining janr jihatdan o'ziga xos xususiyatlari mavjud, ertaklarning ham o'ziga xos jihatlari quyidagilar:

1. Ertaklar xalq og'zaki ijodining epik turiga mansub.
2. Ertaklar, asosan, nasrda yaratiladi. Faqat ayrim asarlardagina ("Yoriltosh", "Tohir va Zuhra" va b.) qo'shiqni eslatuvchi she'riy parchalar uchraydi.
3. "Bir bor ekan, bir yo'q ekan" boshlanmasi va "murod-maqsadiga yetibdi" yakunlanmasi ertaklarning an'anaviy belgisi hisoblanadi.
4. Xayoliy-fantastik tasvir ertaklar syujetida qo'llanadigan ustivor usuldur.
5. Ertaklarning umumiy mazmunida IMF formulasi doimiy takrorlanadi, ya'ni har bir ertak I – (initial) boshlanma; M – (medial) asosiy qism; F – (final) yakunlanmadan iborat bo'ladi.

Xalq ertaklari mazmunan 3 guruhga bo'linadi. Bular:

1. Hayvonlar haqidagi majoziy ertaklar (misollar: 1-sinfda "Sher va sichqon" ertagida yaxshilikka yaxshilik qaytishi g'oyasi ilgari suriladi; 2-sinfda "Quyuncha va ayyor tulki" ertagida quyunchaning beozorligi va tulking ayyorligi haqida fikrlar yuritiladi; 3-sinfda "Hosili deb ... ko'chat ekarman" ertagida qarib qolgan ayiqning ko'chat ekayotganligini ko'rib sherning hayratlanishi tasvirlanadi. Bu ertak chin ma'nodagi bunyodkorlikni targ'ib etadi; 4-sinfda "Olapar, Mosh va musicha..." da esa, hayvonlarni o'z egalari janjallari o'ylantirishi, ularni bu yo'ldan qaytarib, totuv yashashga undaganlari hikoya qilinadi).

2. Sehri-fantastik ertaklar (misollar: 1-sinfda "Sen va Siz" ertagi bolalarni xushmuomalalikka, kattalarga nisbatan hurmat tuyg'usini shakllantirishga o'rgatadi. "Siz" so'zi bilan hatto qo'rqinchli dev ham erib ketgani, tog' daryolarining Sizjonning muomalasidan xursand bo'lgani va Baxtlar vodiysini topishida yordam bergani, Senjonning qo'polligi, hurmatsizligi esa, yomon oqibatlariga olib kelishi to'g'risidagi fikrlar bayon etiladi; 2-sinfda "Oltin tuyoqli kiyik" ertagida yaxshilikka yaxshilik qaytishi, ochko'zlik esa yomon illat ekanligi haqidagi fikrlar bayon etiladi; 3-sinfda "Ona mehri" ertagida onaning o'z bolasiga bo'lgan mehri oldida yalmog'izning ham tishi o'tmay qolganligi tasvirlanadi; 4-sinfda "Ochko'z boy" ertagida jonivorlarga mehr ko'rsatish yaxshi odat ekanligi yoritiladi).

3. Hayotiy-maishiy ertaklar (misollar: 1-sinfda "Aqli bog'bon" bog'bonning dangasa va ishyoqmas o'g'illarini mehnat qilishga da'vat etgani va bu bilan bolalarni mehnatsevarlikka chorlagani haqida yoziladi; 2-sinfda "O'tinchi yigit bilan sher" ertagida esa, o'tinchi yigitning tadbirkorlik va aql bilan ish yuritishi tufayli sher bilan do'st bo'lgani bayon qilinadi; 3-sinfda "Oltin gaz arqon" o'z yurtiga muhabbat tuyg'usining ustunlik qilishi va birlashib yovni yengan kishilar haqida so'z boradi; 4-sinfda "Hiylagarning jazosi" do'stlik va xiyonat tuyg'ulari, o'z do'stiga xiyonat qilgan hiylagarning jazolanish voqealari yoritilgan).

Ertaklarda xalq hamisha adolatni yoqlaydi, himoya qiladi. Mazkur janr yaratilish jihatdan miflarga asoslansa, mavzuning tanlanishi, obrazlar tizimidagi yo'nalishlar, hayot muammolarini aks ettirishda adolat mezoniga bo'ysunadi. Vijdonsizlik,

Vatanga, do'stlarga xiyonat, yolg'onchilik kabi illatlar doimiy ravishda qoralanadi. Mardlik, to'g'riso'zlik, mehnatsevarlik fazilatlarini hurmat bilan tilga olinadi. Voqeaning tuguni ham hamisha ana shu fazilatlarini ulug'lash bilan yechimini topadi. Mohir xalq farzandlari tomonidan o'ylab topilgan fantastik hodisalar, uydirma-lavhalar, sehrli narsa-buyumlar, jodular, g'ayritabiiy hodisalar esa, tom ma'noda, yovuzlikning qoralanishi, ezgulikning maqtalishida poetik xomashyo sifatida foydalaniladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ertaklarda tasvirlangan qahramon obrazlarga nisbatan mehr uyg'otish, ularning tabiatida mardlik, oliyanoblik sifatlarini shakllantirib, yolg'onchilik, qo'rqqoqlik kabi salbiy sifatlarga qarshi nafrat uyg'otishga erishish mumkin. Shuningdek, boshlang'ich ta'lim yoshidagi bolalarning asosan, ko'p vaqti o'z oilasi davrasida o'tayotgani sabab, atrofida yashayotgan hayvonlar haqida ma'lumotga ega bo'lmaydilar. To'g'ri, ular uy hayvonlari (qo'y, ot, echki, tovuq, eshak)ni o'z ko'zlari bilan ko'rganlar, muayyan tasavvurga egalar. Ammo yovvoyi hayvonlar (bo'ri, ayiq, ilon, tulki, burgut)ni bilmaydilar. Shuning uchun o'qituvchi o'quvchilarga ertaklarni so'zlayotgan vaqtda mazkur hayvonlarning hayot kechirish tarzi yuzasidan muayyan ma'lumotlarni berishi lozim. Hayvonlar haqidagi ertaklarda bo'rining vahshiyliigi, odamga hujum qilishi mumkinligi, tulkining ayyorligi, laylak tumshug'ining uzunligi, kiyik dumi-ning to'mtoqligi ertak aytuvchi tomonidan izohlanishi kerak. Darvoqe, ilmiy adabiyotlarda ko'rsatilishicha, bunday ertaklarning asosiy qahramoni sifatida, ko'pincha, echki ishtirok etadi. Bir qator ertaklarda nima uchun qarg'a qora, kiyik dumi to'mtoq? Musicha ko'kragi nima uchun chakichlanganga o'xshaydi? kabi savollarga javob topishimiz mumkin. Demakki, ertaklarda hayvonlarning tabiiy ko'rinishlariga xos belgilarni bolalarcha tasvirlash o'quvchilar ongida bu belgilarning muhim tasvirlanishiga olib keladi. Ertaklar bilan ishlashda bolalarning yosh xususiyatlarini alohida e'tiborga olish talab etiladi. Voqealar qiziqarli, sodda, ixcham, izchil, qisqa bayon etilishi lozim.

Ayrim ertaklarda esa, adolat aynan ana shu yaxshilik evaziga g'alaba qozonadi. Xususan, “Ur to'qmoq” ertagidagi chol davolagan laylak unga bir martagina lutf ko'rsatib qolmaydi. Balki o'z sehri ta'sirini oxirigacha amalga oshirib, uning qo'shnisi qilgan xiyonatni oxirigacha fosh etadi va jazolaydi. Bunday ertaklarda adolat tasodifiy emas, qonuniy ajrim ekani voqealar mohiyatiga singdirib yuboriladi.

Ertaklarda ishtirok etayotgan qahramonlarning ijobiy va salbiy hislatlari bolalar ruhiyatiga chuqur ta'sir etadi. Bu esa, ularning murg'ak ko'ngliga yaxshilik qilishga, yomonlikka nafrat ko'zi bilan qarash, ezgu amallar bajarib, yovuzlikka qarshi kurashishga, halol pok yashashga nisbatan ezgu hislar uyg'otadi.

Boshlang'ich sinf o'quv darsliklarida “Ur to'qmoq”, “Rostgo'y bola”, “Olqar”, “Ovchi”, “Ko'kcha va Dono”, “Soy suvi haqida ertak”, “Ilm afzal” va boshqa tarbiyaviy ahamiyatga ega ertaklar ko'plab uchraydi. O'quvchilar esa bu kabi ertaklarni sevib o'qiydilar va tinglaydilar. O'tilgan ertaklar yuzasidan o'qituvchining bergan savollariga o'quvchilarning javob berishi orqali ularning fikr, tafakkur doiralari kengayib, so'z boyligi rivojlanib boradi. O'qituvchi ertak so'zlayotganda obrazga kirishib, ya'ni har bir qahramonning nutqini xuddi o'sha hayvonning obraziga taqlid

qilgan ohangda so'zlashi o'quvchilarda bir olam ma'naviy, tarbiyaviy ozuqa berishi bilan birga, ular o'zlarida ertakda ishtirok etuvchi ijobiy qahramonlar xarakterini namoyon qilishlari kuzatiladi. Shuning uchun ham ertaklarning g'oyaviy asosi, asosan, mardlik, halollik, to'g'riso'zlik, sadoqat kabi tuyg'ularning, ularga qarama-qarshi bo'lgan hislar ustidan g'alaba qozonishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar, asosan, hayvonlar haqidagi ertaklar bilan tanishadilar. Aslini olganda esa, bunday ertaklarda hayvonlar majoz sifatida ishtirok etadi, ya'ni: ayyor kishi – tulki, mard, pahlavon kishi – ayiq, vafodor kishi – it, mug'ombir kishi – mushuk, beozor kishi – qush, ikkiyuzlamachi kishi esa, ilon qiyoslanishi kabilar.

O'zbek xalq ertaklari orasida sehrli ertaklar ham ancha salmoqli o'rinni egallaydi. Sehrli ertaklarning o'ziga xos xususiyatlari bilan majoziy va maishiy ertaklardan farq qiladi. Ko'pchilik xalqlarda bo'lgani kabi o'zbek xalqining sehrli ertaklarida ham hayot voqealarini fantastik bayonlar bilan uydirmalar orqali o'ziga xos ifoda etiladi.

O'zbek xalq maishiy ertaklari orasida pand-nasihat, tarbiyaviy, pedagogik xarakterdagi ertaklarda ota-bobolarimizning asrlar davomida yaratilgan hayot tajribalarida sinalgan fikrlarning xulosasi lo'nda qilib ifoda etilgan. Ularda mehnatkash xalqning pedagogik qarashlari mujassamlangan. Ertaklar bolalarini savodli qilish, ularni chin inson qilib voyaga yetkazish, mehnatni sevishtirish va unga qiziqish bilan qarash, kattalarni hurmat qilish, hunar o'rganish, komil inson bo'lish, kishilarga yordam berish kabi qator ezgu fazilatlarni singdiradi.

Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, boshlang'ich ta'lim jarayonida xalq pedagogikasi namunalaridan biri bo'lgan ertaklardan samarali foydalanish o'quvchilarni vatanparvarlikka, mehnatsevarlikka, ilm egallashga, do'stlik va halollikka bo'lgan intilishlarini ro'yobga chiqaruvchi manba sifatida muhim ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.*// Oliy Majlis 1-chaqiriq 9-sessiyasida so'zlagan nutqi//. 31avgust, 1997.
2. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. *O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi.* – T.: "O'qituvchi", 1990. – 87-215-b.
3. Imomov K. *O'zbek xalq ertaklari / O'zbek folklorining epik janrlari.* – T.: "Fan", 1981. – 62-96-b.
4. *O'zbek xalq ertaklari. I tom.* –T., 1960.
5. *O'zbek xalq ertaklari. II tom.* –T., 1963.
6. *Internet materiallari asosida.*

Xayrulla INATOV,
Jizzax viloyati PKQTMOI dotsenti,
Bo'ronboy XOLYIGITOV,
Jizzax tumani Uchtepa Qishloq xo'jalik
kasb-hunar kolleji o'qituvchisi

FANLARARO BOG'LANISHDA FIZIKA FANINING ILMIY-NAZARIY AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada fizika fanini boshqa fanlar bilan o'zaro bog'lab o'rganish masalalari keng yoritilgan. Shuningdek, muallif fanlararo bog'lanish, fanlarning turiga qarab umumiy metodlar birligi bilan izohlanar ekan, fizika va kimyoda eksperimental metod, fizika va matematikada esa, modelli metodlar orqali bog'liqligi integratsiyalashgan jadvallar asosida ochib berilgan.

Kalit so'zlar. Fanlararo bog'lanish, funksional bog'lanish, eksperimental metod, modelli metod, integratsiyalashuv.

В статье рассматривается значение междпредметных связей в системе непрерывного образования. Показаны отношения предметов двух типов и значение междпредметных связей. Приводятся примеры по физике, астрономии, математике, химии, биологии и труду. Логически обосновываются эффективность междпредметных связей.

Ключевые слова. Междпредметная связь, функциональная связь, метод моделирования, коэффициент, экспериментальный метод, интеграция.

In this article it is described the main points of relations of subjects in education. Noted according to subject methods (experimental method in physics and chemistry. The model method in physics and mathematics) and two reciprocal relations in educational subjects. Also, outspoken of themes which are important in education relations of physics, astronomy, mathematics, chemistry, biology and handicraft.

Keu words. Chronology, idea, experimental method, the model method, acid, alkali, salt, kinematics, dynamic.

Fanlararo aloqadorlikning mazmuni va materiallar hajmi maktab fizika kursida o'quv dasturi orqali aniqlanadi. Har bir fan o'qituvchisining u yoki bu fanning o'zaro bog'liqligini o'quvchilarga tushintirishi va o'quv jarayonida undan mohirona foydalanishi o'qitish mazmunini oshirishga olib keladi.

O'quv fanlari orasida o'zaro bog'liqlik ikki turga bo'linadi: xronologik va g'oyaviy. Birinchisi, turli fanlar dasturlarining o'zaro mutanosibligiga, ikkinchisi esa, bir xil yo'nalishdagi ilmiy tushunchalarning umumiy-metodik holatlar asosida singdirilishiga asoslanadi.

Fanlararo bog'lanish fanlarning turiga qarab umumiy metodlar birligi bilan ham izohlanadi. Masalan, fizika va kimyoda eksperimental metod, fizika va matematikada esa, modelli metodlar orqali bog'liqlikni keltirish mumkin.

Amaliyotda fizika o'qituvchilari fanlararo xronologik bog'lanishning ilgari, hozir, kelgusi kabi uch turidan bevosita foydalanadilar.

Ilgari – fanlararo bog'lanish fizika kursi materiallarini o'qitishda oldin boshqa fanlardan olingan bilimlarga tayaniladi (masalan, tabiatshunoslik, geografiya, matematika).

Hozir – fanlararo bog'lanish barcha fanlardan materiallar bir vaqtda o'tiladi (masalan, fizikadagi tovushga oid tushunchalar, biologiyada "Nutq a'zolari" mavzusini o'tishda mos keladi).

Kelgusi – fanlararo bog'lanish fizikada o'tilgan materiallar kelgusida boshqa fanlarning o'qitilishida asqatadi (masalan, fizikadagi "Atom tuzilishi" mavzusi kimyoda keyinchalik o'tiladi).

O'qituvchi o'z mehnatini osonlashtirish uchun fanlararo aloqadorlikka tegishli materiallarni tanlashi, kartochkalar tayyorlashi va unga qisqa zarur ma'lumotlarni yozib borishi lozim. Masalan:

1. Qaysi darslik yoki qo'llanmalar mazmunida berilgan mavzu (savol, matn, rasm) ning o'zaro bog'liqligi mavjud?

2. Berilgan materiallar qaysi turdosh fanlarda o'rganiladi?

3. Turdosh fanlardagi materiallarning qisqacha mazmuni (faktlar, misollar, raqamlar, qonunlar) yoziladi.

4. Fizika darslarida qaysi maqbul metod yoki usullar yordamida turdosh fanlar materiallaridan foydalaniladi?

Ma'lumki, "Fizika", "Astronomiya", "Matematika", "Kimyo" va "Biologiya" fanlari sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining ilmiy asosi hisoblanadi. Buning uchun maktabda barcha fanlarning o'zaro bog'liqligini o'qitishning dastlabki bosqichlaridayoq o'quvchilarga tushuntirib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu esa, o'quvchilarning tabiat to'g'risidagi bilimlarning bir-biriga bog'langanligini, tashqi muhitning bir butunligini tushunishiga yordam beradi.

Dastlab, o'quvchilar fizikadan modda haqida boshlang'ich tushuncha oladilar. Bunda ular modda molekulalardan tashkil topganligi, tartibsiz harakatda bo'lishi va o'zaro ta'sirlashishini o'rganadilar. Shu o'rinda, bir xil moddalarning molekulalari bir-biridan farq qilmasligini, bizni o'rab olgan tevarak-atrofdagi jonli va jonsiz tabiat molekulalardan tashkil topganligini o'quvchilarga uqtirish zarur bo'ladi.

Molekulalari bir xil atomlardan tuzilgan moddalar: (Fe, Si, O₂) oddiy moddalar, molekulalari turli xil atomlardan tuzilgan moddalar (suv, kislotalar, tuzlar) murakkab moddalar ekanligi va moddalardan jismlar tashkil topishi (temirdan mix, tunuka) tushuntiriladi. Hozirda fanda ikki milliondan ortiq modda borligi ma'lum. Ayrim moddalar tabiatda mavjud (temir, mis, suv, kislorod va boshqalar). Ayrimlari esa, sun'iy yo'l bilan hosil qilinadi (kapron, neylon, ...).

"Bug'lanish", "Bug' hosil bo'lish solishtirma issiqligi" mavzularini o'rganishda o'quvchilarning "Zoologiya" va "Biologiya" fanlaridan olgan tushunchalarini keltirish o'rinli, deb hisoblaymiz: 1 g suv bug'langanda jism 2430 J energiya yo'qotishi, 1 tup makkajo'xori butun hayoti davrida 200 kg suv bug'latishi (suvning solishtirma bug' hosil bo'lish issiqligi $2,26 \cdot 10^6$ J/kg), agar odam terlamaganda uning tana temperaturasi 100°C gacha ko'tarilgan bo'lishi misol tariqasida keltirilsa, o'quvchilar fizika, kimyo, zoologiya va biologiya fanlarining bir-biriga bog'liqlik tomonlarini yanada chuqurroq bilib oladilar va ularning tibbiyot sohasiga qiziqishlari ortadi.

“Ideal gaz” mavzusini o‘rganishda, ideal gazning o‘rtacha kinetik energiyasini ifodalovchi $E = \frac{3}{2}kT$ formula asosida masalalar yechish darslarida kimyoviy reaksiyalarning kechish temperaturasi topish (800 K ga yaqin) ko‘nikmalarini ham o‘quvchilarga singdirish foydadan xoli emas. Bundan tashqari, o‘quvchilarga ko‘pgina reaksiyalar: oksidlanish, qayta tiklanish, gidrolizning uy temperaturasi sodir bo‘lishi, ya’ni issiqlik harakati tufayli yuz beradigan energiya fluktatsiyasini ham aytib o‘tish kerak. Jumladan, Kulon qonuniga muvofiq ikki xil elektr bilan elektrlangan molekula bo‘laklari orasidagi o‘zaro ta’sir kuchi suvda havodagiga qaraganda 81 marta kuchsiz bo‘lishi ma’lum. Shuning uchun suv molekularining issiqlik harakati erigan modda molekularini ikkita ionga ajratib yuborishiga yetarli bo‘ladi.

Fotosintez mavzusi o‘rganilganda fizika o‘qituvchisi uning mohiyatini kimyoviy reaksiya ifodasi asosida bog‘lab tushuntirishi fanlararo bog‘lanish talablariga mos keladi.

Fizika va kimyo fanlarining asosiy tushunchalarini bir-biriga bog‘lab o‘rganishga yordam beradigan integratsiyalashgan jadvallar tuzib, bu jadvallardan yangi bilimlarni singdirish, sifat masalalari yechish, umumlashtiruvchi takrorlash darslarida foydalanish yaxshi samara beradi.

Ko‘p hollarda matematika kursida ishlatiladigan funksiya va argument kabi atamalardan o‘z o‘rnida foydalanmaslik fizikadan masalalar yechishda qiyinchiliklarga olib keladi. Matematika kursida funksional bog‘lanishlardan fizika o‘qitish jarayonida foydalanishni quydagicha izohlash mumkin. Masalan, $s = vt$, $v = v_0 + at$, $s_x = v_{0x}t + \frac{a_x t^2}{2}$ formulalarda qaysi kattaliklar argument va qaysilari funksiya ekanligi, bu funksiyalarning grafiklari qanday ko‘rinishda bo‘lishi, grafikning ko‘rinish koefitsientining son qiymatiga qanday bog‘liqligini o‘quvchilar mustaqil aniqlashlari lozim.

“Kinematika asoslari” bo‘limi oxirida **“Aylanma tekis harakatda tezlik”** mavzusi beriladi. Fizika o‘qituvchisi oldin geometriya kursida o‘tilgan markaziy burchak va aylana haqida tushunchani o‘quvchilarning esiga tushirishi lozim.

Shuningdek, **“Dinamika asoslari”** bo‘limi o‘tilayotgan vaqtda ham fizika bilan matematikaning o‘zaro aloqadorligidan, ya’ni matematikaga doir vektorlar, koordinatalar, tenglamani yechish va tenglamalar sistemasi kabi tushunchalardan foydalanish mumkin. Nyuton qonunlarini vektor va skalyar ko‘rinishda yozishda, yuqorida keltirilgan tushunchalar bo‘yicha matematika tayanch vazifasini bajaradi.

Shuningdek, **“Taranglik kuchi”**, **“Saqlanish qonuni”**, **“Mexanik tebranish va to‘lqinlar”** mavzularini o‘tishda, matematikadan vektorlar, trigonometrik funksiya, chiziqli tenglama va sistemalar, koordinata o‘qiga impuls proyeksiyasi, matematik mayatnikning tebranish davri kabi tushunchalardan foydalaniladi.

“Qattiq jism, suyuqlik va gazning bosimi” mavzusi bo‘yicha qattiq jismning bosimi, suyuqlikning gidrostatik bosimi, atmosfera bosimi, Arximed kuchi va uning qo‘llanilishi o‘rganiladi. Ushbu tushunchalarning har birini tushuntirishda fanlararo aloqadorlikdan foydalanish mumkin.

$P = \frac{F}{S}$ bosim formulasi qiymatlarning to‘g‘ri va teskari proporsionalligini ko‘rsatadi. Bu esa, o‘quvchilarning $y = kx$ va $y = \frac{h}{x}$ funksiya xossalari haqidagi bilimlarini chuqurlashtiradi.

G' kuch va S yuzani hisoblashda proporsionallik xossasidan: $r_1 = r_2$ bosimlar teng bo'lganligi uchun kuch va yuza orasidagi munosabat quyidagicha yoziladi, ya'ni $\frac{F_1}{S_1} = \frac{F_2}{S_2}$.

Berilgan idishdagi suyuqlik bosimini hisoblashda, o'quvchilarning matematika kursidan (to'g'riburchakli parallelepiped hajmi) olgan bilimlari va oddiy matematik almashtirishlardan foydalanadi:

$$P = \frac{F}{S}, F = P \cdot S, m = \rho V, V = Sh, \text{ U holda } F = \rho g Sh, P = \frac{\rho g Sh}{S}, P = \rho gh.$$

Bu yerda balandlik h va bosim p orasida to'g'ri proporsional va funksional bog'lanish mavjudligini bilish taqozo etiladi.

Fizika fani bilan qishloq xo'jaligi texnikalari va ularning ishlash jarayonlari (**fizika va mehnat**) orasidagi o'zaro bog'lanish juda ham yaqindir. Fizika va mehnat fanlarining o'zaro bog'liqligini ifodalovchi juda ko'p nomlanishdagi metodik adabiyotlar mavjudki, ulardan o'quv jarayonida foydalanish yaxshi samara beradi.

Ma'lumki, fizika va astronomiyaning bog'liqligi yorug'lik tezligini aniqlash (Remer usuli), yulduzlar ichidagi zichlik, bosim va temperaturani o'rganish hamda termoyadro reaksiyalari, kosmik fazo haqida (yuqori vakuum) ma'lumotlar olishga qaratiladi.

Keyingi yillarda astrofizikaning rivojlanishi, nazariy va eksperimental fizikaning yutuqlari osmon jismlari haqidagi tasavvurni oydinlashtirdi. Yulduzlar atmosferasi va ularning ichki tuzilishi, yulduzlararo bo'shliqning fizik sharoitlarini tasavvur qilish uchun hozirgi zamon nazariy fizikasining termodinamika, gidrodinamika, gazodinamika, magnitgigrodinamika va yadro fizikasi kabi sohalaridan foydalanishga to'g'ri keldi.

Shunday qilib, fanlararo bog'lanishlarda ham DTS va o'quv dasturi talablarini amalga oshirish haqidagi masala o'zining yetakchilik xususiyatiga ega. Bu talablar bajarilishi shart, unda dastur va darsliklarda keltirilgan materiallar o'zaro bog'lab o'tilgandagina o'quvchilar barcha fanlar bo'yicha yaxlit tushunchaga ega bo'ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmedov B. I., Inatov X., Mirzaxmedov B.M. O'rta maxsus ta'limda fizikani o'qitishda politexnik ta'limni ta'minlash // *Fizika, matematika va informatika*. 2009, 2-son. 88-90-b.
2. Inatov X. *Fizika o'qitishda fanlararo bog'lanishning ta'limiy ahamiyati / Fizika o'qitishning nazariy masalalari // O'quv qo'llanma // 1-qism. – T.: "Tafakkur". 2010, 9-b.*
3. Inatov X. *Fizika o'qitishda integrallashgan bilimlarning gumanitar asoslari // Формирование гармонично развитого поколения в современных условиях Сборник научно-методических статей. Часть 10. – T.: 2012. – С.172*
4. Inatov X. *Fizika va iqtisod fanlarining integratsiyasi // Формирование гармонично развитого поколения в современных условиях. Сборник научно-методических статей. Часть 11. – T.: 2012. – С.191.*

Shaylovbek SAIPNAZAROV,

TDIU dotsenti, p.f.n.,

Abduxalil RAXIMOV,

TDIU katta o'qituvchisi

EKSTREMAL MASALALARNI NOSTANDART USULLAR YORDAMIDA YECHISH

Annotatsiya

Maqolada ekstremal masalalarni noan'anaviy usullarining klassik metodlardan afzalligiga oid misollar keltirilgan. Olingan natijalar mavjudlari bilan taqqoslanib, mazkur usullarning samarali ekanligi misollar yordamida ochib berilgan.

Kalit so'zlar. Ekstremum, uchburchak tengsizligi, statsionar nuqta, Lagranj funksiyasi, lagranj ko'paytuvchilari.

В статье приведены нетрадиционные методы решения экстремальных задач и рассмотрены примеры, показывающие преимущества этих методов перед классическими методами. Установлена эффективность в результате сравнений двух методов.

Ключевые слова. Экстремум, неравенства треугольника, стационарная точка, функция Лагранжа, множители Лагранжа.

Non conventional methods of doing extreme tasks and also the samples showing the advantages than the classical methods of teaching are shown in this article. It has been determined the affiance of these methods in consequence of comparison of two methods.

Key words. Extreme, inequality of triangle, stationary points, function of Lagrange, factors of Lagrange.

Ekstremal masalalarning ko'lami juda keng bo'lib, u matematikaning muhim tarmoqlaridan biridir. Bunday masalalarga qiziqish tarixi juda qadimiy bo'lib, dastlabki masalalar geometrik figuralarning ekstremal xossalari o'rganishga bag'ishlangan edi. Biroq bu qiziqish hanuzgacha dolzarb bo'lib, uning zaminida, avvalo, masalaning tatbiqiyli yotadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari matematika kursida ifodaning yoki funksiyaning eng katta yoki eng kichik qiymatlarini topishga oid masalalar o'rin olgan. Ammo uchburchak tengsizligi, o'rta arifmetik va o'rta geometrik orasidagi tengsizlikning tatbiqi va yopiq siniq chiziqning xossalari unumli foydalaniladigan masalalar mavjud adabiyotdan o'rin olmagan. Bizning maqsadimiz klassik metodlardan tashqari elementar almashtirishlar orqali ba'zi ekstremumga oid bo'lgan masalalarni yechish mumkinligini ko'rsatishdan iborat. Keltirilgan masalalar elementar matematika doirasidan tashqariga chiqmaydi. Shuning uchun o'qituvchi va o'quvchilar tushinishlari qiyin bo'lmaydi. Ular bu metodni tatbiq etish bilan tanishib oladilar.

I. Agar R^1 da aniqlangan, uzluksiz va o'zlarining aniqlanish sohalarida $f(x) \geq 0$, $q(x) \geq 0$ shartlarni qanoatlantiruvchi funksiya uchun $f(x) + q(x) = c$ bo'lsa (bu yerda: c o'zgarmas son), $\max(\sqrt{f(x)} + \sqrt{q(x)}) = \sqrt{2c}$ bo'ladi va bu qiymatga $f(x) = q(x)$ da erishadi.

Isboti: Belgilaylik: $\vec{a}(1;1)$, $\vec{b}(\sqrt{f(x)}; \sqrt{q(x)})$. U holda skalar ko'paytma ta'rifiga ko'ra, $\vec{a} \cdot \vec{b} = \sqrt{f(x)} + \sqrt{q(x)} = |\vec{a}| \cdot |\vec{b}| \cdot \cos \gamma \leq |\vec{a}| \cdot |\vec{b}|$ ya'ni:

$$\sqrt{f(x)} + \sqrt{q(x)} \leq \sqrt{2} \cdot \sqrt{\sqrt{f(x)} + \sqrt{q(x)}} = \sqrt{2c}$$

Agar $\cos \gamma = 1$ bo'lsa, $\gamma = 0$ bo'lib, $\vec{a}$ va $\vec{b}$ vektorlar kollinear bo'ladi. Ya'ni:

$$\frac{\sqrt{f(x)}}{1} = \frac{\sqrt{q(x)}}{1}$$

Bundan $f(x) = q(x)$ kelib chiqadi.

Bu teoremani qo'llash mumkin bo'lgan masalalar talaygina. Quyida shunday masalalardan ba'zilarini ko'ramiz.

1. Quyidagi funksiyaning maksimumini tekshiradi.

$$\sqrt{x+1} + \sqrt{3-x} \rightarrow \max$$

Bu yerda: $f(x) = x+1$, $q(x) = 3-x$ deb olsak, $f(x) + q(x) = 4$ ga ega bo'lamiz.

Yuqoridagi teoreмага ko'ra $\max(\sqrt{x+1} + \sqrt{3-x}) = 2\sqrt{2}$

Funksiyaning minimum nuqtasini

$$x+1 = 3-x \text{ tenglikdan topamiz: } x=1.$$

$$2. \sqrt{x^4 + 2x^2 - 5} + \sqrt{43 - 2x^2 - x^4} \text{ ® } \max$$

Bu yerda: $x^4 + 2x^2 - 5 + 43 - 2x^2 - x^4 = 38$ bo'lib,

$$\max(\sqrt{x^4 + 2x^2 - 5} + \sqrt{43 - 2x^2 - x^4}) = 2\sqrt{19}$$

Undan tashqari, maksimal qiymatga

$$x^4 + 2x^2 - 5 = 43 - 2x^2 - x^4$$


tenglik bajarilganda erishadi: $x = \pm 2$.

II. Ba'zi ekstremal masalalarni yechishda geometrik yasashlar juda qo'l keladi.

1) ushbu masalani qaraylik:

$$\sqrt{9 + x_1^2 - 3\sqrt{3}x_1} + \sqrt{x_1^2 + x_2^2 - x_1x_2\sqrt{3}} + \sqrt{16 + x_2^2 - 4\sqrt{3}x_2} \text{ ® } \min$$

Bu masalani yechish uchun to'g'ri burchakni teng uchga bo'lib, quyidagi ko'pburchakni yasaymiz (1-chizma).



1-chizma.

Chizmada $OA = 3$, $OB = x_1$, $OC = x_2$, $OD = 4$ bo'lsin.

U holda $DAOB$ dan kosinuslar teoremasiga ko'ra topamiz:

$$AB = \sqrt{9 + x_1^2 - 3\sqrt{3}x_1}, \quad BC = \sqrt{x_1^2 + x_2^2 - x_1 x_2 \sqrt{3}}$$

$$DA = \sqrt{16 + x_2^2 - 4\sqrt{3}x_2} \quad AB + BC + CA \stackrel{3}{=} AA \quad \text{bo'lganligidan}$$

$$\sqrt{9 + x_1^2 - 3\sqrt{3}x_1} + \sqrt{x_1^2 + x_2^2 - x_1 x_2 \sqrt{3}} + \sqrt{16 + x_2^2 - 4\sqrt{3}x_2} \stackrel{3}{=} \sqrt{3^2 + 4^2} = 5$$

Demak, berilgan funksiyaning minimal qiymati 5 ekan.

1) quyidagi masalani qaraylik:

$$\sqrt{x_1^2 + (x_2 - 1)^2} + \sqrt{(x_1 - 1)^2 + x_2^2} \rightarrow \min$$

Bu yerda ham $A(0;1)$, $B(1,0)$, $C(x_1; x_2)$, deb olsak:

$$AC = \sqrt{x_1^2 + (x_2 - 1)^2}; \quad BC = \sqrt{(x_1 - 1)^2 + x_2^2}, \quad AB = \sqrt{2} \quad \text{bo'lib,}$$

$$AC + BC \stackrel{3}{=} AB \quad \text{bo'lganidan,} \quad \sqrt{x_1^2 + (x_2 - 1)^2} + \sqrt{(x_1 - 1)^2 + x_2^2} \geq \sqrt{2}$$

tengsizlikka ega bo'lamiz, ya'ni minimal qiymati $\sqrt{2}$.

III. Ba'zi ekstremal masalalarni yechishda o'zgaruvchilarni almashtirish ham yaxshi samara beradi. Quyidagi masalalarni qaraylik:

$$x_1^2 x_2^2 (x_1^2 + x_2^2) \rightarrow \max,$$

$$1) \quad x_1 + x_2 = 2 \quad (1)$$

$$x_1 \geq 0, \quad x_2 \geq 0$$

Masalani yechish uchun shartlardan kelib chiqqan holda

$$x_1 = 1 + \varepsilon \quad (2)$$

$$x_2 = 1 - \varepsilon, \quad 0 \leq \varepsilon \leq 1$$

almashtirma bajaraylik. Natijada

$x_1^2 x_2^2 (x_1^2 + x_2^2) = 2(1 - \varepsilon^2)(1 - \varepsilon^4) \leq 2$ bahoga ega bo'lamiz. Bu natijani mavjud usullar yordamida olingan natijalar bilan taqqoslab, buning samarali ekanligiga ishonch hosil qilish qiyin emas.

Shu o'rinda (1) almashtirmaning samarali ekanligini ta'kidlash joizdir. Shu maqsadda, (1) ifodada $x_1 + x_2 = 2$ ning har ikkala tomonini kvadratga oshirib topamiz: $x_1^2 + x_2^2 = 4 - 2x_1 x_2$. Bu miqdorni maqsad funksiyaga qo'yib, $x_1 x_2 = Z$ almashtirishni bajarsak,

$$U = Z^2(4 - 2Z) \rightarrow \max$$

masalaga kelimiz. Bu bir argumentli funksiya o'zining maksimumiga $Z = \frac{4}{3}$ da erishadi va $U_{\max} = \frac{64}{27} > 2$. Bu esa, yuqoridagi natijaga zid. Biroq funksiya berilgan shartlarda bunday maksimumga ega bo'lmaydi.

2) Ushbu $x_1 + x_3 \rightarrow \max$ masalani qaraylik. Bu masalaning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda

$$x_1^2 + x_2^2 = 3$$

$$x_3^2 + x_4^2 = 25$$

$$x_1 x_4 + x_2 x_3 \geq 5\sqrt{3}$$

$$x_j \geq 0, \quad j = \overline{1,4}$$

$$x_1 = \sqrt{3} \cos \alpha, \quad x_2 = \sqrt{3} \sin \alpha,$$

$$x_3 = 5 \cos \beta, \quad x_4 = 5 \sin \beta$$

almashtirishlar bajaraylik. U holda,

$$x_1 x_4 + x_2 x_3 = 5\sqrt{3} \sin(\alpha + \beta) \geq 5\sqrt{3} \text{ bo'lib,}$$

eng katta qiymatga $\sin(\alpha + \beta) = 1$, ya'ni $\alpha + \beta = \frac{\pi}{2} + 2k\pi, \quad k \in \mathbb{Z}$ bo'lganda erishadi. Buni e'tiborga olib topamiz:

ya'ni, $\max(x_1 + x_2) = 2\sqrt{7}$ natijaga kelish mumkin.

Maksimal qiymatga $\sin\left(\alpha + \arctg \frac{\sqrt{3}}{5}\right) = 1$ bo'lganda erishiladi. Bundan

$\alpha = \frac{\pi}{2} - \arctg \frac{\sqrt{3}}{5}$ bo'lib, elementar hisoblashlar yordamida

$$x_1 = \frac{3\sqrt{7}}{14}, \quad x_2 = \frac{5\sqrt{21}}{14}, \quad x_3 = \frac{2\sqrt{7}}{14}, \quad x_4 = \frac{5\sqrt{21}}{14} \text{ natijaga kelish mumkin.}$$

Bunday nostandart usullarni ko'plab keltirish mumkin edi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, shunday masalalar borki, klassik metod yordamida bu masalalarni har doim ham yechish oson bo'lavermaydi yoki mavjud metodlar yordamida umuman yechib bo'lmaydi. Bunday xususiy metodlar talabning mustaqil fikrlashga, har bir masalaga ilmiy yondashishga o'rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vafayev R.N., Xusanov J.X., Fayziyev K.X., Xamroyev Yu.Y., *Algebra va analiz asoslari*. – T., 2003.

2. Saipnazarov Sh., Jumayev X., *Aylananing ajoyib xususiyatlari haqida. Texnik va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar sohalarining muhim masalalari. Respublika Oliy o'quv yurtlararo ilmiy ishlar to'plami*. – T., 2011.

Temur RIXSIBOYEV,

Nizomiy nomidagi TDPU professori,

Ravshan SARIQULOV,

Bekobod tumanidagi 19-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA CHIZMACHILIK FAKULTATIV DARSLARINI TASHKIL ETISHNING TEXNOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada chizmachilik darslarida o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi qiyin kechadigan proyeksiyon mavzularning texnologik asoslari keltirilgan. Mualliflarning fikricha, o'quvchilar ongini mustahkamlash maqsadida chizmachilik fakultativ darslarining shakl va mazmunini interaktiv metodlardan foydalanib ta'lim samaradorligini oshirish mumkin.

Kalit so'zlar. Pedagogika, metodika, fazoviy tasavvur, ijodiy qobiliyat, mustaqil ta'lim, tarqatma material, muammoli vaziyat.

В данной статье изложены возможности совершенствования форм и содержания факультативных уроков путём внедрения интерактивных методов обучения способствующих повышению эффективности образования трудноосваиваемых тем по проекционно-му черчению, который является основной частью курса черчение.

Ключевые слова. Педагогика, методика, пространственное воображение, творческая способность, знание, навык, умение, самостоятельное образование, раздаточный материал, проблемная ситуация.

In given is stated about possibility of the improvement of the manner and matter optional lesson by way of the introduction some interactive methods of the education promoting increasing to efficiency of the formation it is difficult mastered that on projection drawing, which is a main part of course drawing.

Key words. Pedagogic, methods, spatial imagination, creative ability, knowledge, skill, independent formation, distributing material, problem-solving situation, reconstruction.

Bugungi kunda mamlakatimizda barcha sohalar rivojlanib, xalqaro maydonda o'zining munosib o'rnini topmoqda. Davlatimizning mustaqil taraqqiyot yo'lini ta'minlash uchun ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma'rifiy sohalarida chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bois mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab sifatli kadrlar tayyorlash maqsadida 1997-yilda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilindi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy vazifalaridan biri bu – ta'lim jarayonidagi sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash, ya'ni jahon andozalariga mos, raqobatbardosh, yuqori saviyaga ega bo'lgan mutaxassislar tayyorlashdir. Bunda aniq vazifalar sifatida bevosita o'quv jarayonini yaxshilash, o'quv dasturlarini yanada takomillashtirish, o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalarini amalda joriy qilishdan iboratdir.

Xalq ta'limi vazirligining 2013-yil 8-fevraldagi kengaytirilgan yig'ilishida umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirish, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, o'quvchilarga zamonaviy bilim berish yo'llarini o'rgatish, ta'lim sifati va samaradorligiga erishish, barkamol shaxslarni tarbiyalash vazifalari belgilanganligi va bu vazifalarni bajarish yuzasidan Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti hamda Toshkent viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi bilan hamkorlikda qo'shma buyruq ishlab chiqildi. Ushbu buyruqqa muvofiq Toshkent viloyati umumiy o'rta ta'lim maktablari negizida "Tajriba-sinov" maydonchalari tashkil etildi.

Ushbu "Tajriba-sinov" maydonchalari huzurida o'qituvchi kadrlarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalarini qo'llash hamda ilg'or pedagogik texnologiyalarni egallashlari bo'yicha doimiy ravishda seminar-treninglar olib borilmoqda. Unda asosiy ko'rilayotgan masala umumiy o'rta ta'lim maktablarida chizmachilik darslarini tashkil etishning yangi pedagogik metodlari va ularning mazmunini oshirish bo'yicha turli talqinlar, fikr-mulohazalar yuritilmoqda.

Yuqorida qo'yilgan vazifalar o'qituvchidan chizmachilikni o'qitishda turli metod va zamonaviy ta'lim berishning usullari ishlab chiqildi. Ular:

- ♦ chizmachilikni o'qitishda yuqori malakali, ilg'or tajribali o'qituvchilarning o'qitish metodlari foydalanish;
- ♦ darslarda o'quvchilarning fazoviy tasavvur qilish qobiliyatlarini rivojlantirish va faollashtirish;
- ♦ yaqqol tasvirlar-aksonometrik proyeksiyalarning qonun-qoidalarini tadbiq etish orqali qo'lda, ko'zda chamalab eskiz va texnik rasm chizishni mustahkam egallash usullarini qo'llash;
- ♦ chizmalar chizish va ularni o'qish bo'yicha mustahkam bilim, ko'nikma va malaka berish omillarini tadbiq etish;
- ♦ mustaqil ijodiy fikrlashga, ishlashga o'rgatadigan omillarni izlab topish va ta'limga joriy etish;
- ♦ turli chizmalarni kompyuterda mustaqil bajara olish va uni amaliyotga tatbiq etishdan iborat.

1. Bilim, ko'nikma va malakani takrorlash hamda mustahkamlash darsi.

Bunday darslarda o'quvchilar o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni o'qituvchining nazorati ostida bajaradilar. O'qituvchi o'quvchilarning xatolarini tuzatishda yordam berishi, agar ko'pchilikda bir xil kamchiliklar bo'lgan hollarda sinf taxtasida tushuntirib berishlari zarur.


Masalan, oddiy geometrik jismlar qanday nomlanadi va ularning olddan va ustidan ko'rinishlarini ko'ring mazmunida o'quvchilarga so'rovnomalar tarqatiladi (1-rasm). Dars so'ngida o'quvchilarning bajargan ishlari tekshirilib tahlil qilinadi.

Bunday jamoa bo'lib, o'quvchilarni bir-birini ishini baholash jarayonida, mavzu mohiyatini tushunmagan o'quvchilar ham pirovard natijada darsda o'tilgan materiallarni o'zlashtirmay qolmaydi. Natijada fakultativ darslarida o'quvchilar ishini baholashda yangicha metodik yondoshuv, barcha o'quvchilarning darsda o'tilgan mavzu materiallarini takrorlashga va mustahkamlashga erishiladi.

Topshiriq varaqasi

Birinchi savol: yaqqol tasviri berilgan oddiy geometrik jismlar qanday nomlanadi?

Ikkinchi savol: ularning olddan va ustdan ko'rinishlari qanday?



Bunday mustaqil darslar o'quvchilarda kuzatuvchanlik, fazoviy tasavvur, amaliy ko'nikma hamda chizmani o'qish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Mavzu bo'yicha beriladigan chizma murakkab bo'lmasligi va tanlangan model (detal) ni murakkablik darajasi o'rtacha o'zlashtiradigan o'quvchilar uchun ikkita (yoki uchta), yaxshi o'qiydiganlar uchun uchta (yoki to'rtta), iqtidorli o'quvchilar uchun esa, to'rtta va undan ko'proq elementlar bo'lishi mumkin. Bunda tarqatma material vazifalarning mazmuni o'quvchilarning fazoviy tasavvurini oshirishga va chizmalarni o'qish malakasini oshirishga mo'ljallangan bo'ladi. Masalan, tarqatma materiallarda quyidagi muammoli vazifalar berilgan bo'lsin: 1–8-sinflarda mehnat ta'limi darslarida rasm chizishga oid o'zlashtirilgan ko'nikma va malakalarni safarbar qilib, chizmada berilgan birinchi murakkablikdagi qattiq jismlarning rasmi bajarilsin. Bunda topshiriq vazifalari oddiydan murakkabga tamoyili asosida tuzildi (2, 3, 4-rasmlar).


Tarqatma materiallardagi vazifalarni baholash jarayonini osonlashtirish uchun 100 ballik reyting hisobida bo'lsa, har bir to'g'ri bajarilgan vazifa uchun 20 ball to'planadi. Agar baholash beshlik tizimida bo'lsa, to'g'ri bajarilgan vazifa uchun 1 baho qo'yiladi.

Quyida murakkablik darajasi bir, ikki va uchta bo'lgan detallar bilan tanishib chiqamiz. Bir elementli, ya'ni birinchi murakkablik darajasidagi detal oddiy geometrik jismlarning o'zidan yasalgan bo'ladi (2-rasm).


Ikkinchi murakkablik darajasidagi detallar ikkita turli geometrik qattiq jismlardan iborat bo'ladi (3-rasm).

Uchinchi murakkablikdagi detallar ham turli geometrik jismlarning kombi-natsiyasidan tashkil topgan bo'ladi. Uch elementli detal ikki elementli detalga yana bitta element kiritish bilan hosil qilinadi. Masalan, prizmaning ustiga silindr

qo'yilib, o'rtasidan silindrik (yoki prizmatik) teshik o'yish bilan yoki boshqacha kombinatsiyalarda yasalishi mumkin (4- rasm).




2-rasm.




3-rasm.

Iqtidorli o'quvchilar uchun to'rt va undan ortiq murakkablik darajasidagi detallarni taklif qilish mumkin (5-rasm).



4-rasm.



5-rasm.

Avval oddiy jismlarning chizmasini bajarishga oid ko'nikma va malakalarni shakllantirish bo'yicha fakultativ darsida, asosiy darsda o'tilgan materiallarni mustahkamlash maqsadida 1- rasmda keltirilgan topshiriqlar berildi. Uni baholash yuqorida ta'kidlanganidek, o'qituvchi rahbarligida o'quvchilar jamoasi bilan o'tkazildi.

So'ngra murakkablik darajasi ortib boruvchi detallarning rasmini chizish orqali o'quvchilarning fazoviy tasavvurini oshirish asosida, detal chizmalarini o'qish qobiliyatini shakllantirish uchun 2-, 3- va 4- rasmdagi vazifa varoqlari berildi.

Shunday qilib, maktab chizmachiligi fakultativ darslarida tushuncha, ko'nikma va malakalarni takrorlash hamda mustahkamlash darslarini tashkil qilib, o'quvchilarning chizmachilik faniga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirish mumkin ekan.

Shuningdek, o'quvchilarning fazoviy tasavvurini oshiruvchi differensiyalash-tirilgan – murakkabligi tabaqalashtirilgan detallar rasmlarini chizish orqali ularning chizmalarini o'qish qobiliyatini shakllantirishga erishiladi.

Xulosa o'rinda shuni aytishimiz mumkinki, yuqorida keltirilgan talablar maktab chizmachiligidan fakultativ darslarini interfaol metodlar asosida tashkil qilish va uni sifatli olib borish uchun zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – T., 1997. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi.
2. Adilov P., Rahmonov I. "Chizmachilik". 9-sinf uchun darslik. – T.: "Sharq", 2004.
3. Rixsiboyev T. va b. Chizmachilikda detal qismlarining murakkablik darajasini aniqlash. "Pedagogik ta'lim" jurnali. 2011-yil. 2-son.

Shukur BURXONOV,
O'zPFITI tadqiqotchisi

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARINI BOSHQARISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Annotatsiya

Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarini boshqarishda axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari to'g'risida fikr yuritilib, muallif olib borgan tadqiqotlari jarayonida olingan natijalarni ilmiy-uslubiy jihatdan tahlil qilish asosida tavsiyalar bergan.

Kalit so'zlar. Uzlüksiz ta'lim, Davlat ta'lim standartlari, axborotlar asosida boshqarish, axborot muhiti, axborot-kommunikatsion texnologiya, yagona axborot tizimi.

В статье рассматривается эффективность управления общеобразовательными школами при применении информационно-коммуникационных технологий. Автор в процессе исследований дает научно-методические рекомендации по управлению общеобразовательными школами.

Ключевые слова. Непрерывное образование, ЗУН, управление с информацией, информационная среда, информационно-коммуникационная технология, информационное общество, единая информационная система.

In clause the management efficiency by comprehensive schools is considered at application of informational-communication technologies.

Key words. Continuous education, ZUN, management of the information, information environment (Wednesday), informational-communication technology, information society (community), uniform information system.

Uzlüksiz ta'lim tizimining bugungi taraqqiyot darajasi uni muntazam ravishda takomillashtirib borilishini talab etmoqda. Natijada sodir bo'layotgan ijobiy o'zgarishlar Davlat ta'lim standart (DTS)lari talablariga ham sifatliy o'zgarishlar qilishga zamin yaratadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarini axborotlar asosida boshqarishda tizimli yondashuv usulidan foydalanish, bunda hosil bo'ladigan axborotlar majmuasini qayta ishlash texnologiyasini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilinishi bilan ta'lim tizimida quyidagicha ta'lim innovatsiyalarini hal qilish zarurati ma'lum bo'lib qoldi:

- xalqimizning boy ma'naviy va intellektual salohiyati va umumbashariy qadriyatlarga suyangan holda ta'limni rivojlantirishning jahon tendentsiyalarini e'tiborga olib DTSni takomillashtirib borish;

- o'sib kelayotgan avlodni ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasida boy milliy madaniy-tarixiy an'analar, xalq urf-odatlar va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy va pedagogik shakllar va manbalarni ishlab chiqish va joriy etish;
- uzluksiz ta'lim tizimida axborot muhitini yaratish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari va kompyuter tarmoqlari bazasida ta'lim jarayonining axborotlar ta'minotini rivojlantirish;
- ta'lim muassasalarida yangi pedagogik texnologiyalarni yaratishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlar salmog'ini kengaytirish va ularni "Ta'lim-fan-amaliy faoliyat" integratsiyasi nuqtai nazaridan ta'lim tizimida joriy etish;
- ta'lim-tarbiya jarayonini turli innovatsiyalaridan foydalanish yordamida mun-tazam ravishda rivojlantirib takomillashtirish.

Bugungi kunda bunday istiqbolli muammolarni hal qilishga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Jumladan, keyingi paytlarda pedagogik adabiyotlar va ma'ruzalarda ta'limda yangi axborot texnologiyalari, yangi pedagogik texnologiyalar, ta'limda innovatsion texnologiyalar kabi iboralar ko'plab uchramoqda. Bu qayd etilgan texnologiyalar aniq ta'riflanib bitta tizimga keltirilmagan, ammo barchasidan ko'zlangan maqsad rivojlangan axborotlar bazasidan keng foydalangan holda ta'limda sifat o'zgarishlar qilishga qaratilgan.

Ta'lim samaradorligiga erishish maqsadida amaliyotda qo'llanilayotgan barcha yangi axborot va pedagogik texnologiyalari ta'lim muassasasini boshqarishda rahbar faoliyati diqqat markazida turishi ta'lim samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Bugungi kunda axborot texnologiyalari jarayonlarni boshqarishdagi asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Insoniyatning axborot ishlab chiqarish bo'yicha imkoniyatlarini kuchaytiruvchi zamonaviy texnologiyalar, axborotlashgan jamiyatning intellektual salohiyati sifatini belgilaydi. Ular maktab rahbari tomonidan (boshqarish uchun kirish) tayyorlangan ma'lumotlarni tizimlarga ajratish va qayta ishlash hamda kerakli maqsadlar bo'yicha qayta ishlangan ma'lumotlarni uzatish algoritmini o'z ichiga oladi. Shuning uchun ham axborot texnologiyalaridan ratsional foydalanish rahbarning boshqarish sohasidagi mehnatini yengillashtiradi.

Tadqiqotimiz jarayonida o'tkazilgan tajriba-sinov natijalaridan ma'lum bo'ldiki, maktab rahbarlari qanchalik boshqaruv sir-asrorlarini bilishlari qatorida pedagogik jamoani ilmiy asosda boshqarish, ta'lim-tarbiya samaradorligiga erishish uchun axborot-kommunikatsion texnologiyalarini ham mukammal o'zlashtirishlari zarur ekan. Buning uchun rahbarning nafaqat kasbiy mahorati balki, yuqori texnologik savodxonlikka ega bo'lishi ham zamonaviy ta'lim tizimini boshqarishda yetakchi omil bo'lib xizmat qiladi. Shu o'rinda Toshkent shahar, Toshkent va Sirdaryo viloyatlari maktablarida direktorlarning boshqaruv sohasidagi axborot texnologiyalaridan foydalanish, axborot-kommunikatsiya madaniyatlarining rivojlanganlik darajalari tahlil etilganda bu narsa yaqqol ko'zga tashlandi. Ko'pgina maktab rahbarlari zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan mukammal foydalana olmaydilar. Ayniqsa, ularda texnologik savodxonlik juda past darajada, kompyuter orqali axborotlarni qabul qilish, qayta ishlash va saralash, ijrochilarga uzatish, monitoringini olib borish singari boshqaruv tizimida muhim hisoblangan mexanizmlar samarali ishlamaydi. Oqibatda bunday maktablarda ta'lim-tarbiya, moliyaviy-xo'jalik faoliyati, pedagogik jamoani bir maqsad sari yo'naltirishda jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'yilmoqda.

Axborot texnologiyalari asosida faoliyat ko'rsatish quyidagi vazifalarni hal etishning optimal yo'lini ta'minlab beradi: manba va unda ketayotgan jarayon to'g'ri-

risidagi ma'lumotlarni muntazam olib turish va ular asosida oraliq nazoratlar olib borish, ixtiyoriy joriy so'rovlarga o'sha paytning o'zida javob olish, rasmiylashtirish va boshqarishga kerakli tuzatishlar kirita olish.

Demak, bugungi kun axborotlashtirilgan jamiyat sari dadil qadam qo'yib borilishi bilan o'ziga xos xarakterlidir. Shuning bilan birga axborotlashtirish axborot jarayonlarini rivojlantirish vosita va sharoitlarining butun majmui bo'lib, tegishli texnik bazani yaratish, tashkiliy iqtisodiy islohotlarni ishlab chiqishni o'z ichiga oluvchi kompyuterlashtirishga kengroq yondashishni nazarda tutadi. Shu asosda turli ijtimoiy tizimlar faoliyat yuritishining axborotli asoslari yaratiladi, qog'ozli axborotning yo'l qo'yadigan doiralardagi faoliyat "odam-kompyuter" muloqotli tizim bilan almashtirilishi, insonlar faoliyatidagi yangi axborot tizimlarini yaratishga imkon beradi. 1970 yillargacha kompyuterlashtirish keng rivoj topmaganligi sababli ham jamiyatni axborotlashtirish hayotiy ehtiyoj emas edi. Beshinchi avlod EHMLarining paydo bo'lishi, bu sohadagi ishlarni jonlantirib yubordi. Endigi hayot nafaqat axborotlar, axborot texnologiyalari, balki axborot tizimlarini yaratishni taqazo etib qoldi. Ulardan bilimlar bazasi, vazifalar, mantiqiy xulosalarni yechuvchi mashina kabi xizmat tizimlarini o'z ichiga olishini talab qilmoqda. Bu talablarni hal qilish esa ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarga bog'liqdir.

Bugungi kunda biz yashab, faoliyat olib borayotgan jamiyatimiz axborot jamiyati deb atalmoqda. Demak, bunda hisoblash texnikasi va aloqa vositalarining keng rivojlanishi katta hajmdagi axborotlarni tezkorlikda yig'ish, saqlash va qayta ishlash va uzatish imkoniyatlari yaratildi. Axborot texnologiyalari va ulardan oqilona foydalanish tufayli insonni ishlab chiqarish va ishlab chiqarish faoliyati, uning kundalik muloqot sohasi, dunyo sivilizatsiyasi ishlab chiqqan tajriba va ma'naviy qadriyatlarni jalb etish hisobiga kengaymoqda. Axborotlashtirish faqatgina fan va texnikaning yutug'i bo'lib qolmay, balki, ular ta'lim-tarbiya, tibbiyot, iqtisodiyot, qishloq xo'jaligi, sanoat va shu kabi sohalarning rivojlanishida omil bo'lmoqda. Ayniqsa, hozirgi hisoblash texnikasi va aloqa vositalari asosida axborotlarni to'plash, saqlash va kerakli manbalarga uzatishning zamonaviy usullari – kompyuterlashtirilgan usullari, yangi axborot texnologiyalari paydo bo'ldi.

Bu yangi axborot texnologiyalari, axborotlarni qabul qilish, qayta ishlash bilan shug'ullanadi va natijada yangi (foydalanuvchiga kerakli ko'rinishda) axborotlarni kompyuterlar yordamida ishlab chiqadi. Umuman olganda, yangi axborot texnologiyasi deganda qandaydir yaratish faoliyatini amalga oshiruvchi kompyuterlar va unda joriy etilgan dasturiy ta'minot nazarda tutiladi.

Zamonaviy ta'lim tizimi, uning maqsadi va vazifalari, respublikamiz taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ta'lim-tarbiya oldiga qo'yilgan muammolar yechimiga mos bo'lishi kerak. Jahon miqyosida hukm surayotgan fan-texnika taraqqiyoti, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarish va uni kelajagini belgilab berishdagi kishilar intellektual salohiyati haqidagi axborotlar nihoyatda muhimligini ko'rsatmoqda. Shuning bilan birga dunyo bo'yicha ilm-fan rivojining bugungi holati, ayniqsa, bu boradagi zamonaviy axborot texnologiyalari keng joriy etilgan jamiyatda turli fan sohalarda bilimlarning tez yangilashib borishi, ta'lim oluvchilar oldiga ularni jadal egallash bilan bir qatorda, muntazam va mustaqil ravishda bilim izlash vazifasini qo'ymoqda.

Bunday vazifalarni hal qilishga bugungi kunda amaliyotda keng qo'llanilayotgan ta'limni texnologiyalashtirish va ular asosidagi ma'lumotlarni, axborotlarni to'plash, saqlash va kerakli manbalarga uzatishning zamonaviy usullari – kompyuterlashtirilgan

usullari, yagona axborot tizimi (YaAT) paydo bo'ldi. Bu YaAT, axborotlarni qabul qilish va qayta ishlash bilan shug'ullanadi va natijada yangi (foydalanuvchiga kerakli ko'rinishdagi) axborotni kompyuterlar yordamida ishlab chiqiladi. Umuman olganda, YaAT deganda qandaydir yaratish faoliyatini amalga oshiruvchi kompyuterlar va unda joriy etilgan dasturiy ta'minot nazarda tutiladi va undan amaliyotda samarali foydalanishga keng imkoniyatlar yaratadi.

Bu borada olib borgan tadqiqotlarimiz va ulardan ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarishda foydalanish istiqbolli pedagogik samaralarni berishligini ko'rsatdi va ular asosida o'qitishni boshqarishning zamonaviy usullarni ishlab chiqishga erishildi.

Bu o'rinda zamonaviy texnologiyalarni tadqiq etishda, avvalo, quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- qaralayotgan hodisa va jarayonni ifodalovchi ma'lumotlari to'plamini aniqlash;
- o'rganilayotgan manbaga qarab ta'lim maqsadi va mazmun-mohiyatini aniqlash;

- qo'yilgan maqsadga muvofiq holda tadqiqot vazifalarini aniqlab chiqish;
- maqsadga erishish uchun tanlangan tizimlar orasidagi bog'lanishlarni tahlil qilish va tadqiqot vazifalariga erishishda ulardan foydalanish mezonlarini ishlab chiqish;

- maqsadga erishishning algoritmik tizimini ishlab chiqish va uni joriy etishda zamonaviy kompyuterlardan foydalanish;

- maqsadga erishishda faoliyat turlarini aniqlab, shu asosda ta'limni texnologiyalashtirishning dastlabki natijalarini loyihalashtirish lozim va bu jarayonni maqsadga erishishga qadar davom ettirish;

- ta'limni texnologiyalashtirish davomida teskari aloqa vositalaridan samarali foydalanish natijasida jarayon kechishini muntazam nazorat qilib borish va tegishli paytlarda rostlash ishlarini ham olib borish;

- olingan natijalarni ilmiy-uslubiy jihatdan tahlil qilish asosida ishlanmalardan amaliy hayotda foydalanishga uslubiy tavsiyalar va ko'rsatmalarni tayyorlash.

Ta'kidlash o'rinliki, umumiy o'rta ta'lim maktab direktorlari o'zlarining boshqaruvchilik faoliyatlarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan amaliyotda keng foydalana olish qobiliyati va imkoniyatlariga ega bo'lishlari o'zlarining boshqaruvchilik sohasidagi mehnat samaradorligiga erishish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axlidinov R.Sh. *Maktabni boshqarish san'ati*. – T.: “Fan” nashriyoti, 2006.
2. To'raqulov X.A. *Pedagogik tadqiqotlarda axborot tizimlari va texnologiyalari*. – T.: “Fan” nashriyoti, 2006.
3. Воробьев Г.Г. *Твоя информационная культура*. – М.: Молодая гвардия, 1988. – С. 303.
4. Гришина И.В. *Управленческая деятельность директора школы*. СПб. унив.-т, 1998. – С. - 98.
5. Гришина И.В., Чекин И.А. *Информационная культура руководителя школы: Учебное пособие* - СПб .Специальная литература, 1999. – С.112.

Sadoqat RAJABOVA,
Lochin ZARIPOV,
Nizomiy nomidagi TDPU o'qituvchilari

MEHNAT TA'LIMI DARSLARIDA O'QUVCHILARDA IJODKORLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH ORQALI DIZAYNERLIK KASBIGA YO'NALTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada mualliflar mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish orqali zamonaviy dizaynerlik kasblariga bo'lgan moyillikni shakllantirishga oid ma'lumotlarni misollar orqali ochib bergan. Shuningdek, boshlang'ich sinf mehnat ta'limi mashg'ulotlarida o'quvchilarga oddiy qog'oz, yelim, plastilin, o'simlik mevasi urug'lari, danaklar va ularning po'stlog'i, tuxumlardan foydalanib turli xil buyumlar yasashni o'rgatish orqali ulardagi qobiliyatlarni rivojlantirish muhim.

Kalit so'zlar. Ijod, kasb, loyihalash, modellash, dizayn, texnologiya, konstruksiya, qobiliyat, estetika.

В статье рассматриваются вопросы формирования у обучаемых мотивации к дизайнерским профессиям на уроках трудового обучения. Авторами предлагаются использование современных педагогических технологий по профессиональной ориентации на уроках трудового обучения и пути совершенствования творческих талантов.

Ключевые слова. Творчество, профессия, проектирование, моделирование, дизайн, технология, конструкция, одаренность, эстетика.

The article describes about the concepts of design professions and the formation of modern professions design lessons of labor studies at improving the creative talents of students.

Key words. Creativity, designing, technique, technology, construction, capability, aesthetics.

Bugungi kunning asosiy talabi malakali kadrlarni tayyorlashdan iboratdir. Biz tarbiyalayotgan kadrlar tirishqoq, talabchan, izlanuvchan, yangilikka intiluvchan bo'lmas ekan, biz kelajakka ildam qadam tashlay olmaymiz. Buning uchun hozirgi zamon yoshlari yaratuvchan, ijodkor shaxslar bo'lmog'i lozim. Bu ko'nikma va malakalarni o'quvchilar umumiy o'rta ta'lim maktablaridayoq egallashlari zarur. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshqa fanlardan farqli ravishda mehnat ta'limi mashg'ulotlarida o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishda katta imkoniyatlar mavjud. Sababi, mehnat ta'limi mashg'ulotlarida nazariy ta'lim amaliy ta'lim bilan uzviy bog'lab olib boriladi. Bu o'quvchilarning mustaqil ishlashini, imkoniyat darajasida o'z qobiliyatini namoyon etishini ta'minlaydi. O'quvchilar mashg'ulotlar davomida o'zlari yaratgan buyumlarni ko'rib quvonadi, yonidagi sinfdoshlari yasagan

buyumlar bilan taqqoslaydi, yutug'idan mag'rurlanadi, kamchiligi bo'lsa to'g'rilaydi. Bu esa, o'quvchilarni mustaqil shaxs sifatida kamol topishi uchun ilk qadam bo'ladi.

Boshlang'ich sinflarda mehnat ta'limi mashg'ulotlarida o'quvchilar oddiy qo'oz, yelim, plastilin, o'simlik mevalari urug'lari, danaklar va ularning po'choqlari, tuxumlardan foydalanib turli xil buyumlar yasaydi. Boshlang'ich sinfdan 5-sinfga o'tgach esa mehnat ta'limidagi mashg'ulotlar murakkablashadi, ya'ni materiallarga ishlov berish yo'li bilan buyumlar yasaladi. Masalan, yog'ochga, metallga, gazlamaga ishlov berish texnologiyasini qolaversa, pazandachilik va qishloq xo'jaligi asoslarini ham puxta o'rganishlari lozim bo'ladi. Bundan tashqari milliy hunarmandchiligimizning ham sir-asrorlarini o'rganib boradilar.

5-sinfga o'tgan o'quvchilar ancha qiziquvchan, intiluvchan bo'ladilar. Ammo ular boshlang'ich sinfdan o'qituvchi fikriga tobe holda bilim olganliklari uchun hamma hollarda ham o'z fikrlarini aniq bildirsa olmaydi. Shuning uchun o'qituvchilar jamoasi mana shu 5-sinf o'quvchilariga katta e'tibor qaratishlari, ta'lim berish jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda mustaqil fikrlashga o'rgatishlari lozim. Ayniqsa, mehnat ta'limi darslarida bunga alohida e'tibor qaratilishi lozim. O'quvchilar materiallarga ishlov berish jarayonida buyumlarni loyihalash, madallashtirish ishlarini bajaradi. Bolalar uchun yangi bo'lgan buyumlarning loyihasini yaratish bo'yicha o'quvchilarning ishlarini tashkil qilishning eng keng tarqalgan shakllari quyidagilar:

1. O'qituvchi ko'rsatmasi ostida loyihalash. O'qituvchi navbat bilan detallar loyihalarini ko'rsatadi, ularning tayyorlanishi va birlashtirish usullarini, mahsulotga ishlov berish tartibini namoyish etadi. O'quvchilar reproduktiv faoliyat bilan shug'ullanadilar.

2. O'xshashi bo'yicha loyihalash. O'quvchilar o'qituvchi rahbarligi ostida mahsulotni tayyorlaganlaridan so'ng ularga loyiha bo'yicha shunga o'xshash mustaqil loyihani yoki murakkabroq, ammo ushbu konstruksiyaga o'xshash mahsulotni loyihalash taklif etiladi.

3. Namuna bo'yicha loyihalash. O'quvchilar namunaviy konstruksiyani tahlil qiladilar, u qanday detallardan tashkil topganini aniqlaydilar, alohida operatsiyalarni bajarish, mahsulotni yig'ish va ishlov berish tartibi hamda usullarini aniqlaydilar.

4. Shartlar bo'yicha loyihalash. Loyihalarning bu turida bolalarga namuna va tayyorlash usullarini bermasdan faqat kompozitsiyaning mos bo'lishi uning amaliy vazifasini ifoda etuvchi shartlarga beriladi.

5. O'z fikri bo'yicha loyihalash. Bu loyihalash o'quvchilar ilgari o'zlashtirgan uslublarni qo'llagan holda mahsulotni loyihalash bo'yicha topshiriqni mustaqil o'rganib chiqishga asoslanadi.

Bunday vaziyatlarda o'quvchilardan mustaqil fikrlash, mustaqil ishlay olish, ijodkorlik talab qilinadi. O'quvchilar o'zlari yaratayotgan buyumlarini kundalik hayotdagi o'rni, ahamiyati, yaratishdan maqsadi, uni takomillashtirish masalalari yuzasidan ham mustaqil fikr yuritishlari lozim. O'quvchilar yuqori sinflarda murakkab buyumlarni loyihalash va modellashtirishda olgan bilim, ko'nikma va malakalari yordamida mustaqil ijod qiladi. Bu esa kasb-hunar ta'limini oliy ta'lim bilan integratsiyalash vazifasini o'taydi va o'quvchilarni ijodkorlik faoliyatiga tayyorlashga zamin yaratadi.

O'quvchilarni ijodkorlik faoliyatiga maqsadli tayyorlash muammosi murakkab, ko'p qirrali hamda ijodkorlikning turli jihatlarini bilan bog'liqdir.

Psixolog K.V.Kudryavsevnin fikricha, texnik tafakkur texnik ijodkorlikning asosini tashkil etadi. U texnik tafakkurning masala shartini anglash yoki tushunish, uni xayolan tasavvur qilish va amalda bajara olish qobiliyatlaridan iborat, deb hisoblaydi.

Demak, yuqoridagi fikrlarga asoslanib, shuni aytish mumkinki, ijodiy faoliyat natijasi bolalar va kattalardagi tafakkur doirasiga bog'liq ekan. Tafakkur doirasi qancha keng bo'lsa, mustaqil bo'lsa, ijodkorlik ham, ijodiy faoliyat ham shuncha yuqori saviyada bo'ladi.

O'quvchilardagi ijodkorlik qobiliyatini shartli ravishda uch xil darajaga bo'lish mumkin.

1. Quyi daraja. Bunda o'quvchilar tomonidan topiladigan yangiliklar, asosan, subyektiv ko'rinishda bo'ladi. Ya'ni bunda o'quvchilar ilgari ma'lum bo'lgan yangiliklarni boshqatdan kashf etadilar. Natijada bu yangilik faqat shu o'quvchining o'zi uchun yangilik bo'ladi. Biroq bu jarayon ham oson kechmaydi. Chunki mazkur jarayonda ham o'quvchi kuchli psixologik holatlarning mohiyatini tushunish, anglash, tasavvur etish, masala yechimini qidirish, ayrim yechimlarni taqqoslash kabi jarayonlarni boshidan kechiradi. Shu sababli, garchi, natija ilgari ma'lum bo'lsa ham, aynan shu natijaga kelishning o'ziyoq o'quvchida kelgusida uni ob'ektiv ijodiy faoliyatga o'tishi uchun zamin vazifasi bo'lib xizmat qiladi.

2. O'rta daraja. Bunda o'quvchilar tomonidan topilgan yangiliklar ham subyektiv, ham obyektiv ko'rinishlarda bo'ladi. Ya'ni bu darajaga erishgan o'quvchilarda yangilik yaratish usullarini bir muncha yaxshi egallanganlik, yangilik yaratish sohasida bir muncha tajribalar hosil to'plangan holatlarni kuzatishimiz mumkin. Shu darajaga erishgan o'quvchilarga kelgusida yaxshi e'tibor berilsa, ularning ijodkorlik qobiliyatlari yanada rivojlantirilsa, ular ayrim qiyinchiliklarni yengib o'tib, uchinchi, ya'ni eng yuqori darajaga chiqa oladilar.

3. Yuqori daraja. Bunda o'quvchilarning topgan yangiliklari asosan, obyektiv ko'rinishda bo'ladi. Biroq bu darajaga erishish oson emas. Buning uchun avvalo, o'quvchining o'zida intilish, qiziqish bo'lishi, o'qituvchi esa buni o'z vaqtida payqay olishi hamda o'quvchining ijodkorlik qobiliyatini o'stirish tadbirlarini amalga oshirib borishi kerak.

Mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarning ijodiy ishlarini tashkil etish va faollashtirishda dizayn, ya'ni texnik estetika yoki badiiy konstruktorlik elementlaridan foydalanish ham yaxshi natijalar beradi. Chunki did bilan, chiroyli va bejirim qilib ishlangan buyumlar o'quvchini zavqlantiradi, o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi.

Buyumlarni did bilan chiroyli, bejirim qilib tayyorlashning sirini anglashda xalqimizning amaliy san'atiga oid bo'lgan qadimiy va boy merosini o'rganish lozim. Ma'lumki, xalqimiz qadimdan naqqoshlik, yog'och va ganch o'ymakorligi, me'morchilik kulolchilik, miskarlik, kandakorlik, zargarlik, zardo'zlik kabi milliy amaliy san'ati bilan dunyoda mashhur bo'lgan. Bunga respublikamizda hozirgacha saqlanib kelayotgan muhtasham binolar, turli xil bezakli buyumlar, taqinchoqlar va shu kabi narsalar eng ishonchli dalil, yaqqol misol bo'la oladi. Bu bilan xalqimizning azaldan ijodkor shaxs bo'lganini ko'rishimiz mumkin. Ajdodlarga mos avlodni tarbiyalash, xalq milliy amaliy

san'atini zamonaviy uslubda tiklash, va ijodkor kishilarni tayyorlashda mehnat ta'limi fani katta ahamiyatga ega.

O'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlari rivojlanib borishi bilan ularda dizaynerlik qobiliyati elementlari shakllana boradi. Ijodkorlik qobiliyati yuqori bo'lgan o'quvchilarda, dizaynerlik kasbiga bo'lgan moyillik mavjudligini ko'rish mumkin. Dizaynerlik kasb egalarining vazifalari mahsulotlarning zamonaviy, yanada sifatli, qulay, chiroyli va boshqa korxonalar tomonidan ishlab chiqariladigan shu kabi mahsulotlarga qaraganda yanada arzon konstruksiyalarini yaratishdan iborat.

Dizayn (inglizcha “design”-“loyiha”, “chizma”, “rasm”, so'zidan olingan) narsalar muhitini estetik va funktsional sifatlarini shakllantirishga qaratilgan loyihalash faoliyati turlaridan biridir.

Dizayn o'zida ikki jihatni birlashtiradi:

- utilitar, texnik mukammallikni, texnologik maqsadga muvofiqlik, iqtisodiy va ergonomik samaradorlikni nazarda tutuvchi, amaliy hayotiy talablarni qondiruvchi;
- estetik, ijobiy emotsiyalarni, estetik ifodalaganlik, badiiy obrazlilik, mazmun-dorlikni muhit ehtiyojini aks ettiruvchi.

Dizayn faoliyati tarkibiga keng iste'mol buyumlari, mashina, dastgoh, kiyim, ishlab chiqarish, jamoat va turar joy binolarini jihozlash, mebel, shu jumladan reklama ham kiradi. Mamlakatimizda ham dizaynerlik jadallik bilan rivojlanmoqda. Shularni e'tiborga olgan holda mehnat ta'limining uzviylashtirilgan davlat dasturiga “Texnologiya va dizayn” yo'nalishi kiritilgan. Mamlakatimizning qator kasb-hunar ta'lim muassasalarida interyerlar va sanoat grafikasi, libos dizayni, kompyuter grafikasi va dizayn faoliyatining boshqa turlari bo'yicha mutaxassislar tayyorlash yo'lga qo'yilgan. O'quvchilarni bu kasblarga yo'naltirishda mehnat ta'limi fani o'qituvchisining o'rni beqiyosdir. Chunki o'quvchidagi dizaynerlik kasbiga bo'lgan qiziqish yoki qobiliyatni mehnat o'qituvchisi o'z vaqtida aniqlab, bu kasb olamiga o'quvchini olib kirish, qiziqishini oshirish, kasbga doir ma'lumotlarni yetkazish va shu bilan bir qatorda kasbning jamiyat va ijtimoiy hayotda tutgan o'rnini belgilab berishi lozim. Kasb-hunar kollejlari o'tkaziladigan ochiq eshiklar kuni, talabalar yaratgan buyumlar namoyishlari, san'at haftaligi va shunga o'xshash ko'rgazmalarda o'quvchilarning ishtirokini ta'minlash ushbu kasbga bo'lgan qiziqishlarini barqarorlashuviga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, bizni qurshab turgan olamning badiiy estetik mohiyatini belgilab olishdan iborat murakkab ilmni o'zlashtirish aynan umumiy o'rta ta'lim maktabidan boshlanadi. Shuning uchun ham maktabni isloh qilishning asosiy yo'nalishlaridan biri yosh avlodga badiiy ta'lim berish va uni estetik ruhda tarbiyalashni yaxshilash masalalariga katta e'tibor berishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimova G., Kamilova X. *Reklama va dizayn.* – T., 2012
2. Karimov I. *Mehnat ta'limi o'qitish texnologiyalari O'quv-uslubiy qo'llanma* – T., 2013.
3. Jo'rayev R., Mardonov Sh. *Mehnat ta'limi darslarida badiiy konstruktorlik faoliyatini tashkil qilish. Maktab va hayot.* -2012. № –7-8-24 b.

Xamrokul SANAKULOV,
Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti,
Manzura RUSTAMOVA,
Nizomiy nomidagi TDPU o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI MEHNAT TA'LIMI DARSLARIDA KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH TEXNOLOGIYASI

Annotatsiya

Mazkur maqolada mehnat darslarida o'quvchilarga kasblar haqida dastlabki ma'lumotlarni berish va ularni turli kasblarga yo'naltirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samarali yo'llari haqida fikr yuritiladi. Mualliflarning ta'kidlashlaricha, boshlang'ich sinfdan boshlab o'quvchilarni kasbga yo'naltirishda, avvalo, shu davrga xos bo'lgan yosh xususiyatlari inobatga olinsa, mashg'ulotlar samarali bo'ladi.

Kalit so'zlar. Boshlang'ich ta'lim, mehnat, kasb-hunar, motiv, texnologiya, innovatsiya, texnik vosita, jihoz, amaliy ish.

Статья посвящена проблеме профессиональной ориентации учащихся общеобразовательных школ. Авторы рассматривают совокупность факторов, опосредующих использование на уроках труда передовых педагогических технологий по профессиональной ориентации учащихся начальных классов. Приводятся примеры эффективных результатов использования педагогических технологий при ознакомлении трудовой деятельностью различных профессий при профессиональной ориентации учащихся начальных классов.

Ключевые слова. Труд, профессия, начальное образование, ученик, мотив, технология, инновация, технические средства, практическая работа.

This article is devoted to the effective ways of using pedagogic technologies and effective results of teaching professional orientation to the primary school pupils.

Key words. Labour, job, elementary education, teacher, subject, technology, innovation, purpose, moment, aim, equipment, practical work.

Jamiyatimizning barcha sohalarida o'zgarish bo'lgani kabi ta'lim tizimida ham tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, xalq ta'limining asosiy va muhim bo'g'ini hisoblangan boshlang'ich ta'limni takomillashtirish hamda uning kadrlar tayyorlashdagi rolini oshirish hozirgi kundagi muhim vazifalardan biriga aylandi. Bu vazifalarni amalga oshirishda pedagog o'qituvchilar zimmasiga, yoshlarga ta'lim-tarbiya berishning usullarini takomillashtirish, mashg'ulotlar jarayonida ta'lim-tarbiya berish bilan bir qatorda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, ta'lim samaradorligini oshirishning dolzarb muammolari to'g'risida izlanishlar olib borish vazifasi yuklanadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf mehnat ta'limi darslarida ta'lim

texnologiyalaridan samarali foydalanib o'quvchilarga kasb-hunar haqida ma'lumot berish, ularning kelajak faoliyati uchun zarur bo'lgan sevimli kasb-hunar egalari bo'lishiga zamin yaratish asosiy manba sifatida xizmat qilmog'i lozim. Darhaqiqat, hozirgi kunda o'quvchilarning yuqori kasbiy tayyorgarlikka, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga, mafkura borasida chuqur bilimlarga ega bo'lishlarida ilg'or pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanishlari davr talabidir. Boshlang'ich sinflarda mehnat ta'limi darslari o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda muhim omil sifatida xizmat qiladi. Chunki, mashg'ulotlar jarayonida ish turlari bo'yicha beriladigan bilim o'quvchilarni kasb-hunar tanlashga qiziqitirish, kasblar to'g'risida ma'lumotlar berish, ularning qiziqishi va moyilliklarini uyg'otish, kasb-hunar tanlash motivlarini shakllantirishga qaratiladi. Buni quyidagi dars misolida ko'rish mumkin.

Qog'ozni buklash usulida o'qituvchi uchun amaliy tavsiyalar

Qog'ozni oddiy va murakkab usullarda buklash. Qog'ozni oddiydan murakkab usulda buklab, buklash chiziqlari va burchaklar hosil qilish. Buklash chiziqlari orqali har xil maketlar yasash (baliqcha, stakan, kuchukcha, pigvincha, quyoncha, sichqoncha, qayiqcha, xo'tikcha, lola, qo'ziqorin, savatcha, tuzdon, qurbaqa, oqqush, soyabonli shapka, qaldirg'och).

Ish joyini to'g'ri tashkil etish talablari

O'qituvchi stolning ustiga skater yoki dasturxon yozib, o'ng tomoniga qaychi, yelim uchun cho'tka, chizg'ich, qalam, o'chirg'ich joylashtiriladi. O'quvchini old tomoniga yelim, qiyqimlar uchun quticha va latta joylashtiriladi. O'quvchining chap tomoniga, ish vaqtida xalaqit bermaydigan qilib rangli qog'oz to'plamini, qog'oz to'plamini va kerakli materiallar joylashtiriladi. Ish jarayonida sanitarik-gigiyenik talablarga va ish qurollaridan foydalanish qoidalariga rioya etish kerak.

Darsning texnologik xaritasi

Darsning maqsad va vazifalari	Ta'limiy maqsad: o'quvchilarga suvda va quriqlikda yashovchi hayvonlar (baliqcha, kuchukcha) haqida tushuncha berish. Qog'ozni buklash usulida baliqcha va kuchukcha shaklini yasashni o'rgatish. Tarbiyaviy maqsad: hayvonlarga ozor bermaslik, mehnat darslarida xavfsizlik qoidalariga rioya qilishni tarbiyalash. Rivojlantiruvchi maqsad: qog'ozni buklash asosida qurish-yasash ko'nikmalarini rivojlantirish. Kasb turlari haqida ma'lumot berish va qiziqishni shakllantirish.
Darsning jihozlari	Ko'rgazmali vositalar: baliqcha, kuchukcha maketini qurish-yasash bosqichlaridan namunalar, slaydlar. Ish jihozlari: rangli qog'oz to'plami, qaychi, qalam, chizg'ich, yelim, latta.
Dars jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	Uslub: og'zaki bayon qilish, tushuntirish, tahlil qilish, ko'rgazmalilik, "Aqliy hujum", amaliy ish. Shakl: amaliy mashg'ulot Baholash: Rag'batlantirish, 5 ballik tizimda baholash

Dars jarayonini amalga oshirish bosqichlari Natija:	Tashkiliy qism: Darsga hozirlik ko'rish Uy vazifasini tekshirish Asosiy qism: Aqliy hujum Yangi mavzu bayoni Amaliy ish Kasbga oid ma'lumot berish Yakuniy qism: O'quvchilar bilimini aniqlab, baholash Uyga vazifa berish	10 daqiqa 3-minut 7-minut 28 daqiqa 5-minut 3-minut 15-minut 5-minut 7- daqiqa 5-minut 2-minut
---	--	--

Tashkiliy qism

- salomlashish;
- davomatni aniqlash;
- uy vazifasini tekshirish;
- ish joyini tayyorlash (kerakli ish qurollari va materiallari bilan ta'minlash).

Asosiy qism "Aqliy hujum" usuli:

- qog'ozdan nimalar yasash mumkin?
- qog'oz turlarini sanab bering?
- baliq qaysi oilaga mansub?
- it turlarini bilasizmi?
- baliq va itlar nimalar bilan oziqlanadi?

Mavzuga oid ma'lumotlar

Tabiatda turli-tuman suv ostida yashaydigan hayvonlar bor. Ulardan biri baliqlardir. Ularning turli xillari mavjud bo'lib, uyda parvarish qilish ham mumkin. Baliq mahsulotlari inson salomatligi uchun foydali hisoblanadi.

Amaliy ish bosqichlari (baliqcha)


1. Kvadrat shaklidagi rangli qog'oz olinadi va uch qismga ajratib buklanadi.

2. Hosil bo'lgan kvadrat to'g'ri to'rtburchak va to'rtburchak shaklida buklanadi.

3. So'ngra hosil bo'lgan shaklning to'g'ri to'rtburchak qismi ko'pburchak shakliga keltiriladi.

4. To'rtburchak va to'g'ri to'rtburchak shakllari uchburchaklar shakliga keltirib buklanadi;

5. Hosil bo'lgan baliq shaklini ko'z qismi chiziladi, qanoti va dum qismlari tekislanadi.



Baliqcha maketini yasash

Belgilar o'rniga harflarni qo'yib baliq tutuvchi kasb nomini toping?

A	B	V	G	E	J	Z	I	Q	L	M	N	O	R	S	T	U	X	CH	K

Baliqchi fursat kutar,
 Baliqchi baliq tutar.
 Baliq tutish vaqti bor
 Bunga berar e'tibor.
 Tashlar qarmoq yoki to'r
 Ov bo'lishi uchun zo'r.
 Izlar baliq ko'p joyni
 Daryo, ko'l yoki soyni.
 Qayiqda daryo kezar
 Yaxshi ov joyin sezar.
 To'rga tushganda baliq
 Qayiqqa solar darrov.

KUCHUKCHA MAKETINI YASASH


– kvadrat shaklidagi rangli qo'g'oz olinadi va uchburchak shakliga keltirib buklanadi;

– hosil bo'lgan uchburchakning ikkita burchagi buklanib, uchburchak va kvadrat hosil qilinadi;

– hosil bo'lgan shaklning yuqori qismi orqa tarafga qisman buklanadi;


– so'ngra hosil bo'lgan shaklning pastki qismi ya'ni burchakning uchi orqa tarafga qisman buklanadi;

– kuchukcha maketining tana qismi chizib qirgiladi. Bosh tanasi qismiga tumshug'i va ko'zlari chizildi. Kuchukcha maketi tayyor.



Harflarni kataklarga shunday joylashtirinki, unda birinchi ustunda kasb nomi va ikkinchi ustunda vazifasi kelib chiqsin.

Oʻ	L	O	G	CH
I	N	I	R	
K	O	T	A	
U	T	V	G	



Javobi:

1-ustunning javobi: kinolog (Kinolog bu it oʻrgatuvchi)

2-ustunning javobi: it oʻrgatuvchi

Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki, boshlangʻich sinf mehnat darslarida oʻquvchilarga amaliy ishlarni oʻrgatish bilan bir qatorda kasb-hunar toʻgʻrisida maʼlumot berish, kasb-hunarga yoʻnaltirishda taʼlim texnologiyalaridan oʻrinli foydalanish koʻzlangan maqsadga olib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mavlonova R., Toʻrayeva O., Xoliqberdiyev K. *Pedagogika. Darslik*. Toshkent: "Oʻqituvchi", 2010-yil.
2. Yoʻldoshev J.Gʻ. *Zamonaviy pedagogik texnologiyalar*. – T.: "Fan va texnologiyalar", 2010-yil.
3. Ergasheva Sh. va boshqalar. *Kasblar alifbosi. (1-4-sinflar uchun oʻquv qoʻllanma)*. "Yurist-media markazi". – T., 2008-yil.
4. Sanaqulov X., Xodiyeva D., Sanaqulova A. *"Mehnat taʼlimi" 2-sinf uchun darslik*. – T.: "Sharq", 2012-yil.
5. Sanaqulov X., Xodiyeva D., Sanaqulova A. *"Mehnat taʼlimi". 3-sinf uchun darslik*. – T.: "Sharq", 2012-yil.
6. Davlatov K. *Mehnat va kasb taʼlimi tarbiyasidan amaliy mashgʻulotlar*. Toshkent: "Oʻqituvchi", 1995-yil.

Anvar MAVLONOV,
Namangan viloyati PKQTMOI rektori v.b.
Nasiba ORZIKULOVA,
Namangan viloyati PKQTMOI prorektori

MALAKA OSHIRISH TIZIMIDA SIFAT VA MAZMUNGA ERISHISHNING MUHIM JIHATLARI

Annotatsiya

Maqolada pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimida sifat va mazmunga erishishda o'qituvchilar kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalari ko'rib chiqilgan. Mualliflar fikricha, bunda pedagogik texnologiyalardan foydalanishni samarali ta'minlash hamda o'quv jarayonida izchillik, ilmiylik, g'oyaviylik prinsiplariga amal qilish lozim.

Kalit so'zlar. Malaka oshirish tizimi, sifat, mazmun, kasbiy kompetentlik, kommunikativ vositalar, tinglovchi, malaka, ko'nikma, tajriba.

В статье рассматриваются особенности повышения качества и содержания системы повышения квалификации. Предлагается концепция организации повышения квалификации педагогов в соответствии с государственными требованиями и развитие современных педагогических принципов, а также достижение единства теории с практической деятельностью, которая по мнению авторов будет гарантировать эффективность процесса повышения квалификации.

Ключевые слова. Система повышения квалификации, качество и содержание, профессиональная компетентность, средства коммуникации, слушатель, квалификация, навык, опыт.

In this article covers the important features of improving the quality and contents of qualification improving system. It highlights the organization of teacher's qualification according to requirements and pedagogical principles, and also the article reveals how to reach the unity of theory in practical activity as a guarantee of teaching process effectiveness.

Key words. Qualification increasing system, quality and content, professional competence, communication means, listener, qualification, skills, experience.

Mamlakatimizda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi, metodik mahorati ma'naviy-ma'rifiy saviyasining talab darajasida bo'lishi xalq ta'limi tizimini isloh qilishda bosh mezon ekanligi o'z aksini topgan.

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 16-moddasida "Kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash ularning kasbiy bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirish hamda yangilashni ta'minlaydi" deb ta'riflangan. Qonunning ushbu talabini to'liq kafolatlash uchun har bir xalq ta'limi xodimining muntazam malaka oshirib borishini ta'minlashi talab etiladi. Har bir o'qituvchi o'z fanini yaxshi bikishi hamda yangiliklarni

muntazam o'rganib o'z ish faoliyatiga faol tadbir etib borishi natijasidagina ta'lim-tarbiya jarayonining zamon talablari darajasida bo'lishiga erishadi.

Mamlakatimizda yangilangan ta'lim mazmunini joriy etishda pedagoglar asosiy shaxs hisoblanadi. Ta'lim mazmuni qancha yangilanmasin, yangi dastur standartlar yaratilmasin, ularni ta'lim jarayoniga qay darajada joriy etilishi, asosan, o'qituvchiga bog'liq bo'lib qolaveradi. O'qituvchi faoliyatida sifat va samaradorlikka erishishda quyidagi masalalarga jiddiy e'tibor berishlari talab etiladi:

1. O'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish.
2. Axborot va pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanishni ta'minlash.
3. O'quv jarayonida izchillik, ilmiylik, g'oyaviylik prinsiplarini amalga oshirish.
4. Innovatsion uslub va kommunikativ vositalarni qo'llay olish darajasini ko'tarish.

5. Nazariy va amaliy faoliyat birligiga erishish.

Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirishda yechimini kutayotgan muammolar mavjudki, ularning ichida eng dolzarbi tayyorlanayotgan kadrlarning sifati masalasidir. Bugungi kunda oliy o'quv dargohlarini bitirib kelgan pedagog mutaxassislarining hammasini ham zamonaviy kasbiy talablar darajasidagi mutaxassis, deb ayta olmaymiz. Ular orasida o'z sohasiga qiziqmagan, pedagogik bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmagan "mudroq" pedagoglar borki, ular malaka oshirish jarayonida yaqqol sezilmoqda. Bunday o'qituvchi va murabbiylarning malakasini oshirish va qayta tayyorlashda quyidagi omillar muhimdir:

- nutq va tafakkurni rivojlantirish;
- mulohaza yuritish, fikrlashga o'rgatish;
- mutaxassisning o'z bilim saviyasini yangi darajaga ko'tarishga munosabatini o'zgartirish;

- pedagogika, psixologiya, xususiy metodikaning metodologik asoslarini o'zlashtirishga erishish;

- o'z-o'zini boshqarishga o'rgatish;
- maqsad va faoliyat ketma-ketligini amalga oshirish.

Ma'lumki, o'qituvchilarning kasbiy fazilatlari – chuqur bilimga egaligi va metodik faoliyatda unga asoslanganligi ta'lim jarayonini rivojlantirishga, innovatsion yondashuvga va nihoyat sifat va samaradorlikka jiddiy ta'sir etuvchi omillardan biridir. Bu o'rinda kasbiy yetuklik nazarda tutiladi.

Har qanday faoliyatda professionalizm (o'z kasbini mohirlik bilan bajarishi) da kasbiy muammolarni yechishni bilishdir. O.S.Anisimov va A.A.Derkach kasbiy faoliyatning quyidagi darajalarini ajratadilar:

1. Faoliyatning shakllanishi.
2. Qayd qilingan va qat'iy belgilangan me'yorni maromiga yetkazib bajarish.
3. Me'yorni bajarishda adekvat fikr yuritish.
4. Muammoni qo'yish, hal etishda hamkorlik.

Bugun malaka oshirish tizimida sifat va mazmuni jarayoniga axborot kommunikatsiya texnologiyalarning keng joriy etilishi ta'minlanmoqda. Buning natijasi-

da pedagoglarning savodxonligini oshirishga bo'lgan talab yanada ortmoqda. “Savodxonlik bu – turli ko'rinishdagi ma'lumotlarni aniqlash, tushunish, yaratish, o'zgartirish, uzatish, hisoblash, ishlata bilish qobiliyatidir”. Demak, jamiyatimiz kelajagini tarbiyalovchi ustozlar, eng avvalo bunday talablarga javob berishi zarur.

Shuningdek, malaka oshirish samaradorligini oshirishga psixologik yondashuv ham talab etiladi. Chunki katta yoshdagi tinglovchilarning malaka oshirishlari bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlar mavjud. Ular:

1. Aniq maqsadga asoslanganlik katta yoshdagi tinglovchilar auditoriyasi berilayotgan kurs yoki o'quv materialini bilish, o'zlashtirish o'zlariga nima uchun zarurligiga jiddiy yondashishlarini unutmaslik kerak).

2. Amaliy vazifalarga yo'nalganlik tinglovchilar malaka oshirishga o'z ehtiyojiga ko'ra “kutuvlari” bilan keladi va ular amaliyotda ko'proq duch keladigan vaziyatlarda qo'llashi mumkin bo'lgan bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lishlari lozim).


3. Muayyan zaruriyatga bog'liqlik maktab ta'limida berilgan o'quv materialini o'zlashtirish hohishi o'z-o'zidan vujudga kelsa, kattalarni o'qitish jarayonida bunday hohishni vujudga keltirish biroz qiyinroq kechadi, ya'ni tinglovchining o'zi buni bilishni hohlamasa yoki zaruriyat sezmasa, demak u malaka oshirishga tayyor emas deyish mumkin).

4. Hayotiy tajribalarni hisobga ola bilish malaka oshirish kursi tinglovchilarining hayotiy tajribalari albatta, hajm va mazmun jihatdan farq qiladi, ayrim hollarda kurs tinglovchisining tajribalari ma'ruzachinikidan ustun bo'lishi mumkin, tajribalarni kengaytirish, yangilash va chuqurlashtirishni nazarda tutmoq kerak).

Ma'lumki malaka oshirish tizimida samaradorlikka erishish, tashkil etuvchi bo'g'inlar o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash muhim. Avvalo, malaka oshirish ta'limi yuksak saviyada bo'lishi, tinglovchi uchun zarur bo'lgan ilmiy-nazariy, uslubiy bilimlarni, shuningdek, ilg'or tajriba va so'nggi yangiliklarni qamrab olishi kerak.

Viloyat xalq ta'limi boshqarmasi tasarrufidagi tuman (shahar) XTMFMTTE bo'limlari esa pedagogning malaka oshirishdagi so'nggi faoliyatini samarali yo'naltirishi, nazorat qilishi, ta'lim muassasasi ham o'qituvchi pedagogning kursgacha faoliyatini o'rganishi, tahlil etishi, uning malaka oshirish kursida olgan bilimlari, o'rgangan yangiliklarini amaliyotga joriy etishi, kasbdoshlariga ham o'rgatishi va yetkazib berishi uchun shart-sharoit yaratishi, unga har taraflama ko'mak berishi lozim.

Har bir tuman, shahar XTMFMTTE bo'limlariga viloyat xalq ta'limi boshqarmasi metodist xodimi hamda viloyat PKQTMOI professor-o'qituvchilaridan rahbarlar biriktirilib, ular tomonidan ta'lim muas-



sasalari o'qituvchi va pedagog xodimlarining ish faoliyati, bilim berish mahorati, fanlar kesimida mavjud bo'lgan o'quvchilar bilimidagi bo'shliqlarni aniqlash, ularga metodik xizmat ko'rsatish, hamkorlikda o'quvlar, seminar-treninglar o'tkazish, malaka oshirish kursigacha va kursdan keyingi faoliyatni o'rganish, ommalashtirish, malaka oshirishga bo'lgan ehtiyojni aniqlash, ta'lim berishda sifat va mazmunga erishishning samaradorlik monitoringini olib borish, ma'naviy-ma'rifiy bilimlarini aniqlash ishlari olib borilmoqda.

Malaka oshirish tizimida samaradorlikka erishishda quyidagi davrlar muhim o'rin tutadi:

kursgacha davr:


– kasbiy diagnostika, malaka oshirishdan maqsadni belgilash;

kursda o'qish davri:

– test sinovlari, dars mashg'ulotlar, kutubxonada ishlash, ijodiy loyihalarni yaratish, taqdimot qilish;

kursdan keyingi davr:

– malaka oshirish kursi natijalarini va loyihalarini amalga oshirish, uzluksiz malaka oshirish va monitoringini olib borish nazarda tutiladi.



Kursgacha kasbiy pedagogik diagnostika, pedagog xodimlarning kasbiy tay-yorgarlik darajasi, mavjud bo'shliqlar va ularni to'ldirish yuzasidan ehtiyojlarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi va albatta, uni tashkil etish hamda amalga oshirishda kasbiy pedagogik diagnostikaning asosiy tamoyillariga (maqsadlilik, ilmiylik, zamonaviy pedagogik texnologiyalarga muvofiqlik, psixologik omillarni hisobga olish, xolislik, turli shakl va usullardan foydalanish) asoslanadi.

Pedagogik kasbiy diagnostikani amalga oshirishda quyidagi usullardan foydalanish maqsadga muvofiq:

Institutimizda **kurs davrida** tinglovchilar bilan test sinovlarini o'tkazish, bo'shliqlar ustida ishlash, dars jarayonini zamonaviy ilg'or pedagogik texnologiyalar va axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etib yangi ijodiy loyihalar yaratilishi va ular taqdimotiga erishilmoqda.

Kursdan keyingi davrda ta'lim muassasalari pedagoglari uchun uzluksiz malaka oshirish yo'lga qo'yilgan, ya'ni institutda uzluksiz malaka oshirish xonasi tashkil etilib undan keng foydalanilmoqda (Elektron kutubxona mavjud, fanlar kesimida dars ishlanmalar, testlar banki, metodik ko'rsatmalar, tavsiya va qo'llanmalar, slaydlar va turli metodik o'quv materiallari o'rin olgan).

Malaka oshirish tizimida sifat va mazmunni nimada ko'rish mumkin? Albatta, tinglovchilar kurs mashg'ulotlaridan samarali foydalana bilsalar. Aytaylik, tinglovchilar mutaxassislik fanlari o'quv mashg'ulotlarida o'zlashtirilishi qiyin bo'lgan mavzular ustida "Tahlil – munosabat – natija" konsepsiyasini amalga oshirsin. Bunda, aynan muammoli masalalar xususida guruh ishi usulida dars loyihalari yaratsinlar, taqdimot qilsinlar, pirovardida kasbiy metodikalar yaratiladi, bilim, malakalar oshadi, tajriba almashiladi.

Yuqorida ta'kidlagan fikrlarimizga ko'ra ana shunday nazariya va amaliyot uzviyligi malaka oshirish tizimida sifat va mazmun yaxlitligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. A. *Yuksak malakali mutaxassislar taraqqiyot omili.* – T.: "O'zbekiston", 1995.
2. O'zbekiston Respublikasining. *"Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.* – T.: "Sharq", 1997.
3. Azizxodjayeva N. *Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.* – T., 2003.
4. *Malaka oshirish: muammolar, izlanishlar, yechimlar.* – T., 1-son.
5. *Ta'lim menejmenti.* – T., 2011. 1-son.

Zulfiya HAYDAROVA,
Namangan viloyati PKQTMOI o'qituvchisi,
Sanobar AZIMOVA,
Namangan viloyati 10-son maktabgacha ta'lim
muassasasi rahbari

MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada muallif oila va maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarni umumiy o'rta ta'lim maktabiga tayyorlash, bola tarbiyasiga obyektiv va subyektiv yondashuv, o'qish va yozishga o'rgatish jarayonidagi qiyinchiliklarni bartaraf etishning nazariy asoslarini yoritgan.

Kalit so'zlar. Maktabgacha ta'lim, muassasa, oila, maktabga tayyorgarlik, disleksiya, moslashuv, barkamol va sog'lom avlod.

В статье рассматриваются проблемы организации процесса подготовки детей к школе и выделяют объективные и субъективные степени подготовленности детей дошкольного возраста. Также авторы предлагают методические рекомендации воспитателям и родителям по подготовке детей к школе.

Ключевые слова. Дошкольное образование, дошкольные учреждения, семья, подготовка к школе, адаптация, здоровый и развитый ребёнок.

This article is about problems of the organization process of the children preparation to school and emphasizes subjective and objective preparedness degree of the children of preschool age. The authors offer methodological recommendations to teachers and parents on the preparation of children to school.

Key words. Preschool children, preschool institutions, family, preparation to school, dyslexia, adaptation, developed and health child.

Barchamizga ma'lumki, amalga oshirilayotgan islohotlarimizni mamlatimizda kuchli fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy-demokratik davlat qurish maqsadimizni aholimizning 60 foizidan ortig'ini tashkil etuvchi yoshlar ishtirokisiz amalga oshirib bo'lmaydi. Shuning uchun ham ertangi kunimizning yaxshi bo'lishini xohlasak, birinchi galda yoshlarning ongu-shuuri, sog'lom turmush tarzi, intellektual salohiyati, ijtimoiy himoyasi haqida muntazam qayg'urishimiz lozim.

Yurtboshimiz Islom Karimov tashabbusi bilan 2014-yilni "Sog'lom bola yili" deb e'lon qilinishi bu boradagi ishlarimizni yanada kuchaytirish, islohotlarni ro'yobga chiqarishda har bir fuqaroning hissasini qo'shish, kelajagimiz egalari bo'lgan yosh avlodni har tomonlama yetuk, sog'lom va keng dunyoqarashli, zamonaviy

fikrlaydigan, ijodkor, yuksak bilim va salohiyatli qilib voyaga yetkazish vazifalarini asosiy maqsad qilib oldimizga qo'ydi.

Ma'lumki, Kadrlar tayyorlashning milliy modeli ana shunday avlodni har tomonlama kamol topgan, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutadi. Shundan kelib chiqib, birgina maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qaratilayotgan e'tibor haqida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, bu borada ham katta ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, “Sog'lom bola yili” Davlat dasturining 66 (22)- bandida keltirilganidek:

- 2015–2020-yillarda bolalarni, ayniqsa, qishloq joylarda **maktabga tayyorlashni** yaxshilashga yo'naltirilgan maktabgacha ta'lim tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha Davlat dasturi loyihasini ishlab chiqish;

- bolalarni qamrab olishning past ko'rsatkichlariga ega bo'lgan aholi punktlarida maktabgacha ta'lim muassasasining moddiy-texnika bazasini bosqichma-bosqich mustahkamlash, mukammal ta'mirlash va jihozlash, shuningdek, yangi muassasalar qurish;

- bolalarni maktabgacha ta'lim bilan 45 foizgacha qamrab olishni ta'minlash uchun mavjud quvvatlardan foydalanish koeffitsientini ko'paytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish masalalari bugungi kun tartibiga qo'yildi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning ta'lim-tarbiyasi, ularning maktab ta'limiga tayyorgarligi **obyektiv va subyektiv** nuqtayi nazardan tahlil etiladi, jumladan, obyektiv tayyorgarlik uning aqliy tomondan tayyorgarligini nazarda tutsa, subyektiv tayyorgarlik esa, uning maktab ta'limiga qiziqishi, istagi, intilishini nazarda tutadi. Bugungi maktab o'quvchisidan aniq bilimlarga emas, fikrlash ko'nikmasi, kattalar bilan hamkorlik qilish ham talab etiladi. Shuning uchun bolaning maktabga qadam qo'yganida nechog'lik bilimga egaligi emas, balki uning yangi bilimlarini egallashga tayyorligi, atrof-muhitga moslashish ko'nikmasi, voqea-hodisani mustaqil ravishda tahlil etish va harakat qilishi muhimroq hisoblanadi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga ko'ra, ta'limning poydevori qo'yiladigan dastlabki bo'g'ini maktabgacha ta'lim – bolani sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishni ta'minlaydi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otadi, uni muntaзам ta'lim olishga tayyorlaydi. Bola maktabgacha ta'limni uyda, ota-onaning mustaqil ravishda ta'lim va tarbiya berishi orqali yoki doimiy faoliyat ko'rsatadigan maktabgacha ta'lim muassasalariga jalb qilinmagan bolalar uchun bolalar bog'chalarida, maktablarda, mahallalarda tashkil etilgan maxsus guruhlar yoki markazlarda oladi. “Sog'lom bola yili” Dasturining **68 (24)**-bandida ham maktabgacha ta'limga qamrab olinmagan bolalar uchun **1220 ta** qisqa muddatli guruhlar tashkil etish ko'zda tutilganki, bu bolalarni maktabga tayyorlash darajasini oshiradi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolaning maktab ta'limiga o'tishi uning hayoti, axloqi, qiziqish va munosabatlarida anchayin jiddiy tub o'zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun bolani bog'chada yoki uydayoq maktab ta'limiga tayyorlash, uni uncha qiyin bo'lmagan bilim, tushuncha, ko'nikma va malakalar

bilan tanishtirish kerak bo'ladi. Bunday tanishtirish bolaning maktabga moslashuv davrida jiddiy qiyinchiliklardan xalos bo'lishiga yordam beradi.

"Maktabga tayyorgarlik" tushunchasi bolani umumiy o'rta ta'limga tayyorlashning quyidagi yo'nalishlarini o'z ichiga oladi: **jismoniy, shaxsiy (ruhiy), aqliy va maxsus tayyorgarlik**.

Jismoniy tayyorgarlik bolaning sog'lomligi, harakat ko'nikmalari va sifati, qo'l mushaklari rivojlanganligi bilan izohlansa, rivojlanmaganlik va ko'rish-motor muvofiqligining asosiy belgilari o'ziga xos jismoniy rivojlanishning alohida jihatlari ko'rinadi. Masalan, suyak tuzilishida, yoshiga ko'ra past bo'yli bolalarda tana, bo'yi va og'irligidagi nomutanosiblik, tanadagi muvozanat buzilishi, yurak-qon tomir tizimidagi fiziologik yetishmovchiliklar, tez toliqishlar, jismoniy yuklamalarni bajarishdagi imkoniyatlari pastligi kabilardir.

Jismoniy tayyorgarlikni aniqlash uchun yoshiga mos bo'lishi lozim bo'lgan bo'y, vazn, bosh, ko'krak aylanasi me'yoriy ko'rsatkichlari hamda qo'l mushaklari va asosiy harakatlari rivojlanganligi aniqlash usullaridan foydalaniladi. Kasalliklar va ularga moyillik bo'yicha o'tkaziladigan tekshiruvlar bolaning yashash joyidagi bolalar poliklinikalarida mutaxassis shifokorlar guruhi tomonidan olib boriladi.

Shaxsiy (ruhiy) tayyorligi, atrof muhitga, kattalarga, tengdoshlariga, o'ziga, o'simliklar, jonivorlar dunyosiga, tabiiy hodisalarga, insonlar yaratuvchiligiga munosabatda yuzaga keladigan shaxsiy madaniyatning shakllanganligini nazarda tutadi. Eng muhimi bola ongida qanday umumiy axloqiy tamoyilning mustahkamlanganligi, u tomonidan ijtimoiy axloq me'yorlari va umuminsoniy qadriyatlarning tan olinganligi, "nima yomon-u, nima yaxshi" ligini anglaganidir. Shaxs (ruhiy) tayyorgarligida eng muhim jihat bolaning ichki pozitsiyasi shakllanganligi yoki motivatsion tayyorgarlik, ya'ni o'quvchining kattalar va tengdoshlari bilan bog'liq sabablarga ko'ra maktabga borish istagini uyg'onishidir.

Shuningdek, aqliy tayyorgarlik bola obrazli va mantiqiy fikrlashi tasavvurining, odamiylikning, bilimga qiziqishining, mustaqillikning, o'zini-o'zi nazorat qilishga va boshqarishga imkoniyatining shakllanganligini hamda o'quv faoliyatning kuzatishi, eshitish, solishtirish kabi asosiy turlarini bilishni o'z ichiga oladi. Xotira aqliy rivojlanishning bir ko'rsatkichi sifatida qachonki bola eshitib, yaxshi eslab qolsa **eshitish** yoki qachonki bola ko'rib yaxshi eslab qolsa **ko'rish** va qachonki bola eshitgan va ko'rganlarning asosiy mazmunini aytib bersa **mazmunni eslab qolish** kabi turlarga bo'linadi. **Ko'rib, eshitib eslab qolish** xotirasini rivojlantirish uchun mashq qildirish befoyda, chunki u har kimga tabiatan berilgan. **Mazmunni eslab qolish** xotirasini yaxshilash uchun esa albatta mashq qildirish kerak.

Shu o'rinda bir narsani ta'kidlash lozimki, bolaga tez o'qishni va yozishni o'rgatish unchalik muhim emas. Asosiysi bolaning lug'at boyligini oshirish, undan ongli va faol eshitishni, aniq talaffuz qilishni, ularni so'zlardan ajrata bilishni (tovushni) ta'minlash va "Bolajon" dasturiga kiritilgan savodxonlik bo'yicha oddiy bilimlarni, matematik tasavvurlarni egallashga erishishdir. Agar bolada qo'l mushaklari yetarli darajada rivojlangan bo'lsa, u umumiy o'rta ta'lim maktabida 1-sinfda qisqa vaqt davomida o'qish va yozishni qiyinchiliklarsiz egallab oladi.

Bu sifatlar bolada maktabgacha yosh davrining so'nggida savodxonlik, matematik o'ziga xos faoliyatning, ya'ni o'yin-konstruksiyalash (qurish-yasash), chizish ko'nikma va malakalarini egallash asosida paydo bo'ladi. Ijodiy imkoniyatlarga ega bo'lgan bola yangi o'quv materialini mustaqil tushunib yetishga, izlanish faoliyatiga, pedagoglar va tengdoshlari bilan o'zaro munosabatlarni o'rnatishga tayyor bo'ladi. U bilishga qiziquvchan, faol, tashabbuskor bo'lib, nafaqat kattalar tomonidan taklif etilgan topshiriqlarni bajarishga, balki o'zi va boshqalar oldiga yangi vazifalar qo'ya bilishi bilan ajralib turadi. Aynan shu maqsadda “Sog'lom bola yili” Davlat dasturida bir qator salmoqli ishlarni amalga oshirish rejalashtirildi.

Bolani maktabga berish yoshi (6 yoki 7 yosh) uning tayyorligini hisobga olingan holda, uyg'unlashtirilgan tarzda aniqlanadi. Berilayotgan testlardan foydalanish bo'yicha yo'riqnomalarga qat'iy amal qilish bolaning maktabga tayyorligi darajasiga ma'qul, xolis baho berishini ta'minlaydi. Bolaning maktab ta'limini boshlashga tayyorgarligi darajasiga qo'yiladigan talablar tizimi faqatgina aniq belgilar, uddaburonlik va malakalar ro'yxatidan iborat emas, balki bolaning har tomonlama jismoniy, shaxsiy ruhiy rivojlanganligi, maxsus o'quv va o'quv faoliyati ko'nikmalari shakllanganligini o'z ichiga oladi. Davlat testlarining kiritilishi tarbiyaviy – ta'limiy jarayoni qat'iy holiga bo'ysundurishni anglatmaydi. Ayniqsa, ular bolaning qayerdan maktabga tayyorlov bosqichidan o'tganligidan qat'iy nazar, hamma bolalar teng bo'lgan rivojlanish darajasini ta'min etadigan, asosiga yagona talablar qo'yilishi lozim bo'lgan ta'lim metodlaridan va texnologiyalaridan to'g'ri va ijodkorlik bilan foydalanish uchun keng imkoniyatlar ochadi. Bundan tashqari bu talablar aniq bilimlar va malakalar bilan qat'iy chegaralanmaganligi bois bolaning rivojlanish jarayonining bir maromda emasligi va mustaqil amalga oshirilishini hisobga olish imkoniyatini beradi. Maktabgacha ta'lim darajasiga qo'yilayotgan davlat talablari, ularning turi, shaklidan qat'iy nazar barcha maktabgacha ta'lim muassasalari uchun majburiydir. Ushbu talablarni bajarishda “Bolajon” tayanch dasturi ota-ona va pedagoglarga xizmat qiladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinf o'qituvchilari maktabgacha yoshdagi bolani qabul qilishda shuni unutmashliklari lozimki, 6, hatto, 7 yoshli bola 1-sinfga kirishda uning oilada yoki bog'chada maktabgacha ta'limni to'liq olganligidan qat'iy nazar, o'quv faoliyatining ma'lum bir ko'nikmalariga ega bo'lgan bo'lsada, baribir ma'lum muddatgacha bola maktabgacha yoshdagi davrning o'ziga xos xususiyatlarini saqlab turadi. U hali o'quv faoliyati uchun kerakli bo'lgan sifatlar va uddaburonlikka ega emas. U bu xislatlarni o'quv jarayoni davomida egallashni davom ettiradi. Bolaning maktab hayotiga kirishi bilan uning tizimli maktab ta'limiga tayyorgarlik ko'rish davom etadi. Albatta, bu jarayon bola individual xususiyatini hisobga olgan holda, yuqorida sanab o'tilgan-jismoniy, shaxsiy, aqliy va maxsus tayyorgarlik yo'nalishlari bo'yicha olib borilishi kerak. Masalan, bola faol harakatlanuvchan bo'lsa, uning bu ehtiyojini maktabda jismoniy tarbiya darsida, katta tanaffusda, shuningdek, sinfdan tashqari ishlar jarayonida qondirish zarur. Buning uchun boshlang'ich sinf bolalariga yoshiga xos fikrlashni,

tasavvurini, izlanishini boshqa muhim ko'nikmalarini hosil etadigan rivojlantiruvchi muhit yaratilishi zarur. Boshlang'ich maktabda, asosan, ta'limning birinchi yilida maktabgacha yoshdagi bolaning asosiy va unga ma'qul keladigan faoliyat turi o'yinlar ekanligini hisobga olgan holda, o'yin usullarini kengroq qo'llash zarur. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ilk o'qitish bosqichida bog'chada ham, maktabda ham ularga o'qishga birdan qat'iy belgilangan talablarni qo'yish mumkin emas, faqat maktab-dars tizimidagi ta'limni qo'llash kerak. Aksincha, bolani o'qish va yozish faoliyatidan bezitib qo'yish, uchrayotgan qiyinchilik va to'siqlar o'tib bo'lmas, degan tushunchaga kelib qolish holatlari sodir bo'lishi mumkin.

Davlat dasturining **67 (23)-bandida** maktabgacha ta'lim muassasalarini bolalar intellekti, mantiqiy fikrlashi barvaqt rivojlanishiga ko'maklashuvchi va harakatlanishni rivojlantiruvchi ko'rgazmali qo'llanmalar, didaktik materiallar, mantiqiy o'yinlar va o'yinchoqlar bilan ta'minlash vazifalari belgilandiki, bu bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Har yili yuzlab, minglab farzandlarimiz 1-sinf ostonasiga ilk bor qadam qo'yadilar. Albatta, maktabga yangi borgan har bir o'quvchi tezda yaxshi o'qib ketavermaydi. Ba'zan ota-onalar shunday shikoyat bilan murojaat etadilar: shuncha harakat qilsam ham bolamga o'qishni o'rgata olmayapman, nima qilish kerak?

Bunday hollarda ota-onalarga, eng avvalo, sabr-bardoshli bo'lishlarini, ayniqsa, bola oldida o'zlarini vazmin tutishlarini, imkon qadar bolaga nisbatan yumshoq muomalada bo'lishlari va unda yaxshi o'qib ketishiga ishonch hissini uyg'otishga harakat qilishlarini maslahat bergan bo'lar edik.

Buning sabablari esa turlicha bo'lishi mumkin. O'qishga qiynalishni yoki umuman o'qiy olmaslikni bolani dangasaligidan deb ham tushunmaslik kerak. Bu yerda disleksiya muammosi turishi ham ehtimoldan uzoq emas.

Disleksiya bu – matnni o'qiyotganda ko'p adashishi, ba'zan matnni umuman o'qiy olmasligi, ayrim so'z bo'g'inlarini "yutib" yuborishi, qolaversa, yozilgan narsa ma'nosini umuman tushunmasligidir.

O'qish muammosi esa yozishga o'z ta'sirini o'tkazadi. Disleksiya muammosi dunyoning barcha mamlakatlarida mavjud bo'lib, jahon statistikasiga qaraganda, dunyodagi har o'ninchi odam – dislektik ekan.

Aslini olganda, gapirishdan ko'ra o'qish ancha murakkab jarayon. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, nutqning, ya'ni gapirishning yoshi yuz ming yil bo'lsa, yozuvning yoshi esa atigi besh yuz yil ekan xolos. Balki shuning uchun gapirishdan ko'ra yozuvni, o'qishni o'zlashtirishi uchun boladan ko'proq harakat talab qilinadi. Shunga asoslangan holda bolada disleksiya belgilari qancha barvaqtroq aniqlansa, unga yordam berish shuncha samaraliroq bo'ladi.

Afsuski, bugungi kunda o'qituvchilarning ko'pchiligini "disleksik"lar bilan ishlashga yetarli tayyorgarliklari yo'q. Shuning uchun bu toifadagi bolalar bilan shug'ullanishning eng og'ir yuki ota-onalar zimmasiga tushadi. Bola hali maktabga bormasidan avval ular ancha ishlarni amalga oshirishlari mumkin. Jumladan, so'z o'yinlari, ya'ni so'zlardan unilarni ajratishga, ayniqsa, o'xshash so'zlarga (qofiya) diqqatini ko'p jalb etishga ahamiyat berish yaxshi natijalar beradi. Bunday

harakatlar, albatta muvaffaqiyatga yuz foiz kafolat bermasada, bola talaffuzida, o'qishida anchagina siljishlarga olib keladi.

Ota-ona va tarbiyachilar bog'cha yoshidayoq bolani sinchkovlik bilan kuzatishlari, disleksiyaning ilk belgilarini sezishlari bilan bu holatni tuzatish bo'yicha malakali mutaxassislar, ya'ni defektologni topib, yo'l-yo'riqlar, maslahatlar olib, boladagi kamchilikni tuzatishga harakat qilishlari kerak.

Shu kabi holatlarni bartaraf etish maqsadida “Sog'lom bola yili” Davlat dasturining **69 (28)**-bandida maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim metodistlari, maktabgacha ta'lim muassasalari defektologlari va umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinflar logopedlarining asosiy vazifalari va funksiyalarini tanqidiy qayta ko'rib chiqib, ularning faoliyatini baholash mezonlarini tanqidiy baho bergan holda qayta ko'rib chiqish; metodistlar, defektologlar, logopedlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini, muassasalarning ular bilan ta'minlanganligini yaxshilash, shu jumladan ushbu lavozimlarni joriy etish normativlarini qayta ko'rib chiqish va ularni moddiy rag'batlantirish choralarini ko'rish vazifalari belgilab olindi.

Davlat dasturining **66 (22)**-bandida bolani o'qitish, har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish masalalarini o'z ichiga oluvchi, shuningdek bolalar bilan psixologlar va difektologlarning majburiy ishlashini nazarda tutuvchi ta'lim talablariga muvofiq bolalarni maktabga tayyorlashning prinsipial jihatdan yangi dasturlarini tayyorlash va joriy etish, shuningdek, **67 (23)**-bandida maktabgacha ta'lim muassasalarini bolalar intellekti, mantiqiy fikrlashi barvaqt rivojlanishiga ko'maklashuvchi va harakatlanishni rivojlantiruvchi ko'rgazmali qo'llanmalar, didaktik materiallar, mantiqiy o'yinlar va o'yinchoqlar bilan ta'minlash vazifalari belgilab olindiki, bu albatta, maktabgacha hamda boshlang'ich ta'limni qayta tanqidiy ko'rib chiqish, uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, bolalarning bu yoshdagi imkoniyatlari, jadal rivojlanishi, intellektual salohiyatidan unumli foydalanish, ularni biz orzu qilgan barkamol bo'lishlariga dastlabki tamal toshini qo'yishdek yuksak vazifalar oldimizda turganligini yana bir bor his qilishga undaydi.

Xulosa qilib aytganda, bular har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi oldiga bir qator talablar qo'yadi. Bugungi kunda ana shu talablardan kelib chiqqan holda boshlang'ich sinf o'qituvchisi oliy ma'lumotli, yetuk mutaxassis bo'lish bilan bir qatorda muntazam o'z ustida ishlaydigan zamonaviy axborot-kommunikatsiya hamda innovatsion texnologiyalarni ta'limda qo'llay oladigan, bolaning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda usul va uslublarni tanlay oladigan salohiyatli kadr bo'lishi talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Sog'lom bola yili” Davlat dasturi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2133-sonli qarori. 2014-yil.

2. Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari. T., 2012-yil.

Zamira RASULOVA,
Namangan viloyati PKQTMOI
katta o'qituvchisi

SOG'LOM AVLOD TARBIYASIDA OILA VA MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI HAMKORLIGINING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada bolalarni har tomonlama barkamol shaxs sifatida shakllantirishda maktabgacha ta'lim muassasasi bilan ota-onalar hamkorligini to'g'ri yo'lga qo'yishga doir metodik tavsiyalar keltirilgan. Muallif fikricha, oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiyaning bir qismi bo'lib, bolaning ijtimoiy, emotsional, xulqiy va boshqa sifatlariga asos b'ladi.

Kalit so'zlar. Maktabgacha ta'lim muassasasi, oila, hamkorlik, sog'lom bola, ijtimoiy tarbiya, o'zaro munosabat.

В статье рассматриваются взаимоотношения родителей с детьми, об организации грамотного процесса и психологические, педагогические особенности, о сотрудничестве семьи и дошкольных учреждений. Также автор предлагает методические рекомендации родителям и работникам дошкольных учреждений.

Ключевые слова. Дошкольные учреждения, семья, сотрудничество, здоровый ребенок, планирование, взаимоотношения.

This article is about parents and children interrelations, organizations of the literate process and psychological pedagogical particularities and about cooperation of the families and preschool institutions. The author gives methodical recommendations to parents and workers of preschool institutions..

Key words. Preschool institutions, family, cooperation, planning, sound family, relations.

Mamlakatimizning ravnaqi bugungi yosh avlodning har tomonlama barkamol shaxs sifatida shakllanishiga bog'liq. "Yoshlarimiz qalbida sog'lom hayot tarziga intilishni, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg'ularini bolalik paytidan boshlab, shakllantirishimiz zarur" deya ta'kidlagan.

Bola, asosan, oilada tarbiyalanadi. Oila o'z muhiti orqali bolaning dunyoqarashiga va xulqiga doimo o'z ta'sirini o'tkazib turadi. Ibn Sino ta'biricha, ota-ona bola tarbiyasini unga ism qo'yishdek, oliyanob vazifadan boshlash kerak. Abdulla Avloniy esa bu sohada birinchi navbatda bolaning sog'ligi haqida qayg'urish lozimligini ta'kidlaydi. Ta'lim faqat so'z va o'rgatish bilan bo'lsa, tarbiya va amaliy ish va tajriba vositasida amalga oshiriladi.

Shu bois ota-ona bola hayotidagi ilk tarbiyachi hisoblanadi. Shu bois, bolaga hech narsa namuna kuchidek ta'sir ko'rsata olmaydi. Oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiyaning bir qismi bo'lib, bolaning ijtimoiy, emotsional, xulqiy va boshqa sifatlarga asos soladi, teran shakllantiradi va kamol toptiradi. Oilaviy tarbiya bolaning umumiy va hissiy rivojlanishini ta'minlash bilan birga uning mavjud imkoniyatlarini va aqliy tafakkurini o'stiradi.

O'quv tarbiyaviy muassasalarning tarbiya borasidagi ishlari qanchalik yaxshi yo'lga qo'yilishidan qat'iy nazar, tarbiya masalalarini oila hal qiladi. Shu ma'noda bolalarimiz kamolotiga yakka holda yondoshish, aqliy, axloqiy, mehnat tarbiyasi ehtiyojini shakllantirish, o'z-o'ziga xizmat qo'rsatish malakasi, ijtimoiy mehnatga ma'naviy-ruhiy tayyorlash kabi mezon va qoidalarga asoslanib ish tutish maqsadga muvofiqdir.

Oilada bolaning nutqi shakllanishi va rivojlanishi barobarida ular ongiga kattalarga hurmat, do'stlik, halollik, insoniylik tushunchalari singdirib boriladi. E'tibor qilsangiz, huddi shu vaqtda ular atrofdagilarni turli xil savollarga ko'mib tashlashadi va olgan javoblari qanday bo'lishidan qat'iy nazar ularning kelgusi hayotida dasturilamal bo'lib qoladi. Huddi shuningdek, oiladagi har kungi yumushlari davomida bolalarning xulq-atvori shakllanib boradi va keyinchalik axloqning murakkab shakllari: jamoatchilik, vatanparvarlik, insonparvarlik hislarining o'sishi kabi jarayonlari davom etadi.

Ota-ona o'z farzandlarida maqsadga intiluvchanlik, botirlik, ishga mas'uliyat hislatlarini shakllantirib borishi katta ahamiyatga ega. Shuningdek, qiz bolalarni yoshi ulg'aygan sari oilaviy hayotga tayyorlash, ularni yangi oilada odob-axloq me'yorlariga, urf-odatlariga, oila yumushlariga va xayotning nozik sohalariga puxta tayyorlab borish vazifasi ham oiladan, ayniqsa, onadan juda katta mehnat talab qiladi. Farzandlar mustaqil oila qurishganda oilasi qanchalik mustahkam yoki nozik bo'lishi ham qiz bolalarning o'z oilalarida olib ketgan tarbiyasiga nechog'lik bog'liqligini ko'pchilik onalar yaxshi anglaydilar. Ota-onaning xulq-atvori bola tarbiyasida hal qiluvchi omildir, chunki bola ularning har bir harakati, so'zidan ibrat oladi. Shu jihatdan ota-onalar ma'nan yuksak, axloqan pok, rostgo'y va madaniyatli bo'lmoqlari lozim.

Agar biz odobni boylik desak, unga amal qilish esa komillikdir. Bolani mehnat orqali tarbiyalash ham alohida ahamiyat kasb etadi, chunki qadimdan mehnat – tarbiyaning asosi bo'lib hisoblangan. Inson tarbiyasi mehnatga bo'lgan munosabatiga qarab belgilanadi. Mehnat – bu hayot, desak ham o'rinsiz bo'lmaydi, negaki, hayotni mehnatsiz tasavvur qilish qiyin. Qo'pchilik oilalarda bolani yoshligidanoq, hunarga, ma'lum bir kasbga, umuman, mehnatga o'rgatib borishadi. Bu juda quvonarli hol, chunki bolaning qanday kasb tanlashi juda muhim hayotiy masala bo'lib, uni hal qilishda oila yordam berishi kerak.

Bola tarbiyasi mukammal bo'lishi uchun ota-onalar avvalo o'zlari bir-biriga mehrli bo'lishlari lozim. Bolani yoshligidanoq bilim olishga qiziqtirish, ularni kitoblar olamiga olib kirish, yoshiga mos rasm, badiiy kitoblar tavsiya qilish, kitob o'qish madaniyatini o'rgatib borish, ular uchun oilada adabiy muhitni yaratish ham juda muhim ishlar hisoblanadi. Bolaning intellektual salohiyatini oshirib borishda oilada ota-ona muhim o'rin tutadi.

Ba'zi nosog'lom muhitdagi oilalarda ko'ngilsiz voqealar bo'lib turishi ham sir emas, bunday bolalar orasidan hatto qonunbuzarlar ham kelib chiqmoqda. Bunga sabab, ota-onalarning bola tarbiyasidagi uquvsizligi, tajribasizligi pand berayotgan bo'lsa ajab emas. Axir “Tarbiyachining o'zi tarbiyalangan bo'lmog'i kerak”, deyishgan buyuk pedagoglarimiz. Shunga qaramasdan oila o'zining xususiyatlari va takrorlanmas ta'siri bilan bola tarbiyasida muhim omilligicha qolmoqda.

Bolani ta'lim tarbiya olishi oiladan boshlanib, maktabgacha ta'lim muassasasida davom ettiriladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasida bola quyidagilarni o'rganib borishi lozim.

- u o'zini tashqi ta'sirlardan himoya qilishni, qarshilik ko'rsatishni;
- jamoada o'ynash, jamoa uchun jon kuydirishni, o'z jamoasini himoya qilishni;

- san’atga qiziqishi o’z san’atini namoyish qilish va sahnada o’zini tuta olishni;
- davlat talablariga javob beradigan ta’lim- tarbiyani hamda maktabgacha ta’lim muassasasida bola tarbiyachisiga, taqlid qilish bilan ko’p narsani o’rganib boradi.

Bolada ahloqiy estetik did rivojlanib boradi. U endi o’rtoqlariga qarab kiyinishga, kiyimlarini tozalab yurishga, chiroyli kiyinishga, o’z tengdoshlari bilan do’stlashishga o’rganib boradi.

Shu o’rinda nega oilalar ta’lim muassasasalar bilan hamkorlik to’g’ri yo’lga qo’yilmayapti? Degan savol tug’iladi.

Oila bilan maktabgacha ta’lim muassasasi hamkorligi juda dolzarb masala hisoblanadi. Chunki oilada ota-ona boshlagan ta’lim tarbiya ishini maktabgacha ta’lim muassasasida tarbiyachi-pedagoglar davom ettiradi. Shunday ekan tarbiyachi-pedagog va ota- onaning o’zaro muloqotiga asoslangan holda oilaning shaxsiy ehtiyoji va qiziqishlarining ustunligini tan olishlikka qaratish lozim. Tarbiyachilarga qo’yiladigan talablarning yo’nalishini o’zgartirish, ya’ni: ota-onalarning pedagogik tajribasini va qiziqishlarini rad etishdan-hamkorlikka va sherikchilikka, indamaslikdan maqsad, vazifalarni qo’yishda, xulosalar chiqarish va uni qo’llashga o’rgatishdan iborat.

Maktabgacha ta’lim muassasasi va ota-onalarning o’zaro hamkorligi uning mazmuni, vositalari, shakl va usullari ota-onalarning ta’lim ehtiyojlariga bog’liqligiga, pedagogik-psixologik madaniyat darajasiga, shuningdek, bola va kattalarning munosabatlarini o’rganmasdan turib tashkil etish mumkin emasligiga qaratish lozim.


2014-yilning “Sog’lom bola yili” deb nomlanishi sog’lom nasl, sog’lom muhit, sog’lom oila, sog’lom bola kelajagini ta’minlash, ota-onalar va maktabgacha ta’lim muassasalarining hamkorligini kuchaytirish yo’nalishidagi qator ishlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Ushbu vazifalarni maktabgacha ta’lim muassasasi hamda ota-onalar hamkorligida amalga oshirilsagina, bola tarbiyasi va sog’lig’ini tubdan yaxshilash maqsadiga erishish mumkin.

Ta’lim muassasasida ota-onalar uchun “Bizning muvafaqqiyatlarimiz” (maqto’v qog’ozlari, diplomlar, rahmatnomalar), “Bizning pedagoglar”, “Hamma dasturlar yaxshi – xohlaganingni tanlab ol!”, “Bizning guruhlarimiz”, “Bolalar ijodiyoti markazi” kabi ko’rgazma va plakatlar tayyorlanadi. Shuningdek, ota- onalar uchun ma’lumotlar stendini tashkil etish kerak. Masalan, “Bizda shunday ishlar yo’lga qo’yilgan”, “Bizning mehnatimiz natijalari: “Xizmatimiz uchun mukofotlar”, “Bizning maktabgacha ta’lim muassasi” (MTM ning ochilishi, xodimlar, guruhlar, qo’llaniladigan dasturlar, bolalar bilan ishlash texnologiyalari to’g’risida ma’lumot va boshqalar), Bolalar ijodiyoti galereyasi (mavzuli ko’rgazmalar), “ Bu dolzarb muammo” (Bola xuquqlarini himoya qilish bo’yicha), mavzuli badiiy ko’rgazmalar (“Yil fasllari”, “Bolalar va tasviriy san’at”, “Shahrimiz bo’ylab sayohat”), bayramlarga atalgan ko’rgazmalar (Bilimlar kuni, Ustozlar kuni, Yangi yil, 8-mart) va hokazo.

Maktabgacha ta’lim muassasasida ota-onalarni ta’lim-tarbiyaviy jarayonlarida faol ishtirok etishlariga jalb etish, ota-onalar mavqeini bolalar ko’z o’ngida, pedagoglarning mavqeini ota-onalar ko’z o’ngida yuqoriga ko’tarish maqsadida, muassasada “Men, otam, onam sportchilar oilasi” mavzuidagi sport bayrami, “Salomatlik kuni”, “Hamma narsani bilamiz”, “Kattalar bolalarga” (ota-onalar va kattalarning ishtiroklaridagi qo’g’irchoq va sahna teatrlari), “Yosh tabiatsevarlar”, “Ekologiya mamlakatiga sayohat”, “Matematik sayohatlar”, “San’at olamiga sayohat”, “Guruh mehmoni” tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarni jismoniy tomondan tarbiyalash, ularni sog'lomlashtirish ishlarini tashkil etishda “Sog'lom oila” klubini “Oiladagi sog'lom hayot tarzi – bola sog'lig'ining garovidir” shiori ostida tashkil etish, hamda unda ota-onalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga jalb etish, maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarda turli qiziqishlarni uyg'otish, ularning tadbirlarda ishtirokini ta'minlash, bilimlarini kengaytirish, bolalarni jismoniy tomondan tarbiyalash va rivojlantirishda sog'lom oilaning roli muhimligini anglatishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.



Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqqan holda, maktabgacha ta'lim muassasasida tashkil etilgan “Sog'lom oila” klubining yil davomida amalga oshirgan ishlari natijasini aniqlash, olib borilgan ishlarining natijaviyligini bilish, ya'ni baholash mexanizmini ishlab chiqish lozim. Olib borilgan ishlar natijasida biz bolalarni sog'lom bo'lishlari uchun ular o'z xohishlari bilan jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishlariga, bolalar sog'lig'ini muhofaza qilish, ularda uchraydigan kasalliklarni kamaytirishga, bolalarda tarbiyalangan sog'lom turmush tarzini hayot davomida qo'llashga o'rgatishga, ota-onalarning ijodiy faolligini oshirishga, barcha tadbirlarda ishtirokini ta'minlashga, kelgusidagi ishlarni rejalashtirish va olgan bilimlarini oilada qo'llash kabi natijalarga erishamiz.

Kutilayotgan natijalarni baholashda rasmiy testlar, intervyu bahs-munozara, bolalar harakatini kuzatish, ijodkor ota-onalar guruhini tuzish, ota-onalar bilan anketa so'rovnomasini o'tkazish kabi metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, bolalarning har tomonlama yetuk va sog'lom bo'lishi ota-onalar va maktabgacha ta'lim muassasalarining sa'y-harakatlariga bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yusupova P. *“Maktabgacha tarbiya pedagogikasi”*. – T., 1993.
2. *“Bolajon” tayanch dasturi*. – T.: 2011.
3. *“Oila pedagogikasi”*. – T.: 2003 – yil
4. *“Maktab va hayot” ilmiy-metodik jurnal*. –T.: 1-son 2014.

Po'lat MIRZAYEV,

Baxmal pedagogika kolleji dotsenti

MORFOLOGIK VA MORFOMETRIK KO'RSATKICHLAR EKOLOGIK KO'NIKMANI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI

Annotatsiya

Maqolada o'quvchilarning ekologik bilimlarini shakllantirishning o'ziga xos jihatlari yoritilgan. Shuningdek, o'quvchi-yoshlar atrof-muhitga morfologik va morfometrik ko'rsatkichlarni moslab borishlari natijasida ekologik jarayonlarga nisbatan intellektual qobiliyatni shakllantirish mumkinligi misollar asosida ochib berilgan.

Kalit so'zlar. Ekologiya, ta'lim-tarbiya, ekologik bilim, ekologik ko'nikma, jarayon, tasavvur, ko'rish, sezish.

Данная статья посвящена проблеме формирования экологических навыков учащихся на основе развития у них морфологических и морфометрических показателей и представлений. Приводятся примеры о процессах, происходящих в окружающей среде. Предлагается уделять особое внимание усвоению знаний об особенностях экологии родного края, практических мерах по охране природы и формированию у учащихся необходимых навыков экологической направленности.

Ключевые слова. Экология, образование, экологическое воспитание, экологические знания, экологические навыки, защита окружающей среды, интеллектуальный уровень, процесс, представление, ощущение.

Given article is devoted to the problem of formation of ecological skills of students on the basis of development in them morphological and morph-metric indicators and representations about the processes occurring in environment. The special attention is given to mastering the knowledge about ecology features of a native land, practical measures on wildlife management and forming in pupils necessary skills of an ecological orientation.

Key words. Ecological education, ecological knowledge, ecological skill, environment protection, intellectual level, the phenomena, a situation, process, representation, sensation, morphology.

Inson hayoti uni o'rab turgan tabiiy muhit bilan uzviy bog'liq. Atrof muhitning gullab yashnashi bevosita fan va texnika taraqqiyoti bilan o'lchanadi. Bu esa, ta'lim muassasalarida ekologik ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, o'quvchi yoshlarda ekologik ko'nikma va malakalarni shakllantirish bilan bevosita bog'liq.

Ma'lumki, jadal sur'atlar bilan kechayotgan fan-texnika inqilobi, odamlarning mehnat sharoiti, turmush darajasi yaxshilanishiga ijobiy ta'sir etish bilan birga ba'zida u yuzaga keltirayotgan ekologik o'zgarishlar, o'z navbatida, ona tabiatga

va uning bag'ridagi insoniyatga asoratli ta'sir ko'rsatmoqda. Shunday ekan, ta'lim tarbiya sohasida o'quvchi yoshlar ekologik ko'nikmasini shakllantirishning pedagogik asoslarini ishlab chiqish dolzarb muammolardandir.

Ekologik ta'lim-tarbiya sohasi bo'yicha dunyoda turli ko'rinishda, mavzu, shakl va hajmda ko'plab ma'lumotlar chop etilmoqda. Ular nafaqat har xil til va yozuvda, balki o'ziga xos informatik uzatuvchi va tez moslanuvchi kosmik kommunikatsion usullar orqali butun insoniyatga jadal sur'atlarda tarqalmoqda. Shuning uchun ham hozirgi zamonda o'quvchini har qanday nashriyot mahsulotlari bilan qiziqтира olish va uning e'tiborini jalb qilish murakkabdir. Demak, bu borada, avvalo, fan-texnika yutuqlarini puxta egallagan, intellektual saviyali mustaqil va teran fikrlovchi yoshlarni tarbiyalash lozim.


O'smir yoshlar dunyoqarashini komil inson darajasida shakllantirishda, eng avvalo, shaxsning intellektual jihatdan rivojlanishi uchun mustahkam zamin hozirlash zarur. Ekologik bilimlarni o'zlashtirish aynan aqliy kamolotni anglatmaydi, balki uning bir mezonini vazifasini bajaradi, xolos.

Shuni ta'kidlash lozimki, o'quvchi yoshlarni komil shaxs sifatida shakllantirish muammosi zahirida ularda ekologik ko'nikmalarni hosil qilish va rivojlantirish muammosi muhim o'rin tutadi. Tabiiy jarayonlarga o'zini moslash ko'nikmasi – bu o'zini anglashni rivojlantirishning asosiy komponenti hisoblanadi. Ya'ni o'quvchi o'zining jismoniy kuchi, aqliy salohiyati imkoniyatlari, kundalik xatti-harakatlari vositasida atrof tabiiy muhitga o'z munosabatini anglaydi.

O'quvchi ongida 7 yoshdan boshlab atrof-muxitga munosabat jarayonida umumiy qat'iy bo'lmagan o'z-o'zini baholash ko'nikmalari shakllanib boradi. Demak, ekologik ta'lim-tarbiya borasidagi o'quv-biluv jarayonida o'z oldiga maqsad qo'yish, tabiiy muhit jarayonlarini idrok etish, sezish, tasavvur qilish hamda bu jarayonlar to'g'risidagi ma'lumotlarni eshitish va ularga moslashish ko'nikmalarini boshlang'ich sinflardan boshlab shakllantirib borish maqsadga muvofiqdir. Endigina hayotga qadam qo'ygan yoshlarimiz ongiga o'lka tabiatini muxofaza etish va uning boyliklarini asrash, ko'paytirish ko'nikmalariga doir insonga xos hissiyotlarni tarkib toptirish, atrof tabiiy muhitga oqilona munosabat madaniyatini shakllantirishga jiddiy e'tibor qaratish zarurdir. Chunonchi, o'quvchilarning ekologik bilim darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, ya'ni tabiat qonunlarini yaxshi bilsa, ana shundagina inson va atrof muhit tabiiy jarayonlari orasidagi munosabat madaniyati ham shu qadar yuqori bo'ladiki, natijada, real muhitda sodir bo'ladigan ko'ngilsiz oqibatlarining oldi olinadi, go'zal ko'rinish va faol taraqqiyot yuzaga keladi.

Fizika va unga bog'lanishli tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida, ya'ni darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilar ongiga ekologik ko'nikmalarni singdirishda quyidagi vazifalarni amalga oshirish zarur:

bolalarni tabiat bilan tanishtirish, ularga ekologik bilim berishning asosiy yo'nalishlari va amaliy shakllarini aniqlash



Atrof tabiiy muhit hodisa va jarayonlari to'g'risida eshitish inson idroki va tafakkurini rivojlantirib, voqea va hodisalarga nisbatan o'z kechirmalarining samarasini kuchaytirish imkonini beradi.

Inson atrof-muxit tabiiy jarayonlariga javoban o'zining morfologik va morfometrik ko'rsatkichlarini eshitish, tasavvur qilish, ko'rish hamda sezish yordamida moslashtirib borish modelini keltiramiz. Bunda morfologik va morfometrik ko'rsatkichlar turli vositalar orqali ham xosil qilinishi mumkin:

Tasavvur qilish orqali:

– chuqur → chuqurlik → chuqurroq → jar → pastlik → soylik → tekisrok → tekislik → tep-tekis → tepalik → qir → do'nglik → yassi tog' → cho'qqi → baland cho'qqi;

– koks shaxtasi → cho'yan ishlab chiqarish → zavod → Martin uchog'i → IES → koks → gaz → mazut → toshko'mir → chang → oltingugurt → kimyoviy tarkib;

– transport → qudratli mexanizmlar → tog'-u toshlarni ag'dar-to'ntar qilish → tabiiy rel'efning buzulishi → muhit o'zgarishi;

– cho'llanish → kasallanish → kamayish → qirilish;

Qurish orqali:

– sur tusli qo'ng'ir tuproq → o'tloqli tuproq;

– yirik chang diametri $d \approx 0,05 \text{ mm} - 0,01 \text{ mm}$ → o'rta chang $d \approx 0,01 - 0,05 \text{ mm}$ → mayda chang $d \approx 0,005 \text{ mm} - 0,001 \text{ mm}$ → yirik toshli $d > 20 \text{ mm}$ → mayda toshli $d \approx 10 \text{ mm} - 7 \text{ mm}$ → juda mayda toshli $d \approx 7 \text{ mm} - 3 \text{ mm}$ → yirik $d \approx 3 \text{ mm} - 2 \text{ mm}$ → yirik qum $d \approx 1 \text{ mm} - 0,5 \text{ mm}$ → o'rta mayda qum $d \approx 0,5 \text{ mm} - 0,25 \text{ mm}$ → changli qum $d \approx 0,25 - 0,05 \text{ mm}$ → loy dag'al $d \approx 0,002 \text{ mm} - 0,001 \text{ mm}$ → mayda gil $d \approx 0,005 \text{ mm} - 0,001 \text{ mm}$ → fizik qum $d > 0,01 \text{ mm}$ → fizik loy $d < 0,01 \text{ mm}$

→ yirik poloxsa $d > 10 \text{ mm}$ → yirik kesakcha $d \approx 10 \text{ mm} - 3 \text{ mm}$ → to'zon chang $d \approx 0,05 \text{ mm}$ → yirik yongoqsimon $d > 5 \text{ mm}$ → plitasimon $d \approx 5 \text{ mm} - 3 \text{ mm}$;

– tun → shafaq → shu'la → yorug'roq → yorug' → uta charaqlagan yorug';
– toza suv → rangsiz → tiniq → suyuqlik → suvda eriydigan qushimchalar rang va ta'm beradi → zichlik 4°S da 1 g / ml → issiqlik sig'imi $4,18 \text{ J / K (g)}$ → 0°S da muz → erituvchi → 100°S da qaynash → bug'lanish;

– suv → vodorod → kislorod → 1000°S da parchalanadi → metall + suv = ishqor + vodorod → metall oksid + suv = ishqor → metall oksid + suv = kislota → tuz + suv = kristallgidrat → qizdirilgan temir + suv = temir oksid + vodorot;

– katta bino → bino → uy → uy joy → toshko'mir → neft → torf → gaz;

Sezish orqali:

– o'ta sovuq (-50°S – -65°S) → sovuq (-35°S – -45°S) → sovuqroq (-25°S – -30°S) → ilik (-10°S – -20°S) → issiqroq (15°S – 25°S) → issiq (30°S – 40°S) → o'ta issiq (45°S – 55°S);

– ta'msiz → hidsiz → isiydi → soviydi;

– quruk havo $< 50\%$ → nam havo ($50\% - 80\%$) → o'ta nam havo $> 80\%$;

– gaz → chang → temir ($35\% - 50\%$) → is gazi ($4\% - 14\%$) → kremniy ($8\% - 13\%$) → tuz → alyumin → magniy → marganets → oltingugurt oksid;

– suvsizlik → kasallanish → kamayish → qirilish;

– namlik pasayishi → kasallanish → kamayish → qirilish;

Yuqorida keltirilgan ekologik omillarga nisbatdan inson o'z morfologik va morfometrik ko'rsatkichlarini moslab boradi.

O'quvchi yoshlar atrof tabiiy muhitga tabiat birlamchiligi nuqtai-nazaridan yondashib morfologik va morfometrik ko'rsatkichlarini moslab borish ko'nikmasini egallash natijasida:

1. Atrof muhit muhofazasiga doir xatti-harakatlarini amalga oshirishga odatlanadilar.

2. O'lka tabiati gullab yashnashiga hissa qo'shish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

3. Moddiy dunyoning asl mohiyatini tushunadilar.

4. Ekologik jarayonlarga nisbattan intellektual yondashish qobiliyati shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Negmatov A. *Ekologiya nima?* – T., 2001. 9-10-b.

2. To'xtayev A. *Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish.* – T.: "O'qituvchi". 1994.

3. Otaboyev Sh., Nabiyeu M. *Inson va biosfera.* – T.: "O'qituvchi". 1995.

Nilufar O'RINOVA,

Farg'ona DU pedagogika kafedrası mudiri, p.f.n.

Mavjudaxon URALOVA,

Farg'ona DU katta o'qituvchisi

TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada muallif ta'lim jarayonini loyihalashda, ta'lim sifati oshishini ta'minlashda innovatsion yondashuvning ahamiyati haqida ma'lumot bergan. Shuningdek, o'quvchilarda ta'limga bo'lgan motivatsiyani oshirish, ularda intellektual xususiyatlarni shakllantirishning yana bir yo'li – refleksiya uslublaridan foydalanishni atroflicha ochib berilgan.

Kalit so'zlar. Darsni loyihalash, innovatsion yondashuv, ta'lim sifati, jarayon, maqsad, mohiyat, qobiliyat, ta'lim samaradorligi.

В статье освещены вопросы проектирования урока, раскрыты сущность типов обучения, обеспечивающие повышение качества образования. Также автором перечислены педагогические технологии, которые могут эффективно применяться в начальной школе.

Ключевые слова. Проектирование урока, инновационный подход, качество обучения, процесс, цели обучения, талант, эффективность образования.


The article highlights the issues of designing lesson, discloses the essence of the types of training that enhance the quality of education. Also the author lists pedagogical technologies, which can be effectively used in primary school.

Key words. The design of the lesson, innovative approach, the quality of learning process, learning objectives, talent, education efficiency.

Ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish masalasi mamlakatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi. Ma'lumki, har qanday jarayonning sifat darajasi belgilangan maqsadlar bilan o'lchanadi. Puxta o'ylangan, pedagogik-psixologik qonuniyatlarni inobatga olgan holda loyihalashtirilgan jarayongina maqsadga aniq erishishni ta'minlaydi.

Darsni loyihalash murakkab jarayon bo'lib, o'qituvchidan yuksak mahorat, kuch va vaqt talab qiladi. Loyihalash maqsad-mohiyatini, bosqichlarini aniq tasavvur qilish o'qituvchining faoliyatini osonlashtiradi va samarasini oshiradi. Quydagi dars jarayonini loyihalashtirish bosqichlari chizma orqali ifodalangan:

Ta'lim jarayonini loyihalashda usul tanlash bosqichini eng murakkab bosqich, deb aniqlash mumkin. Chizmadan ko'rinib turibdiki, usul ta'lim maqsadi va mazmuni bilan qat'iy bog'liqlikda tanlanadi. Demak, o'qituvchi ta'limning umumiy va



xususiyl maqsadlarini, ta'lim turlari mohiyatini o'ziga aniq tasavvur qilishi lozim. Quyida ta'lim maqsadi va turlari borasida kengroq to'xtalamiz.

Yurtimizda ta'lim tizimi insorparvar g'oyalarga asoslangan bo'lib, bola shaxsini ta'lim jarayoni markaziga qo'yib, uni jismonan va aqlan rivojlantirishni, unda insoniylik fazilatlarini shakllantirishni asosiy maqsad, deb belgilamoqda. Ushbu maqsadga erishish uchun har bir o'qituvchi bola shaxsining rivojlanish qonuniyatlari, o'ziga xos xususiyatlari hamda bu jarayonni to'g'ri tashkillashtirish haqidagi bilimlarga ega bo'lishi zarur.

Shaxs rivojlanishi bu uning miqdoriy va sifat xususiyatlarining o'zgarish jarayonidir. Bunda shaxsning jismoniy o'zgarishi, dunyoqarashi, xarakteri, qobiliyati, psixologik jarayonlari o'zgarishi tushuniladi. Rivojlanishning biologik xususiyatlari (masalan, asab tizimi turi, moyillik) ushbu jarayon kechishi va natijasiga ta'sir etuvchi muhim omillardan biridir.

Bolani hayotga tayyorlash maktabning umumiy maqsadi ekan, ma'lum jihatdan biz unga bo'lajak mutaxassis sifatida qarashimiz lozim. Tadqiqotchilar tomonidan moyilligi, iqtidoriga mos bo'lgan kasbni egallagan inson o'z kasbiy faoliyatini boshqalarga nisbatan muvaffaqiyatli amalga oshirishi isbotlangan. Demak, o'qituvchi o'quvchidagi moyillik, qobiliyat, iqtidorni imkon qadar ertaroq aniqlashi, uni rivojlantirish uchun maqsadli faoliyat olib borishi, buning uchun zarur sharoitlar

yaratib berishi darkor. Bu, o'z o'rnida, o'qituvchidan bola shaxsini rivojlantirish mexanizmlarini bilish, ularni amaliyotda qo'llay olishni talab qiladi.

Rivojlantiruvchi ta'limning asosiy xususiyati darsni tashkillashtirishdagi o'zi-ga xosligidir. Bunday ta'limda o'qituvchining asosiy roli o'quvchining bilish fao-liyatini tashkillashtirishdir. O'quvchi esa ta'lim jarayonining subyektiga aylanadi, bilimlarning asosiy qismini mustaqil o'zlashtiradi. Bu unda mustaqil tafakkurni shakllanib borishi, qobiliyatini rivojlanishini ta'minlaydi.

Amaliyotchi pedagoglar orasida o'tkazilgan so'rovlarga ko'ra ularda faqat yuqori sinflarda ta'lim jarayonida o'quvchini subyekt darajasiga ko'tarish mumkin, boshlang'ich sinf bolasi bunga qodir emas, degan fikr mavjudligini ko'rsatdi. Le-kin ilg'or tajribalar shuni isbotlanganki, mahoratli, ijodkor o'qituvchi samarali innovatsion g'oyalarni qo'llab, boshlang'ich sinf o'quvchisini ham ta'lim jarayoni subyektiga aylantira oladi.

Rivojlantiruvchi ta'lim o'quvchini har xil faoliyat turlariga jalb etish, darslarda didaktik o'yinlar, ijodiy fikrlashni talab qiluvchi usullardan keng foydalanishni nazarda tutadi.

Buning uchun:

- har bir o'quvchiga tashabbus ko'rsatish, mustaqil faoliyat olib borish va ijod qilishga imkoniyat beruvchi pedagogik vaziyatlarni yaratish;
- o'quvchilar bilish faoliyatini intensivlashtirish;
- har bir o'quvchida darsga qiziqish uyg'otish, mashg'ulotlarda muvafaqqiyatli vaziyatini yaratish, o'qishga bo'lgan motivatsiyasini oshirish;
- o'quvchilarni atrof-dagi olamni mustaqil o'rganish, axborot manbalari bilan mustaqil ishlashga o'rgatish orqali ta'limda faol bo'lishiga erishish;
- o'quvchilarni o'z fikrini bayon etish, topshiriqlarni turli yo'llar bilan bajarishga undash kerak.

Yuqorida sanab o'tilgan didaktik sharoitlarni yaratish o'qituvchida innovatsion pedagogikaga oid bilimlar, darsni loyihalashtirish, turli ta'lim texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalari, ijodiy tafakkurni shakllangan bo'lishini talab qiladi. Zamonaviy pedagogika ta'limga turlicha yondashuvlarni tatbiq etish tarafdori.

Masalan, *loyihaviy ta'lim* qo'llanilishi darsda har bir o'quvchiga tashabbus ko'rsatish, mustaqil faoliyat olib borish va ijod qilishga imkoniyat beruvchi peda-gogik vaziyatlar yaratilishini ta'minlaydi.

O'yinli ta'lim, jumladan, raqobat, bellashuvga asoslangan o'quv mashg'ulotlari o'quvchilar bilish faoliyatini intensivlashtiradi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim har bir o'quvchida darsga qiziqish uyg'otish, mashg'ulotlarda muvafaqqiyatli vaziyatni yaratish, o'qishga bo'lgan motivatsiyani oshirishni ta'minlaydi.

Muammoli ta'limni qo'llash orqali o'quvchilarni atrof-dagi olamni mustaqil o'rganish, axborot manbalari bilan mustaqil ishlashga o'rgatish, o'quvchi faolligini oshirishga erishiladi. Natijada, o'quvchilarda ta'limga bo'lgan motivatsiya kuchayib, ularda mustaqil tafakkur, ijodkorlik, tashabbuskorlik rivojlanadi.

Quyida ta'lim turlari xususiyatlariga batafsilroq to'xtalamiz.

Muammoli ta'limga asoslangan dars o'quvchini mantiqiy, ijodiy fikrlashga, noma'lum bo'lgan ma'lumotlarni izlab topishga da'vat etadi. Bunga o'quvchilar oldiga muammoli savol, muammoli vaziyatlarni qo'yish orqali erishiladi. Boshlang'ich sinflarda muammoli savol, vaziyatni shakllantirishda, albatta, o'quvchilarning yoshi, bilim darajasi inobatga olinishi shart. Shunda muammolarni yecha olgan o'quvchilarda ko'tarinki kayfiyat, o'z kuchiga ishonch hissi vujudga keladi va bu ularning ta'limga bo'lgan munosabatiga ijobiy ta'sir etadi.

Muammoli ta'limni to'g'ri tashkillashtirishda eng murakkab masala – muammoli savol, vaziyatni shakllantirishdir. Bu borada bir necha uslubiy ko'rsatma beramiz:

1. Dars mavzusini aniqlash – o'qituvchi “qor”, “yaxmalak”, “archa” so'zlarini berib, dars qaysi mavzuda bo'lishini topish vazifasini beradi.

2. Tabiat manzaralari, inshootlar tasvirlangan bir qator rasmlarni ko'rsatib, ularning qaysilari O'zbekistonga oidligini ajratib ko'rsatishni so'raydi.

3. Ertak qahramonlari tasvirlangan rasmlarni ko'rsatib, ularni ma'lum bir jihatdan guruhlariga ajratish vazifasini beradi (masalan, bir-biri bilan inoq qahramonlar yoki mehnatsevar qahramonlar va h.k.).

4. Aralash berilgan ertak qismlarini to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish vazifasini beradi (albatta, bunda hajmi kichik bo'lgan ertaklar olinishi kerak).

5. Ertakni tahlil qilishda “Shu ertak qahramoni o'rnida bo'lganingizda Siz qanday yo'l tutgan bo'lar edingiz?” yoki “Ertak davomini faraz qiling” kabi vazifalar beradi.

Bugungi kunda deyarli barcha o'qituvchilar dars jarayonida axborot ta'lim texnologiyalari, jumladan, kompyuter texnologiyalaridan o'quvchilarga yangi ma'lumotlarni tez va samarali uzatish, ularning bilimini test orqali sinash vositasi sifatida foydalanib kelmoqda. O'quvchilarni birgalikda taqdimotlar yaratishga, bunda “Paint”, “PowerPoint” dasturlaridan foydalanishga jalb etish ham mumkin. Tajribalar shuni ko'rsatdiki, 6 yoshli bolalar ham ushbu dasturlarda muvaffaqiyatli ishlay oladilar. Lekin bunda kompyuterli darslar gigiyenasiga qat'iy rioya qilishni unutmazlik lozim.

Dars jarayonida **axborot ta'lim texnologiyalaridan** foydalanish natijasida: o'quvchilarda ma'lumotlarni to'plash, ularni o'zaro taqqoslash, tashkillash, o'z fikrlarini og'zaki va yozma ifoda etish, rasm chizish, kompyuterda ishlash kabi ko'nikmalar rivojlanadi, ta'limga bo'lgan motivatsiya ortadi.

Loyihaviy ta'limga asoslangan dars natijasida amaliy yoki nazariy ahamiyatga ega bo'lgan mahsulot yaratiladi. Bunda loyihaviy faoliyat maqsadi, ish tartibi, ketma-ketligi o'quvchilar bilan birgalikda aniqlanadi va butun jarayonni o'quvchilarning mustaqil faoliyati tashkil qiladi. O'qituvchi esa, maslahatchi vazifasini bajaradi. Shu bois, o'quvchilarning yoshi, bilim darajasiga mos loyiha mavzusi va maqsadi tanlanishi shart. Misol tariqasida o'quvchilarda Vatanga mehr tuyg'usini shakllantirishga qaratilgan “Mening qishlog'im” (shahrim, mahallam) mavzusidagi loyiha ustida ishlash tartibini keltiramiz. Ushbu loyihaviy faoliyatga nafaqat barcha o'quvchilar, balki ularning ota-onalari ham jalb qilinishi mumkin.

1. Loyiha natijasida yaratilgan mahsulot kimga, nima uchun kerak bo'lishini aniqlaydilar (masalan, qo'shni qishloqda yashovchilarga, maktab muzeyiga,

o'quvchilarning ota-onalariga, maktabgacha ta'lim muassasasidagi bolalarga va h.k.);

2. Yakuniy mahsulot qaysi ko'rinishda bo'lishi haqida kelishib oladilar (foto-suratlar, o'quvchilar o'zlari chizgan rasmlar, "qishloq ovozi" (qushlarning sayrashi, ariqdagi suvning ovozi va h.k.) yozilgan audio disklar kabi);

3. Ish taqsimoti – ishchi guruhlar taqsimlanadi (ish turlaridan kelib chiqib fotosuratchilar, rassomlar, jurnalistlar va h.k.), ularning vazifalari aniqlanadi va o'quvchilar hamda loyihaviy ishga jalb qilingan ota-onalar o'rtasida taqsimlanadi);

4. Loyihaviy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan barcha vositalar aniqlanadi va tayyorlanadi;

5. Loyiha doirasida olib boriladigan ishlar aniqlanadi va ularning ketma-ketligi, hisobot kunlari, yakunlash sanasi belgilanadi.

6. Faoliyat belgilangan tartibda ishchi guruhlar tomonidan amalga oshirilib, o'qituvchiga hisobot berib boriladi, undan kerakli maslahatlar olinadi.

7. Loyiha taqdimoti (taqdimotni bayramona shaklda, tomoshabinlarni taklif qilib o'tkazishni tavsiya qilamiz. Bu o'quvchilar uchun rag'batlantirish bo'lib, ularning faoliyati qadr-qimmatga egaligini ko'rsatadi).

Loyihaviy faoliyatni tashkillashtirishda o'quvchilar kuchi, vaqtini e'tiborga olish, ularni haddan tashqari zo'riqtirib qo'ymaslik, faoliyatlarni o'yin tarzida olib borish, topshiriqlarni ta'lim mazmuniga bog'lash (masalan, o'qish darsida o'qitiladigan Vatan haqidagi she'r, musiqa darsida Vatan haqida qo'shiq, rasm darsida tasvirlanishi rejaga kiritilgan rasmlar va hokazo). Bunda loyiha doirasida rejalashtirilgan ba'zi ishlar darslarning o'zida bajariladi.

Loyiha doirasida ishlash har bir o'quvchida yangi bilimlardan tashqari, hamkorlikda faoliyat yuritish, izlanish, yaratish ko'nikmalarini shakllantiradi. Boshqa bir muhim jihati, ota-ona va bolani bir-biriga yanada yaqinlashtiradi, maktab va oila, maktab-oila-mahalla aloqalarini mustahkamlaydi.

O'yinli ta'limga to'xtaladigan bo'lsak, ma'lumki, o'yin boshlang'ich sinf o'quvchisining asosiy faoliyatlari biridir. Didaktik o'yinlar, ularni tashkillashtirish uslubi haqida ko'plab ma'lumotlar mavjud. O'yin jarayonida o'quvchi o'zini shaxs sifatida namoyon qiladi, uning ijtimoiylashuvi jadallashadi. Bunda bilish jarayonini jismoniy mashq bilan uyg'unlashtiruvchi (masalan, to'pni bir-biriga otish, xatoga yo'l qo'yilganda joyida sakrash va h.k.) o'yinlar ta'lim jarayonini bola uchun qiziqarli bo'lishi, unda diqqatning rivojlanishi, sog'lom bo'lishiga xizmat qiladi.

Intellectual o'yinlar bolalarda mantiqiy fikrlash, xotira, ijodkorlikni rivojlantiradi. Misol sifatida "Fikrni yakunlash", "Maqolni teskari aytish" va boshqa o'yinlarni keltirish mumkin.

O'quvchilarda ta'limga bo'lgan motivatsiyani oshirish, ularda bilimga qadriyatli munosabatni shakllantirishning yana bir yo'li **refleksiya** uslublaridan foydalanishir. Bunda o'qituvchi dars yakunida o'quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qiladi:

- sizda nima katta taassurot qoldirdi?
- qaysi faoliyatni hammasidan ham zo'r uddaladingiz?

– qaysi topshiriq sizga ko'proq yoqdi?
– qaysi topshiriqni bajarganigizda qiynaldingiz? Nimaga?
– bugun darsda kim eng faol qatnashdi?
– bugungi darsda olgan bilimlaringiz Sizga qachon va qaerda kerak bo'ladi, deb o'ylaysiz?

Shu kabi savollarni boshlang'ich sinf o'quvchilariga berishdan cho'chimaslik kerak. Chunki bolalar ularga javob berishga qodir.

Aksariyat o'qituvchilar o'quv darslarini loyihalashtirishda aynan vazifa ishlab chiqish jarayonida qiyinchilikka uchraydi. Haqiqatan ham, o'quvchilarni faollashtiruvchi, ularning diqqatini turg'un bo'lishini ta'minlovchi, ijodiy xarakterga ega bo'lgan vazifani ishlab chiqish oson ish emas. Bu o'qituvchining o'zidan ijodkorlikni, chuqur pedagogik, psixologik bilimlarga ega bo'lishni talab qiladi. Vazifa har tomonlama maqbul, ya'ni o'quvchilar qiziqishi, ehtiyoji, yosh xususiyatlarini hisobga olgan, shu bilan birgalikda, ta'lim maqsadiga mos bo'lishi shart.

Yuqorida berilgan sharh va misollar bugungi kunda ta'lim maqsadi, deb belgilanayotgan vazifalarni, ya'ni bolalarni jismonan va aqlan rivojlantirish, ularda insoniylik fazilatlarini tarkib toptirishni boshlang'ich sinfdan boshlab shakllantirish mumkinligini ko'rsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. *Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish*. – T.: “Iqtisodiyot”, 2010.

2. Tojiyev M., Tolipov O'.Q., Seytxalilov E.A., Ziyomammedov B. *Pedagogik texnologiya: Zamonaviy ilmiy-nazariy asosi* – T.: “Ishonch M.S.”, 2008.

3. Ziyomammedov B., Tojiyev M. *Pedagogik texnologiya: Zamonaviy o'zbek milliy modeli*. – T.: “Lider Press”, 2009.

4. Tojiyev M., Uralova M., M, N.Ashurov, G.Bahodirova *Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat” fani o'quv mashg'ulotlarining loyihalari* – T.: “MUMTOZ SO`Z”, 2012.

5. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. *Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari*. – T.: “Fan”, 2006.

6. Ishmuamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. *Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar)*. – T.: “Iste'dod”, 2008.

7. Ishmuamedov R. *Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari*. – T.: TDPU, 2005.

8. Селевко Г.К. *Энциклопедия образовательных технологий*. – М.: “НИИ школьных технологий”, 2006.

In'omjon RASULOV,
Qo'qon DPI mustaqil-izlanuvchisi

O'QUVCHILARDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYASI VOSITASIDA KROSSVORDLARNI TUZISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada kompyuter texnologiyasi vositada turli boshqotirma, krossvordlarni yaratish imkoniyatlari to'g'risida ma'lumot berilgan.

Muallif fikricha, o'quvchilarga krossvordlarni tuzishni o'rgatish orqali ularda ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, mavjud bilimlarini mustahkamlash hamda parkinson va alstgeymer kabi kasalliklarni oldini olish mumkin.

Kalit so'zlar. Krossvord, mashg'ulot, Word dasturi, DEMO, kompyuter texnologiyasi.

В статье говорится о занятии, дающие информации о возможности создавать кроссворды и различные головоломки с помощью компьютерных технологий. Также, автор поэтапно раскрывает сущность процесса создания кроссвордов с помощью программы Word и приводит образцы кроссвордов, созданных учениками посредством компьютерных технологий.

Ключевые слова. Кроссворд, занятие, история создания кроссворда, программа Word, ДЕМО, создание кроссвордов, компьютерные технологии.

The lesson, giving information about the possibility of creating the crosswords and puzzles by means of computer technologies. Also the essence of the process of creating the crossword puzzles with the help of Word and samples of crossword puzzles created by students through computer technologies are shown in the article.

Key words. Crossword, history of crossword, programme Word, DEMO (demonstration version), creating crosswords by means of computer technologies.

Bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida mutaxassislardan tomonidan kompyuter va axborot texnologiyalari asoslarini puxta, samarali o'zlashtirilishiga erishish har tomonlama kamol topgan shaxslarni voyaga yetkazish, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarini yuqori kasbiy malakalarga ega kadrlar bilan ta'minlash nafaqat dolzarb pedagogik vazifalarning ijobiy hal etilganligini tasdiqlaydi, shu bilan birga taraqqiyotga ham erishishga xizmat qiladi.

Ta'lim muassasalarida o'quvchi-talabalarni rebus, krossvord, skanvord, chaynvord, anagrammalarni tuzishga o'rgatish ularning aqliy va estetik qobiliyatini, tafakkurini rivojlantiradi shuningdek, dunyoqarashni kengaytirib, xotirani mustahkamlaydi. Rebus, krossvord, skanvord, chaynvord, anagramma yechish insonni tinchlantirish xususiyatiga ham ega. Shu sababli bugungi kunda zamonaviy tibbiyotda krossvordlardan tinchlantiruvchi vosita sifatida ham qo'llash tajribasi mavjud.

Ma'lum bo'lishicha, o'ylash, fikrlash, tafakkur yuritish kabi aqliy mashqlarning tez-tez bajarilishi yangi neyronlarning o'sishini ta'minlaydi va ayrim patologik kasalliklar,

xususan, Parkinson va Altsgeymer kasalliklarining rivojlanishini susaytiradi. Parkinson kasalligi – katta yoshdagilar uchun xarakterli bo'lgan sekin rivojlanuvchi surunkali nevrologik kasallik bo'lib, u neyronlarning ishdan chiqishi va halok bo'lishi bilan kechadi. Altsgeymer kasalligi – u yoki bu darajada o'zlashtirilgan bilimlarni yoddan chiqarilishi, bilish faoliyati barqarorligining asta-sekin pasayib borishini ifodalovchi aqliy zaiflik bo'lib, demensiyaning nisbatan ko'p tarqalgan turi sanaladi. Kasallik 65 yoshdan oshgan keksalarda kuzatiladi, biroq juda kam hollarda yoshlarda ham kuztilishi mumkin.

Shuningdek, krossvordlarni tuzishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

- 1) krossvord uchun muhim tayanch tushunchalarni ajratish;
- 2) qog'ozda krossvordning xomaki nusxasini yaratib olish;
- 3) xomaki nusxada namoyon bo'lgan krossvord so'zlarining shartlarini qayd etish;
- 4) kompyuter texnologiyasida xomaki nusxa asosida “Microsoft Office Excel” yoki “Word” dasturlari yordamida krossvordni yaratish.

O'qituvchi tomonidan mashg'ulotni tashkiliy-texnologik jihatdan to'rt bosqichda uyushtirishi lozim. Bu bosqichda quyidagi pedagogik vazifalar hal qilinadi:

1-bosqich. O'quvchi, talabalarni krossvord tuzish tarixiga oid ma'lumotlar bilan tanishtirish.

2-bosqich. Ko'rsatmali harakatlar vositasida krossvord yaratish jarayonini namoyish qilish.

3-bosqich. O'quvchi-talabalarni jamoa bo'lib, “Informatika va hisoblash texnikasi asoslari” faniga oid krossvordni yaratishni mashq qilishga jalb etish.

4-bosqich. Sinf, guruhning jami o'quvchi-talabalarini kichik guruhlarga ajratgan holda ularga “Informatika va hisoblash texnikasi asoslari” faniga oid krossvordni yaratishga doir o'quv topshirig'ini berish.

5-bosqich. Belgilangan vaqt davomida kichik guruhlar tomonidan o'quv topshirig'ining bajarilishi uchun sharoit yaratish.

6-bosqich. Jamoa ishtirokida kichik guruhlarning ishlari bilan tanishish (xatolarga yo'l qo'yilmaganligini o'rganish, bordi-yu xatolar mavjud bo'lsa, ularning bartaraf etilishini ta'minlash).

7-bosqich. Mashg'ulot natijalari bo'yicha yakuniy xulosalarga kelish va mashg'ulotni yakunlash.

Kompyuter texnologiyasi vositasida krossvordlarni tuzish uchun Word yoki Excel dasturlaridan foydalaniladi. Texnologiya bilan ishlash malakasini puxta o'zlashtirgan shaxslar uchun kompyuterda krossvordlarni tuzish hech qanday qiyinchilik tug'dirmaydi. Biroq kompyuter texnologiyasi asoslarini o'rganishga endigina kirishgan yoki hali bu borada yetarli bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lmagan shaxslar uchun bu jarayon oson kechmaydi. Shu sababli umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey, kasb-hunar kollejarining o'quvchilari va hatto oliy o'quv yurtlarining nomutaxassislik yo'nalishlarida ta'lim olayotgan talabalarni ham kompyuter texnologiyasi vositasida krossvordlarni tuzishga o'rgatib borish maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki, kompyuterda krossvord tuzish ijodiy xarakterga ega bo'lib, u ijodiy faoliyat mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Adabiyot, musiqa, kino, teatr va boshqa san'at turlarida ijodiy ishlar janrlarga ajratib o'rganiladi. Adabiyotda eng yirik janrlar bu – poeziya va proza hisoblansa, teatr san'atida esa spektakllar – drama, tragediya (fojia) va komediya kabi janrlarga ajratib o'rganiladi. Kompyuter texnologiyasi vositasida yaratiladigan ijodiy ishlanmalar janrlar sifatida baholanadi. Bulardan eng

ommalashgani bu – DEMO hisoblanadi. DEMO – kompyuter san'atining yetakchi janri bo'lib, u o'zida multimediyali taqdimotni namoyon qiladi. U dasturlashtirish, kompyuter grafikasi, 3 D-modellashtirish va musiqa yozish sohalaridagi imkoniyatlar va bilimlarni namoyish qilish maqsadida yaratiladi. DEMOning kompyuter animatsiyalaridan asosiy farqi shundaki, u avvaldan tayyorlab olinmaydi, balki mavjud vaqtda namoyish qilish maqsadida yaratiladi.

DEMO kompyuterda krossvordlarni oson va qulay yaratish imkoniyatini beradi. Biroq yuqorida aytib o'tilganidek, kompyuter san'atining mazkur janri ularni saqlab qolishga imkon bermaydi. Shu sababli krossvordlarni Word yoki Excel dasturlarida yaratish maqsadga muvofiqdir.

Word dasturida yaratilgan krossvord bu – oq va qora katakchalardan iborat jadval hisoblanadi. Oq katakchalarga harflarni yozish, qora katakchalarga esa, harflarni yozish mumkin emas. Ana shu shartga tayangan holda quyida kompyuter texnologiyasida bir necha namunadagi krossvordlarni yaratish jarayoni haqida bosqichma-bosqich so'z yuritiladi.

1-qadam. Jadval hosil qilinadi. Buning uchun MS Word matn muharririning "Asboblari paneli" (Панель инструментов) menyusidagi "Jadval" (Таблица) ilovasiga kursorni olib borib, "Qo'yish" (Вставить) ilovasi orqali "Jadval" (Таблица) buyrug'i bajariladi. Ekranida "Jadvalni qo'yish" (Вставка таблицы) paneli ochiladi.

2-qadam. "Jadvalni qo'yish" (Вставка таблицы) ilovasida krossvordning o'lchami belgilash talab qilinadi. Buning uchun "Jadvalni qo'yish" (Вставка таблицы) ilovasida zarur qator va ustunlar soni belgilanadi. Namuna sifatida beriladigan krossvordlardan birinchisi uchun 17x9 (yonlanmasi bo'yicha 17 ta, bo'yi bo'yicha 9 ta) katakcha kerak.

3-qadam. Ekranida paydo bo'ladigan jadval mukammal shaklga ega bo'lmay, nihoyatda yoyilgan holda bo'ladi.


4-qadam. Jadval kerakli o'lchamga keltiriladi. Jadvalni kichikroq hajmga keltirish uchun tortish kerak. Buning uchun sichqonchaning o'ng tugmasini bosib, "Jadval" (Таблица) ilovasining yuqori chap tomoniga kursorni bosib, menyudan "Jadval xossasi" (Свойства таблицы) buyrug'i tanlanadi.

5-qadam. Ekranida "Jadval xossasi" (Свойства таблицы) ilovasi ochiladi. Unda "Tenglashtirish" (Выравнивание) buyrug'i bilan jadvalni chap va o'ng tomonlarga, markazga qo'yish, atrofidan romni o'chirish, mutlaqo hech narsani qo'ymaslik harakatlarini bajarish uchun oynalar mavjud. Ular orasidan "Markazga" (По центру) buyrug'i tanlanadi.

6-qadam. So'ngra xuddi shu menyuda katakchalarning o'lchami belgilanadi.

Jadval katakchalarining 1sm dan iborat bo'lishi belgilanadi. Bu holda quyidagi jadval hosil bo'ladi.

7-qadam. Birinchi bosqichda tuzilgan loyiha bo'yicha jadvalda krossvordning chegara va harflar yozilmaydigan kataklar ajratiladi. Buning uchun sichqonchaning o'ng tomonini bosilib, menyu ochiladi. Menyudan "Chegara va babbat" (Границы и заливка) ilovasi bosilib, unga ko'ra kursor yordamida yopiladigan kataklar belgilab olinadi. Dastlab "Chegara va babbat" (Границы и заливка) ilovasida "Sahifa" buyrug'iga kirib, unda sahifa turi tanlanadi. Buning uchun "Tur" ("Тип") ilovasi bilan kerakli shaklda kursor bosiladi. So'ngra "Chegara va babbat" (Границы и заливка) menyusida "Babbat" (Заливка) ilovasi bilan kerakli rang (fon) tanlanadi. Tanlangan rang (fon) bilan yopilishi kerak bo'lgan katakchalar berkitib chiqiladi. Masalan quyidagi tartibda:



8-qadam. Belgilangan ochiq va yopiq kataklar bo'yicha topiladigan so'zlar tartib raqamlari bilan belgilanadi.

Ushbu krossvordning markaziga “Kompyuter” so'zi yozilgan xomaki nusxasida quyidagi so'zlarni topish ko'zda tutilgan edi.

1. Magnit diskning aylanishini, shuningdek, uni o'qish va unga ma'lumotlarni yozishni boshqaruvchi mexanizm.

2. Mikrofon, quloqchin (naushnik), dinamik, sintezator va boshqa qurilmalar yordamida ovozni yozish, uni qayta ishlash va dasturiy vositalarni yaratishga imkon beruvchi maxsus elektron moslama.

3. Maxsus optik texnologiyalar yordamida yaratilgan ixcham xotira (CD-ROM).

4. Bir necha fayllar erkin holda joylashtirilgan to'plam, jamlanma.

5. Turli kompyuter texnologiyalarida bir necha axborot vositalari – grafika, matn, video, fotografiya, animatsiya, ovoz effektlarining jamlanishini ifodalovchi tushuncha.


6. Kompyuterda programmalarning ishini ta'minlovchi.

7. Microsoft Word programmasida matnlarni yozish uchun foydalaniladi.

8. Ikki moslama detallarini bir-biriga kiritib ulash orqali axborotlar almashtirishni ta'minlovchi elektron sxema.

9. Tirik organizm yoki boshqariluvchi qurilma (kompyuter, robot) orqali ularning hayotiy faoliyati va ishi jarayonida qabul qilinadigan obyektlar, atrof-muhit hodisalari, ularning o'lchami, xossasi, holati to'g'risidagi ma'lumot.

Mashg'ulot jarayonida o'quvchi (talaba)lar e'tiboriga yuqorida keltirilgan namunadagi krossvordni topish vazifasini ham berish mumkin. Taqdim etilgan yechim quyidagicha bo'lsa, krossvord to'g'ri topilgan bo'ladi:



Kompyuter texnologiyasi vositasi-
da krossvord yaratishga oid mashg'u-
lotlarda o'quvchi(talaba)lar tomonidan
bir nechta krossvordlar yaratildi. Quyida
ulardan ayrim namunalar keltiriladi.

1-namuna:

i	i	i				m				
d	n	n	v			u				
e	t	t	i			l	k	n	m	
n	e	e	d	k	t	a	o	o		g
t	r	r	e	u	l	t	u	n	s	r
i	n	f	o	r	m	a	t	i	k	a
f	e	e	a	s	e	l	b	t	a	f
i	t	y	d	o	d	o	u	o	n	i
k			s	a	r	i	g	k	r	e
a						p	a			r
t						t				
o						e				
r						r				

2-namuna

	k	a	t	a	l	o	g			
i	n	t	e	r	n	e	t			
		b	a	y	t					
				d	i	s	k			
		d	r	a	y	v	e	r		
				d	i	s	k	o	v	o
	m	o	n	i	t	o	r			
			d	a	s	t	u	r		
					d	i	s	p	l	e

Demak, zamonaviy kompyuter texnologiyasi turli mavzu va shakllardagi krossvordlarni yaratish borasida katta imkoniyatlarga ega. O'quvchi (talaba)larda kompyuter texnologiyasi vositasida krossvordlarni yaratish borasidagi nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirish vazifasini ijobiy hal qilish ana shu imkoniyatdan samarali foydalanishni ta'minlaydi. Nazariy va amaliy bilimlarni puxta o'zlashtirish orqali Word va Excel dasturlari yordamida o'quvchi-talabalar krossvordlarni tez va oson yarata oladi. Zamonaviy kompyuter texnologiyasi vositasida krossvordlarni yaratish esa o'quvchi-talabalarga ushbu fanga oid ma'lumotlarni puxta o'zlashtirish, mavjud bilimlarni mustahkamlash, ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. ДЕМО / <http://ru.wikipedia.org/wiki>.
2. Как составить кроссворд // <http://crosswordscity.ru>
3. Кроссворд. Головоломка от некоего <http://www.superstyle.ru/news/4199>
4. Madvaliyev A. va boshqalar O'zbek tilining izohli lug'ati. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". - Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 671 b.

Malika PO‘LATXO‘JAYEVA,

Nizomiy nomidagi TDPU katta o‘qituvchisi,

Feruza USMONOVA,

Ohangaron tumani 44-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi psixologi

MAKTABGACHA TA‘LIM YOSHIDAGI KO‘ZI OJIZ BOLALARNING IJTIMOIYLASHUVIDA RUHIY TARBIYANING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada ko‘zi ojiz bolani tarbiyalash va unda o‘quv malakasini shakllantirishda ota-ona hamda tarbiyachi-pedagogning o‘rni haqida so‘z boradi. Muallifning ta’kidlashicha, bolalarni ijtimoiy jarayonga aralashuviga erishish bolaning atrofdagilar harakatini o‘zlashtirib, buni o‘yinchoqlar vositasida mustaqil bajarib ko‘rish imkoniyatini paydo qiladi va shu tariqa ularda tajriba, malaka shakllanishiga erishish mumkin.

Kalit so‘zlar. Tarbiyachi, mashg‘ulot, harakatli o‘yinlar, nutq qobiliyati, ko‘nikma, tajriba, malaka, atrof-muhitga moslashish.

В статье рассматриваются вопросы активного влечения родителей в процесс развития ребёнка с нарушенным зрением. Обсуждаются вопросы педагогической помощи детям с нарушенным зрением в условиях семьи. Автор предлагает основные методы обучения и воспитания детей дошкольного возраста в условиях семьи. Затрагиваются психологические и социальные проблемы, с которыми сталкиваются родители детей с нарушенным зрением.

Ключевые слова. Воспитатель, занятие, активные игры, педагогическая помощь, навык, процесс развития, психологические и социальные проблемы, адаптация.

The article deals with the issues of active involvement of parents in the process of development of children with impaired vision. Discusses pedagogical assistance to children with impaired vision in the context of the family.

The author gives the main methods of training and education of preschool children in a family environment, affected psychological and social problems faced by parents of children with impaired vision.

Key words. Thaecher, pre-school, age lesson, active games, educational assistance, development, psychological and social problems.

Oilada farzand dunyoga keldi, ne-ne umid va orzular ilinji bilan kutilgan go‘dakning ko‘zi ojiz bo‘lsa... ota-ona uchun bunday holatni anglay olishning o‘zi katta tashvish va tahlikadir. Chunki bolakayning kelajagi qanday bo‘larkin, bunday nuqson uning aqliy va jismoniy rivojiga qanday ta‘sir qilar ekan, o‘qiy olarmikan, yon-atrofdagilar bilan muloqotda bo‘la olarmikan?... Shu kabi sanoqsiz savollar bir zumda ota-onani qiynab yuboradi. Bunday savollarga o‘rinli

javob topa olish esa, ota-onaning sabrlliligi va irodasiga bog'liq. Ko'zi ojiz bolaning normal hayotga, ijtimoiy turmushga ko'nikib, shu muhitga moslasha olishi ota-onadan sabr-toqat, chidamlilik, mehribonlik hamda ma'lum pedagogik yondashuvni taqozo etadi.

Hozirgi kunda ko'rish qobiliyatidagi ba'zi nuqsonlar (masalan, uzoq yoki yaqinni ko'ra olmaslik kabi) samarali davolanmoqda. Ammo ko'rish anali-zatorlarining tug'ma nuqsonlari, ba'zida homilaning ertaroq tug'ilishida ko'proq uchrab turadigan holatlardagi ko'rish nervlarining biror shikasti yoki umuman rivojlanmay qolishi ko'rish qobiliyatini susaytirib yuboradi. Bunday nuqsonlarni deyarli davolab bo'lmaydi.

Ko'rish qobiliyati juda sust bo'lgan bolalar 2-3 oylik bo'lguniga qadar, xuddi shu davrdagi sog'lom bolalar kabi rivojlanib boradi.

Ammo bundan buyon uning nuqsoni bilina boshlaydi. Harakatlanishi, u yoq-bu yoqqa ag'darilishi, o'tirishga intilishi, biror predmetlarni ushlab olishga intilishi o'z tengdoshlariga nisbatan sust bo'ladi. Fikrlashi ham zaifroq kechadi. Ko'rish qobiliyatining zaifligi uning psixik, jismoniy va hissiy rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada, bolada quyidagi nuqsonlar seziladi:

- kayfiyatning pastligi;
- harakatchanlikning sustligi;
- kamgaplik;
- o'zi bilan o'zi ovora bo'lib qolishlik;
- o'z tengdoshlari bilan muloqotga moyillikning yo'qola boshlashi.
- Ko'pchilik ota-onalar o'z bolalarining ko'rish qobiliyatlari zaifligini sezgan za-

hoti bu muammoni tibbiy yo'l bilan hal qilishga kirishib ketadilar-da, uning psixik, jismoniy, umumiy intellektual rivojlanishiga e'tibor qilishni unutib qo'yadilar. Shuni yoddan chiqarmaslik lozimki, eng avvalo, bola ona mehriga, qolaversa, uning nuqsoniga yon-atrofdagilar sabot va chidam bilan hamdard munosabatda bo'lishlariga muhtoj.

Albatta, tabiat insonga ko'rish qobiliyatinigina emas, eshitish, hid bilish, teri orqali sezish kabi qobiliyatlarni ham in'om etganki, ular bola nuqsonini ma'lum darajada silliqqlab, atrof-muhit haqidagi zarur axborotlarni yetkazib turadi. Demak, ko'zi ojiz bola va uning ota-onasi sog'lom insonlar (ko'zi ko'radigan) yashayotgan dunyoga moslashib yashash lozimligini tushuna olishlari shart. Xiyobonlarga borib sayr qilganda, ko'chada, hovlida o'ynab yurganda, sirk yoki bolalar teatriga borganda ko'zi ojiz bola sog'lom bolalar bilan muloqotda bo'ladi. Bunday holatlarda sog'lom bolalar ko'zi ojiz bolaga ko'proq e'tibor berib, ko'plari achingan holda mehribonlik ko'rsatsa, ba'zi bir bolalar qitmirlik qilib yoki o'zi bilmagan holda uning ko'zi ojizligi uchun qo'pol muomalada bo'lishlari mumkin. Bunday holatlarga guvoh bo'lgan ko'zi ojiz bolaning ota-onalariga vazminlik, sabrlilik va hushmuomalalik juda zarurdir.

Ota-ona ko'zi ojiz bolaning o'rtoqlari bergan bunday nuqson haqidagi savollariga ochiqchasiga, berkitmasdan javob berishi va bunday nuqsonli bolalar ham boshqalardan farqlanmasligini, buning uchun qattiq qayg'urish o'rinli emasligini tushuntira olishi kerak. So'ngra vaziyatdan foydalanib munozarani boshqa mavzuga ustalik bilan burish lozimki, yangi mavzuga ko'zi ojiz bola ham qo'shilib ketsin, o'z fikrini bildirsin. Bu usuldagi muloqot tufayli ko'zi ojiz bola tez orada har qanday mavzudagi bahs-munozaralarda cho'chimay o'z fikrini bildiradi oladigan,

yon atrofdagilar bilan ham bemalol muloqot qila oladigan qobiliyat paydo bo'ladi. Vazminlik va idrok bilan o'z tengdoshlari orasidagi muloqotlari tufayli orttirgan tajribasi, yaqin kunlarda butunlay begona odamlar bilan qo'rqmasdan muloqotda bo'lishga yordam beradi.

Ko'zi ojiz go'dakni ilk bor o'qitish va tarbiyalashda uning harakatchanligi katta ahamiyatga ega. Agar ko'zi ojiz go'dak yosh chog'idanoq o'z onasi bilan yon atrofida tanish yoki notanish kimsalar bo'lishiga qaramay mazmunli fikr almasha olsa, bunday bolalar o'zini-o'zi idora qila olishi, turli o'yinlar o'ynay olishi, uy sharoitida boshlang'ich ma'lumot olishi va oqibatda, brayl usulidagi alifboni o'rganishiga imkoniyat tug'iladi. Agar ko'zi ojiz go'dak o'z onasi bilan o'zaro mazmunli so'zlasha olmasa, bunday o'qitish ancha murakkab kechadi. Agar ona va begona tarbiyachi yoki o'qituvchi ko'zi ojiz bolani o'zi qiziqtirgan mazmunli savollarni berishga va shu savollarga kerakli javoblarni olishga o'rgata olsalar, bu muammoni hal qilish osonlashadi. Bunday savol-javoblar har sohada bo'lishi mumkin. Masalan, musiqa nazariyasi, notalar haqida ma'lumotlar, matematika va h.k.

Maxsus pedagogik metodikaga asoslangan maktabgacha tarbiya muassalarida tarbiyachilar ko'zi ojiz bolalar uchun alohida mashg'ulotlar o'tkazib turadilar. Masalan: harakatli o'yinlar, ashula va musiqa bilan birga nutq qobiliyati rivojlantirilsa, ularning harakat motorikasini rivojlantirish maqsadida qo'l paylari va yelkaning to'g'ri koordinatsiyalashga qaratilgan maxsus mashqlarni o'tkazib turish choralari ko'riladi. Bulardan tashqari, maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarida ko'rish qobiliyati ancha past bolalar uchun maxsus bo'rtma harflar, bo'rtma sonlar, har turli hajmiy suratlar, hayvonot va o'simliklar dunyosi haqidagi kitoblar mavjud.

Ko'zi ojiz bolalar bilan shug'ullanishda maktabgacha tarbiya muassasalarining tarbiyachilari va ota-onalar quyidagilarga e'tibor qaratishlari maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. Go'daklarni past ovozda ohang ritmiga mos ravishda allalagandek chayqatib, imkoni bo'lsa ohangga qo'shilgan holda jo'r bo'lish, biron-bir ritmik harakat qilmoqchi bo'lsa, uning harakatlariga darhol yordam berish lozim (o'z oyoqlari bilan polda turib sakramoqchi bo'lganda qo'lidan ushlab turish kabi). Albatta, bunday seanslardan keyin go'dak yolg'iz qolishi kerak emas. U uy sharoiti, atrof-muhit sharoitidagi tovushlarni eshitib turishi kerak. Masalan: onasi u yoq, bu yoqqa yurgandagi oyoq tovushi, tengdoshlarining baqiriq-chaqiriqlari, ko'chadan o'tayotgan mashina-tramvaylarning tovushi vahokazolarni eshitib turishi uning yolg'iz emasligiga ishonch hosil qiladi, bu tovushlarga ko'nikma paydo bo'ladi va atrof-muhitga moslashishi osonlashadi.

2. Ko'zi ojiz bola tarbiyasining yana bir muhim tomoni oila a'zolarining uyda qilayotgan hamma xatti-harakatlari, bir-birlariga bo'lgan muomalalari, gap-so'zlarning hammasidan ko'zi ojiz bola ogoh bo'lishi, iloji boricha, uni ham ushbu jarayonga jalb qilish zarur. Bunday holatlar ko'zi ojiz go'dakning tez orada kattalar qilgan ish yoki harakatlarni o'zlashtirib, o'yinchoqlari bilan takrorlashi uchun imkoniyat yaratadi. Demak, go'dakda qandaydir malaka, tajriba hosil bo'lyapti. Shunday yoki shunga o'xshash harakatlarni sezgan ona yoki tarbiyachi go'dakni darhol erkalatib, maqtashi, rag'batlantirishi zarur. Maqtov uning uchun katta dalda bo'ladi.

3. Ko'zi ojiz go'dakni mustaqil ravishda harakatlanishi biron-bir o'yin yoki o'zini nima bilandir mashg'ul qilib turishi uchun kattalar qulay va xavfsiz sharoit yaratishlari

lozim. Albatta, uning hamma xatti-harakatlari nazorat qilinishi kerak. Ko'zi ojiz go'dakning o'yinchoqlari, uning har kungi zarur predmetlari aniq joylarda turishi shart. Chunki u shu predmetlarni belgilangan muayyan joydan mustaqil ravishda olishi, o'ynashi, keyin esa, yana o'sha yerga qo'yishini o'rgatish kerak. Albatta, yosh go'dak bunday vazifani darhol o'rgana olmasligi mumkin, lekin kattalar uning ushbu tartibga mustaqil ravishda yondashishini doim rag'batlantirib turishlari kerak. Uning kamchiliklarini keyinroq tuzatish mumkin.

4. Bolaning yoshi, qanchalik rivojlanganligiga qarab uy sharoitida unga ma'lum bir vazifalar yuklatilishi kerak. Chunki bunday vazifalarni mustaqil bajara olishi uni ruhlantiradi va yana ham murakkabroq vazifalarni bajarishga ishtiyoqi oshib boradi. Albatta, har qanday mustaqil vazifalarni bajarish uchun xonada qulay va xavfsiz sharoit yaratilishi lozim. Masalan: elektr asboblari, har turli dorilar, dera-zaning ochiq, gaz yoki elektr plitalarining yoqilgan holda qolishi kabi holatlarda ko'zi ojiz go'dakning tana a'zolariga shikast yetkazishi mumkinligini unutmaslik lozim.

Muhimi, ko'zi ojiz go'daklarda o'zini o'zi himoya qila olishdagi sezgirlikni shakllantirishga yordam berish kerak. Chunki bunday sezgirlik bolaga keyinroq, o'z xonadonidan tashqariga, ko'chaga chiqqanida juda zarur.

5. Ko'zi ojiz go'daklar harakat motorikasining birmuncha zaifroq rivojlanishi ularning o'yin faoliyatida ham bilinadi. Ular o'yinidagi oddiylik, ko'pincha, bir xil kechadigan harakatlarda aks etadi. Sababi, ular o'zlarini yana ham qiziqroq bo'lgan o'yinlar bilan mashg'ul qila olmaydilar. Shuning uchun, kattalar ularni qiziqroq o'yinlarga jalb etishlari darkor.

6. Go'dakning harakat motorikasi rivoji hamda uning qaddi-qomati to'g'ri shakllanishida badan tarbiya mashqlarining muhimligiga e'tibor qaratmoq lozim. Badan tarbiya mashqlari go'daklarning jismoniy imkoniyatlariga qarab olib boriladi. Kichik yoshdagi go'daklar uchun badan tarbiya mashqlari vestibulyar apparati paylarning taktil sezgirligini rivojlantirishga mo'ljallangan bo'lishi lozim. Go'daklar bilan bunday mashqlarni iloji boricha past ovozda eshitilib turgan ritmik musiqaga mos ravishda harakatlantirish orqali olib borish maqsadga muvofiqdir. Tugmalarini tez-tez qadash yoki yechish, yangi o'yinchoqlarini paypaslash va uni idrok etish kabi mashqlar go'dak barmoqlari paylarining rivoji uchun muhim omildir.

7. Mustaqil ravishda o'zini-o'zi idora qilishga o'rganish va ko'nikish ko'zi ojiz go'daklar uchun eng asosiy hayotiy muammo. Go'dak faqat shu asosdagina atrof-muhitga, jamiyatga to'la-to'kis moslasha oladi. Odatda, ko'zi ojiz go'dakni o'rgatish uning qo'llarini harakatlantirish usulida olib boriladi. Masalan, ona yoki tarbiyachi uning qo'llari ustiga o'z qo'lini qo'yib, birgalikda maqsadli harakatlar qiladilar. Ya'ni har bir harakat nima uchun, nega, qanday qilib amalga oshishi kerak, kabi savollarga oydinlik kiritgan holda olib boriladi. Bu esa ko'zi ojiz go'dak bilan nutq orqali bog'lanib turishga omil bo'ladi. Uning nutqi ham rivojlanib boradi. Ko'zi ojiz go'daklar bilan so'zlashganda, albatta, uning ismini aytib, unga qarata aytilayotgan fikrni aniq ifodalash va kim bilan so'zlashayotganini bil-dirish zarur. Behosdan unga biron narsaning tegib ketishi yoki tasodifan uni turtib yuborish ham yaramaydi. Chunki ko'zi ojiz go'dak bunday tasodiflardan cho'chiydi va qo'rqib qolishi mumkin. Ko'zi ojiz go'dakka noma'lum bo'lgan predmetlarning katta-kichikligi haqida so'z borganda, uning tana a'zolari o'lchami bilan ham taqqoslab tushuntirish mumkin.

Albatta, go'dakni har qanday sharoitga to'la-to'kis o'rgatish har qaysi ona yoki tarbiyachining qo'lidan kelavermaydi. Shu bois, ko'zi ojiz go'dak boshqa ko'nikma, taassurot, malakalarni sog'lom bolalar bilan bo'lgan muloqotda o'zlashtiradi. Bunday o'zaro muloqotlar tabiiy holda mustaqil bo'lishga rag'batlantirib, unda maqsad sari intilishni shakllantiradi

Ko'zi ojiz go'dak asta-sekin ko'p ko'nikmalar hosil qilib, o'z tengdoshlari, yaqinlari, ota-ona, tarbiyachilari yordamida ko'p narsalarni o'rganadi. Bundan buyon uning yot odamlar, jamoat bilan yana ham kengroq muloqotda bo'lishi, olam, atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish lozim.

Go'dak qachon, qaysi paytdan boshlab ko'pchilik bilan muloqotga tayyor bo'ladi? Bu holatni qanday aniqlash mumkin?

Ota-onalar, tarbiyachilar shuni yodda tutishlari lozimki, ko'zi ojiz bolaning begonalar bilan muloqotga moyilligi unga nisbatan bo'lgan shirin, iliq muomalaga bog'liq. Ko'zi ojiz go'dak uning biror xususiyatini maqtab, unga nisbatan ochiq ko'ngillilikni bildirgan odamlar bilan ilk bor muloqotga kirishishga jazm qiladi. Muloqot vaqtida go'dakning yuzida tabassum paydo bo'lsa, biror qiziq voqeaga munosabat bildirib kulsa, demak, bunday ko'zi ojiz go'dak atrofdagilar bilan muloqotga tayyor hisoblanadi. Endi u har bir voqeaga emas, balki o'zi tushungan holda, o'ziga qiziq tuyulgan holat-voqealargagina kuladigan bo'lsa, bunday holat uning bilan do'stona, ochiqchasiga, iliq muomala qilganlarga nisbatan ishonch tuyg'ulari shakllanganini bildiradi. Yon atrofdagi odamlar bilan muomala qila olishi, his-tuyg'ularini shakllantira olishi ijtimoiy hayotga moslasha olishning shartlaridandir. Tabiiyki, ko'zi ojiz bola ushbu xislatlarni maktabgacha tarbiya muassasasida, (maxsus) maktabda tezroq takomillashtira olsa, hayotga moslashishi osonroq kechadi.

Ko'radiganlar uchun yuz ifodasi qanchalik ahamiyatga ega bo'lsa, insonning ovozi ham ko'zi ojizlar uchun shunchalik ahamiyatga ega. Kattalar ko'zi ojiz bolalarning eshitish qobiliyatidan foydalanib, uning o'yinchog'i qo'lidan qayerga tushdi, koptok yerdan sapchib qayerga dumalab ketishi va nihoyat, ularni qanday izlab topish mumkinligini o'rgatib borishlari kerak. Paypaslab o'yinchoqlarini qidirayotgan go'dakka “qani chap tomonni paypaslab ko'rgin”, “old tarafingdamikan yoki o'ng tomoningda?” kabi jumlar bilan yordamlashish lozim. Ko'zi ojiz bola xonadagi jihozlar qanday joylashganini yaxshi eslab qoladi. Shu sababli, biror jihozning o'rni o'zgargan bo'lsa, darhol bu haqda ko'zi ojiz bolani ogohlantirish lozim. Yana shuni ham ta'kidlash zarurki, ko'zi ojiz bolaga biror predmetni izlaganda “huv anavi yerda, mana bu yerda, anavi joyda, uzoqda, yaqinda”, degan so'zlarni ishlatish yaramaydi. Chunki ular bunday iboralarni hali anglay olmaydilar. Bunday so'zlar o'rniga “stol tagida, yonida yoki divanda, o'yinchoqlar turadigan qutida” kabi iboralarni qo'llagan ma'qul. Ko'zi ojiz bolaning harakatiga so'zlashib yordamlashganda uning nutqi ham rivojlanib boradi.

Bunday bolalar tarbiyasi va ular bosh miyasi faoliyatining faollashishida musiqaning ahamiyati beqiyosdir. Shu sababli, bolani 1–2 yoshidanoq har kuni 5–15 daqiqalik ashula, kuy eshitib turishi, unda bu sohaga qiziqish uyg'otadi. Albatta, yengil kuy, ohang, ashulalarni tanlash ota-ona ixtiyorida, ammo eshittirilayotgan ohang pastroq ovozda bo'lishi kerak. Sababi, ko'radigan insonlar o'ta yorqin

ranglarda ko'zlari qamashgani kabi ko'zi ojizlar ham o'ta shovqin tovushdan o'zlarini yo'qotib qo'yadilar.

Ko'zi ojiz go'daklar unchalik harakatchan bo'lmaganlari uchun ulardagi muvozanat, harakat muvozanati nisbatan sustroq rivojlanadi. Bu holat ular harakatidagi faollashishni susaytiradi. Shuning uchun ko'zi ojiz go'dakni ko'proq qo'lda ko'tarib, u bilan birga xonada u yoq, bu yoqqa yurib turish darkor. O'z ota-onasi bilan birga harakatda bo'lish, ko'zi ojiz bola uchun passiv harakat hisoblansa-da, uning vestibulyar apparatini tezroq rivojlanishiga omil bo'ladi. Buni yana bir muhim tomoni ham borki, ko'zi ojiz bola o'z ota-onasi bag'rida bo'lib, ularga ishonchi kundan-kunga oshadi, dadillashadi, yolg'iz emasligini idrok etadi.

Shifokorlarning fikricha, ota-onalar ko'zi ojiz go'dakni toki o'zi yurib ketgunicha har kuni sayr qildirib turishlari maqsadga muvofiq bo'lar ekan.

Yon-atrofnı o'rganishda ko'zi ojiz bolalarning sezish qobiliyati muhim ahamiyatga ega. Ko'z vazifasini bajaruvchi qo'llari orqali predmetlarning qandayligini tasavvur qiladilar. Kattalar ko'zi ojiz bolaning har qanday predmetlarni paypaslab, uning nimaligini bilish uchun mustaqil ravishda qilgan harakatlarini ma'qullab turishlari kerak. Shuni ham yoddan chiqarmaslik kerakki, bunday go'daklar ko'p narsalarni kattalar tushuntirganidan so'nggina anglab, qiziq boshlaydilar. Ko'zi ojiz go'dakka biron-bir predmetni ko'rsatganda uning qo'llarini shu predmetga tekkazib, paypaslab ko'rishlariga imkon berish, uning rangi, nimaligi, shakli, qanday maqsadda qo'llanilishi mumkinligi haqida gapirib berishlari kerak.

Ko'zi ojiz go'dakning teri orqali sezish qobiliyatini tezroq rivojlanishi uchun uni ko'proq har xil gazlamalar ustiga yalang'och holda yotqizib turish zarur.

Demak, aytilganlardan kelib chiqib, ota-onalar quyidagi tavsiyalarga alohida e'tibor qaratishlari lozim ekanini aytib o'tmoqchimiz:

- bolalarga nafaqat muhabbatli va g'amxo'r bo'lish, balki ularga o'z-o'ziga xizmat qilishlari va tevarak-atrofdan mo'ljal olishlariga yordamlashish;
- kuzatuvchanlik, o'zini farzandi o'rniga qo'ya olish, bola shaxsining ichki dunyosiga kira olish, uning ruhiy xolatini tushunish malakasiga ega bo'lishlari;
- nutq madaniyatining yuqori darajasi (narsa-hodisalarni sodda, to'g'ri va mazmunli ifodalay olish, hissiyotlilik);
- diqqat-e'tiborning rivojlanganligi (turli tasodifiy vaziyatlarga tayyor turish, o'zining salbiy hissiyotlarini yashira bilish). Xulosa qilib aytganda, ko'zi ojiz bolalar bilan muloqotda ota-ona muayyan pedagogik yondashuvni o'zlashtirgan bo'lmog'i, tarbiyachi va pedagoglar esa, bolaning yaqin kishisi sifatida ish olib borishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Лутвак А.Г. *“Тифлопедагогика”*, – М., 1989.
2. Лутвак А.Г. *“Практикум по Тифлопедагогике”*, – М., 1989.
3. Polatxojayeva. M.R. *“Defektologiyaning klinik asoslari”*. – T., 2013-yil.
4. Nurkeldiyeva. D.A. *“Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar diagnostikasi”*. – T., 2008-yil.

Сурайё МУСАЕВА,
преподаватель УзГУМЯ

ЯЗЫКОВАЯ ИНТЕРФЕРЕНЦИЯ И СПОСОБЫ ЕЁ ПРЕОДОЛЕНИЯ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

Аннотация

Maqola chet tillarini o'qitish jarayonida uchrayotgan til interferensiya muammolarini bartaraf etishga qaratilgan. Muallif fikricha, grek tilining fonetik, grammatik va orfografik xususiyatlarini boshqa tillar bilan solishtirish orqali o'quvchilarga o'rgatish samarali natijalarni beradi.

Kalit so'zlar. Chet tili, interferensiya, grek tili, o'qitish metodikasi, jarayon, muammo.

Данная статья посвящена проблеме языковой интерференции, появляющаяся в процессе обучения греческому языку как иностранному. Автором предлагаются методы и приемы преодоления фонетической и орфографической интерференции. Автор утверждает что, интерференция – это результат взаимодействия двух языковых систем в сознании индивида, изучающего второй язык. Итерференция, как межязыковое явление сопровождает процесс изучения индивидом неродного языка и исчезает при совершенном овладении им.

Ключевые слова. Иностранный язык, интерференция, методика преподавания греческого языка, процесс, проблема.

This article is dedicated to the problem of language interference is appeared in the teaching of Greek as a second language. Methods and techniques of overcoming the phonetic and spelling interference are discussed in this article.

Key words: Greek language, interference, methods of teaching Greek language. problem.

